

O`ZBEKISTON

# TALABASI

/2026.2 №2 /33/

# Ta'lim tizimi

yoshlarni hayotga  
tayyorlayaptimi?

Tashqi qarz:  
xavf yoki

# imkoniyat



3030-3656



# anons



## Chet elning va o'zimizning "ko'rozqand"imiz

Hozirgi holatingizning faqat ijobiy tomonlarini saqlagan holda narigi tomondagi faqat ijobiy narsalarga erisholmaysiz. Hozirgisdan muhim jihatlarni yo'qotish evaziga narigi tomondan nimagadir erishasiz. Gap ana shu yo'qotish va erishish arziydimi, degan savolga javob topishda.

## Bir uydagi ikki olam



Agar erkak o'z ayoli bilan sevgisini va munosabatlarini to'ydan oldingidek saqlab qola olsa, ayol aqllilik qilmay, donolik bilan yo'l tutadi, shunda oila tinch va turli xil kelishmovchiliklarsiz bo'ladi.



## "Inog'omovchilik" va millatchilik

1930-yil 30-mayda "Qizil O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarida Rahim Inog'omovni "g'oyaviy jihatdan tor-mor qilindi" deb ochiq xat uyushtirilib, tavbat-zarru qildiriladi. Rahim Inog'omov O'zbekistonni tark etishga majbur bo'ladi.

## Orzularni haqiqatga aylantiring



Bugungi muvaffaqiyatli insonlarning aksariyati aynan talabalik davrida o'zining kelajak yo'nalishini belgilab olgan. Ular o'z sohasini mukammal o'rganish barobarida, yangi loyihalar ustida ishlagan, tajribali ustozlardan maslahat olgan va zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan bilim va ko'nikmalarni egallagan.

## "Ssenariysiz" film



Qiz filmda yig'lab rol ijro etgani uchun sinfdoshlari uning ustidan kulishini vaj qilib, uyiga ketishga qaror qiladi. Biroq u rostan ham uyiga qanday borishni bilmaydi.



### Bosh axborot hamkorimiz

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

### O'ZBEKISTON TALABASI

Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

#### Jamoat kengashi

Isajon SULTON  
Abduvali XOLIQOV  
Alisher SHODMONOV  
Kamoliddin O'RINBOYEV  
Ravshan ERMATOV  
Gulmira MUSAJONOVA  
Olim TOSHOYEV  
Jenisbek PIYAZOV  
Dilorom KARIMOVA  
Ayub SHAHOIDDINOV  
Nodir JONUZOQ  
Iqbol QO'SHSHAYEVA  
Nazokat AZIM  
Bahrom IRZAYEV

#### Muassis

"INTEGRATION CENTR  
UMID" MCHJ

#### Direktor

Chorshanbi XOLMATOV

#### Bosh muharrir

Sirojiddin IBROHIM

#### Navbatchi muharrir

Otash YASHIN

Jurnal tahririyat  
kompyuter markazida  
terildi va sahifalandi

#### Sahifalovchi-dizayner

Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko'chasi 14-uy. "Invest Book" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi 12-B uy. 27.02.2026-yilda chop etishga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: [@uzb\\_talabasi](https://www.instagram.com/uzb_talabasi)



# Mundaraja

CHET ELNING VA O'ZIMIZNING "XO'ROZQAND"IMIZ	.. \02
TA'LIM TIZIMI YOSHLARNI HAYOTGA TAYYORLAYAPTIMI?	.. \12
OLAM ICHINGDADIR	.. \15
BIR UYDAGI IKKI OLAM	.. \18
ORZULARNI HAQIQATGA AYLANTIRING	.. \20
CHO'G' BOSGAN RAQQOS QISMATI	.. \22
"INOG'OMOVCHILIK" VA MILLATCHILIK	.. \26
TASHQI QARZ: XAVF YOKI IMKONIYAT	.. \30
NODIRA DADAMUHAMEDOVA: "DUNYO MUSIQA BILAN ILIQROQ..."	.. \34
"LAHZANI TUTIB QOL, YASHAB O'T LAHZANI..."	.. \44
ABDULLA MUHAMMAD: "KO'NGLIM OSMON QIZIDA..."	.. \48
"SSENARIYSIZ" FILM	.. \50
SAMIMIYAT JARCHISI	.. \54
MOLLI IVINS: "KUCHSIZLARNING KUCHLILARGA QARSHI QUROLI..."	.. \58
LUQMON BO'RIXON: KUTILMAGAN TASHVISH	.. \62
"RUHIY TAYANCH"GA AYLANGAN MATOH	.. \70



# CHET ELNING VA O‘ZIMIZNING “XO‘ROZQAND”IMIZ

\*\*\*

**A**ngliyaga kelganimga 22 yildan oshdi, ammo bu yerda haligacha tub qo‘yib palak yozmadim, o‘zimda bu yerga mansublikni his qilmayman. To‘g‘ri, vizasiz yashayverishga ruxsatim bor, immigratsiya muammolari yo‘q, biroq baribir o‘zimni begonadek his qilaman. Tilini bilsam ham baribir qonim aralashmadi. Haligacha “Qayerliksan?” deb so‘ralish jonga tekkan. Ammo ayni paytda biroq mushugimni pisht demaydi, qonunga rioya qilsam, soliqlarni to‘lasam va to‘lovlarni vaqtida bajarsam bo‘ldi, birovning ishi yo‘q.





Ammo Turkiya va Saudiyada undan ham battar o'zimni begona his qilaman. Ayniqsa, Turkiyada har qadamda kelgindi ekaningizni eslatishadi. Doimiy himoya rejimida yurasiz, aldanib qolmaslik, chuv tushmaslikka qarshi mudofaa rejimida. Shilishga nihoyatda mushtoqlar ko'p.

Saudiyada esa hujjatingiz joyida bo'lsa birov g'ing demaydi, kelgindi bo'lib yashayverasiz, ammo bari-bir o'sha begonalik hissi bor. Ammo bunga ham o'rganib ketasiz.

Eng yomoni - uzoq payt chetda yashagandan keyin siz endi o'z vataningizga ham begona bo'lib qolasiz. O'z odamlaringiz orasida o'zingizni yot his qilasiz, gaplar gapga qovushmaydi, tog'dan kelsangiz bog'dan kelayotgandek tuyuladi. Sizni faqat o'zingizga o'xshagan o'zga yurtda uzoq yillar begona bo'lib yashaganlar tushunadi.

\*\*\*

**T**inchlik ulug' ne'mat, ammo bir asrdan beri tinchlikda yashayotgan bizdek xalqlar uning qadrini his qilmaymiz. Urush hayotni ostin-ustun qilib, yashash tarzini butunlay o'zgartirib tashlaydi. Iqtisod, dehqonchilik, ishlab chiqarish va logistika ishdan chiqadi, natijada yetishmovchilik va qimmatchilik yuzaga keladi.

Minglab odamlar o'lishi va jarohatlanishi, minglab binolar xarob bo'lishidan tashqari, iqtisodiy vaziyat ham keskin yomonlashadi.

**Eriga bolasiga  
baqirganday  
baqiradi**

Urushning ekstrim oqibatlarini G'azoda ko'ryapmiz. Urushdan oldingi bilan hozirgi holati keskin farqli. Urushdan oldin ham qiyin bo'lgan, ammo hozirgisi eng qo'rqinchli tushimizdan ham dahshatliroq. Ammo shunda ham birorta g'azolik o'z joniga qasd qilgani haqida xabar chiqmadi.

Alloh najot bersin, tinchlik va osudaligimizni doimiy qilsin. Tinchlik va xotirjamlik bo'lsa, qol-gani sekin hal bo'laveradi inshaalloh.

\*\*\*

**B**ir aka aytmoqda:

- Toshkentda novostroykadagi domda bir devor qo'shnim bor, devorlar uncha qalin bo'lmagani uchun uyidagi baqir-chaqir yaqqol eshitilib turadi. Qo'shnim viloyatlik ayol, eri xitoylik uyg'ur, 3-4 ta bolasi bor. Bilganim ayoli hech qayerda ishlamaydi, shu domda 2 ta kvartirasi bor, birini ijaraga berib, birida yashaydi, ikkalasini ham shu uyg'ur yigit xotining nomiga olgan, o'zi o'zbekistonlik bo'lmagani uchun.

Xotin erni bir tiyanga olmay qo'ygan, uyida eriga bolasiga baqirganday nari oborib, beri olib keladi. Onadan o'rganib bolalar ham otaga qo'pol va behurmat muomala qilishadi. Hayron qolasan odam. Uyni er olgan bo'lsa, ro'zg'orni qilayotgan bo'lsa, bu nima muomala.

Mening fikrim - hammasiga sabab er kvartiralarni xotining nomiga olib berib qo'ygani. Xotin hozir biladi, ajrashsa hech narsa undira olmaydi er, janjallashsa, militsiyaga beradi, deport bo'ladi. Xotin yuridik tarafdin o'zining kuchli va erining kuchsiz holatini juda yaxshi his qilgani uchun haddidan oshgan. Agar kvartira xotinning nomidamas, boshqa bironing nomida yoki arendada bo'lganda, er-xotin o'rtasidagi muomala keskin boshqacha bo'lardi.

Bu bilan ayol kishini yomonlamoqchimasman. Ayollik fitrati shunaqa. Ayol kishi eriga qaramlikdagina o'z ayollik funksiyalarini to'g'ri va yaxshi bajaradi. Erdan ustunlik taraffari bo'lib, er sal kuchsiz pozitsiyada bo'lib qolsa, marhamatli bo'lolmaydi. Erning mulkida ham o'zini qul qilib qo'yadi. Endi o'z uyi bor ayollar ichkuyov bo'lib kirgan va o'zidan oz pul topadiganlarga qanday muomala qiladi, tasavvur qilavering.

\*\*\*

**O**ddiy odamlar hukmdorlardan sog'lomroq fikrlaydi, to'g'riroq qaror qiladi.

Bir qassob, aravakash yoki o'qituvchi hech qachon Putin yoki Tramp qilgan xatolarni qilmasdi.

Oddiy inson sog'lom fitrati bilan urush nihoyatda yomon narsa ekanini anglaydi, iloji boricha urushdan tiyiladi.

Dunyo tarixidagi 90 foiz urushlar mutlaqo keraksiz, ahmoqona bo'lgan.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari ham ahmoqona sabablar bilan boshlanib, millionlab odamlar yostig'ini quritgan. Bir hovuch elita o'zlari urush boshlab, mutlaqo daxli bo'lmagan millionlab odamlarni qurbon qilgan, shu yo'lda safarbar etgan.

Urushni ulug'lashga, shonli, sharafli qilib ko'rsatishiga ishonmang, urush o'ta xunuk va qabih ishlarni normallashtiradi. Urush jarayonida harom halolga aylanadi, oddiy hayotdagi mezonlar butunlay buziladi. Urushdagi qotilliklar uchun hech kim javob bermaydi.

Shuning uchun adekvat odam hech qachon urush taraf bo'lmaydi.

Faqat mudofaa urushinigina oqlash mumkin, chunki bunda o'zingizni himoya qilishdan boshqa chorangiz yo'q. Bir tentak bostirib kelsa, har qanday vosita orqali o'zingizni mudofaa qilishga haqlisiz.

\*\*\*

**T**anlov ko'pligi ham o'ziga yarasha qiyin, qarorsizlikdan qiynalasiz. Butunlay chorasizlik ham qiyin, majbur yashaysiz.

Sovet davrida qanchalik og'ir bo'lsa ham odamlar yashayvergan, chunki boshqa chorasi bo'lmagan, chegaralar qattiq qo'riqlangan.

Hozir hammada tanlov borligi uchun doimiy boshqa tomonni orzu qilish va intilish bilan o'zini qiynaydi.

Vatandagilar xorijda yaxshiroq yasharmidim deb orziqsa, xorijdagilar vatandagi hayotni romantikalashtiradi.

Aslida, maysazor har doim boshqa tomonda aslidagidan yashilroq ko'rinadi.

Hozirgi holatingizning faqat ijobiy tomonlarini saqlagan holda narigi tomondagi faqat ijobiy narsalarga erisholmaysiz. Hozirgisidan muhim jihatlarni yo'qotish evaziga narigi tomondan nimagadir erishasiz. Gap ana shu yo'qotish va erishish arziydimi, degan savolga javob topishda. Buning javobini hatto o'layotganingizda ham bilolmasligingiz mumkin, Qiyomatda hammasi taroziga tortilganda, aniq bo'ladi.

**Bolalarim g'irt  
o'zbekcha  
so'zlarni  
tushunmaydi**





\*\*\*

**S**afar qilishning ruhiy, ma'naviy foydalari ko'p, tafakkur qilgan odam foydalarini sezadi.

Tog'da birdaniga qalin qor yog'ib qoldi. Ulovlarimiz band edi, she-rikklarimiz Jenevaga ketgan edi. Bir kun oldin olingan chang'i asboblari- ni topshirishimiz kerak, 10 gacha topshirmasak yangi kun uchun ham to'lardik. Uch kishi narsalarni ko'tarib teparoqdagi avtobus beka- tiga chiqdik, qor gupillab yog'moqda, qor tozalaydigan mashina tozalab ulgurmayapti, yo'lda ba'zi mashi- nalar tiqilib qoldi. Darrov politsiya kelib, yo'lni boshqarishga tushdi.

Yarim soatcha kutdik, birorta ham taksi o'tmadi, avtobus keldi, narsalarni borib topshirdik. Biz tur- gan joy 2 kilometr pastda xolos, piyoda tushsak bo'ladi bemalol, qor yog'mayotgan paytda piyoda ham tushgandim bir marta. Bekatda kutib tur- sak, "Volksvagen Van"da 3 nafar qora tanli yigit to'xtadi-da, yuringlar olib ketamiz, dedi. Biz endi chiqamiz deb turgandik, 60 yoshlardagi bir fransuz kampir qora iti bilan kelib, yigitlar bilan gaplashdi, keyin u ham mashinaga chiqdi.

Yigitlardan biri SSSR tamg'asi taqilgan telpak kiyib olgan, ikkovi yuzini chang'i uchganda kiyila- digan oq balaklava bilan to'sib, qalpoq kiyib olgandi. Shofyor yigit juda do'stona muomala qildi, pul to'lay- mizmi desak, yo'q bepul dedi. Shu ikki kilometrlik yo'lda mashinalar darrov tiqilib qoldi, qor tozalay- digan mashina o'tolmadi, politsiya tartibga solardi.

Biz turgan shale yaqiniga yetganda tushib qoldik. Shu qisqa masofada bir-birimiz haqida so'radik, ular Parijdan ekan, ikkisinin kelib chi- qishi Kongodan, biri Marokashdan ekan.

Mutlaqo begona, hayotda boshqa uchratmaydigan odamlariga qilgan arziyas yordami va odamiyligi bilan ko'nglimizda qoldi. Yaxshi odamlar hamma joyda bor, yurgan daryo o'tirgan bo'yra ekan-da.

\*\*\*

**C**het elda o'sayotgan o'zbek bolalar o'zbek- chani mutlaqo bilmaydi yoki juda ibtidoiy darajada biladi. O'zbekistondagi 4 yashar bola o'zbekchani chet elda o'sgan 18 yoshli o'zbekdan yaxshiroq biladi.

Ammo g'irt o'zbekcha iboralarni, masalan joy va o'rnashishga oid ravishlarni hatto O'zbekistonda o'sganlar haliyam bilmamikan deb qolaman.

Siz bilasizmi?

Uzunasiga, eniga, enlam, qarshisida, ro'parasida, to'g'risida, to'rida, yonboshiga, ko'ndalang, kesib o'tish, yoqalab ketish, tikkalay...

Shunday so'zlarni bolalarim umuman tushun- maydi. Bularni ko'rsatib yoki chizib tushuntirmasa, so'zda tushuntirish qiyin.

\*\*\*

**F**eysbukda izohlarni o'qish postlarni o'qishdan qiziqarliroq va foydaliroq bo'lishi mumkin ba'zan.

Amerikalik ayol besh yil oldin ajrashgani, ammo haligacha sobiq eridan yaxshiroq nomzod chiqma- gani haqida yozgan ekan. Izohda bir ayol yozgan fikr diqqatimni tortdi, haqiqatan dono fikr:

- Hozirgidan yaxshirog'i chiqishini ko'zlab ajra- shish noto'g'ri. Qachonki, hozirgi jufting bilan ya- shashdan ko'ra yolg'izlik jozibador ko'rinsa, ana shunda ajrashesang bo'ladi. Mabodo, yana ko'nglingga o'tiradigani uchrab qolsa bonus, ammo hozirgidan yaxshirog'i uchrashini kutib ajrashesang, hafsalang pir bo'ladi.

**Poxol solingan  
kulbada yashash  
muhtasham qasrdan  
afzalroq**

\*\*\*

**M**uhtasham imoratlarni ko'rganda, go'zal joylarga borganda xayolimdan shunday fikrlar o'tadi. Shu joyda ishlashimga ehtiyoj bo'lmasa, hamma ta'minotim qilib berilsa, bitta shart bilanki, faqat o'zim yolg'iz yashayman, shunga rozi bo'larmidim? O'ylab ham o'tirmay, ikkilanmay, mutlaqo yo'q, rozi bo'lmasdim. Men uchun suyuqli yor bilan poxol solingan kulbada yashash muhtasham qasrda yolg'iz yashashdan afzalroq. Juda suyuqli bo'lishi ham shartmas, o'rtacha suyuqli bo'lsa yetadi.

Ikki kishilik qulay yotoqxonada bir kishi yotishini uvol hisoblayman, shunday shirin lahzalar yetim bo'ldi, muhabbat mahrum qoldi, deyman.

Xullas, oilasiz, do'stlarsiz yolg'izlikdagi hayot rangsiz va ta'msiz bo'lib qoladi.

\*\*\*

**G**lobalizm natijasida hamma raqobat qiladi. Hozirda aksariyat o'zbekistonlik erkaklar atigi 5mln atrofida pul topsayam katta gap. Bu esa har kuni telefonini soatlab kuzatadigan ayolga yetmaydi. Xotini Instagram, Facebook, TikTok, YouTube da hashamatli hayotni ko'rayapti. O'zbekistonda oddiy hayot DUBAY, AMERIKAdagi kabi emas. Bu esa oilaga jiddiy ta'sir qiladi. Erkak har qancha harakat qilmasin, qancha topmasin, endi u butun dunyo boylari bilan raqobatlashishi kerak. Buning esa imkoni yo'q. Fikrimcha, bunday tizim ataylab tashkil qilinayapti. Globalizm ayollarni osongina o'z izmiga soldi. Feminizm, ayollar teng huquqli deb. Endi erkak nafaqat oila, ro'zg'or, bolalari, sog'ligini, ayolini, ota-onasini ta'minlashi, balki uy olishi, mashina olishi, soliq, jarima, o'zlikni yemiruvchi TIZIMgayam qarshi turishi kerak. Bu dahshat degani. Bunaqa kuch faqat yaratganga xos, bandasining qo'lidan faqat sabr va shukr qilish keladi.

Ayollar va qizlar sal o'ylab ko'rishi kerak, bitta mahallada atigi 2 yoki 3 boy bor. Kimga sovchi yuborsang, qizlarning talabi shunchalar ko'pki, o'zidan prezident qizini yasab olgan. Yigitning, albatta, mashinasi, o'z uyi, diplomi, biznesi, bo'lishi kerak. Bu faqat boylarda bor. Qolgani oddiy oila farzandlari. Xo'sh nima qilish kerak? Tanlov ayollarda qolayapti.



## Tanlov ayollarda qolayapti

\*\*\*

**B**a'zi inglizlarning hayotini ko'rganda, ancha-muncha o'zbek bulardan yaxshiroq yashashini o'ylayman.

40 yoshlardagi bir ingliz erkak aytmoqda:

– 3 o'g'lim bor, 19, 10, 6 yoshda. O'zim qarayman, onasi tashlab ketgan. Tungi smenada omborda ishlayman, kechasi 8-10 orasida tozalash ishim bor, undan chiqib tungi ishimga ketaman, kechasi 9 dan ertalabki 7 gacha ishlayman. Darrov uyga kelib, bolalarni maktabga jo'nataman, keyin soat 10 larda uxlamoqchi bo'laman – uyqum kelmaydi, kechki 6 larda rosa uyqu tortadi, achchiq qahva ichib olaman, shu bilan tuni bilan yuraman.

60 yoshli ingliz erkak aytmoqda:

– Hech qachon uylanmaganman, bola ko'rmanman, 87 yoshli kasal onam bilan yashayman, ovqatni, uy tozalashni ham o'zim qilaman. Ertalab 4 da uyg'onib ishga chiqib ketaman, ishimga ikki soatlik yo'l, uyga kechasi 6 larda qaytaman, 9-10 largacha uy ishlarini qilaman, onamga qarayman. Shu, to'lovlar uchun ishlayman, hech narsa ortitrolmayman, menimcha ishda o'lib ketsam kerak, nafaqaga chiqishimga ko'zim yetmaydi.

\*\*\*

**M**oddiy ne'matlar mavjudligi bo'yicha dunyo davlatlari orasida farq kamayib ketdi. Masalan, O'zbekiston bozorlarida Yevropa bozori-dagidan ham xilma-xil tovarlar bor, tovarlar va xizmatlar bo'yicha Toshkent Yevropadan o'tsa o'tadiki, qolishmaydi. Bundan 20 yil oldin Yevropa bilan O'zbekiston o'rtasidagi farq juda katta edi, ammo hozir farq deyarli qolmadi. Toshkentga borib-kelib yurganlar ba'zi sohalarida Yevropadan ancha o'tib ketganini aytadi.

Yevropada toza havo bilan yashilik qoldi xolos, qolgan narsalar hamma joyda bor. Qayerdaki, qariyalar ko'payib yoshlar kamayib ketsa, o'sha yerda turg'unlik bo'larkan, Yevropani sklerotik deb ta'riflashadi o'zlari.

XIX asrda Usmonli Xalifaligini "Yevropaning kasal odami" deyishardi, hozir esa butun G'arb dunyoning kasal odamiga aylanib qolganiga o'xshaydi.

## G'arb dunyoning kasal odamiga aylanib qolgan

\*\*\*

**E**tibor bersam ikki bo'g'inidan ko'p bo'lgan ismlarni odamlar aytishga qiynalib, buzib aytarkan. Inglizlarda bir bo'g'inli ismlar ham ko'p masalan Pol, Tom, Jon.

Bizda hozir 5-6 bo'g'inli ismlar ko'payib ketdi, aytishga juda noqulay. Masalan, ismimda 3 ta bo'g'in bor, bolaligimdan menga yoqmagani, qo'shnilarimiz Po'yzdin derdi, ba'zilar Po'yz, Payiz derdi. Keyin katta bo'lib arabchani o'rganganimda ismimda da'vogarlik, balandparvozlilik borligini tushunganman, dinning paloni degan balandparvoz ma'no yoqmaydi.

Shuning uchun oddiyroq, aytishga oson, ammo ayni paytda yaxshi ma'noli ismlar qo'yishni tavsiya qilaman.

Sahobiylarning ismiga qarasangiz oddiy ismlar, masalan yashasin, ko'paysin, qolsin kabi. Bizda ham asl turkiy ismlar shunday bo'lgan, negadir ulardan voz kechib, o'ta jimjimador, balandparvoz, talaffuzga noqulay ismlarga o'tib ketdik.

Arablar ikki qavatli ismlarni yoqtirmaydi, iyyi degandek xijolat bo'ladi, voy-bayooov namuncha deydi. Negadir ajam musulmonlarda, Bangladesh, Pokiston, O'zbekiston kabi davlatlarda uzundan uzun noqulay ismlar qo'yish moda, ilmsizlikdan, jaholatdan bo'lsa kerak vallohu a'lam.



\*\*\*

**I**ngliz jamiyatida ham andisha kuchli ekan. Nihoyatda yomon sasiydigan odamlar bo'ladi, shularga hechkim yuvinib ol deymaydi. Hatto, hamkasblari ham indamay chidab yurarkan. Qaytanga o'zbeklar ancha dangal, masalan ota-ona voyaga yetgan bemalol aybini aytib tartibga chaqiraveradi, inglizlarda juda diplomatik bo'lishi kerak, salbiy narsani ham ijobiy ohangda aytishi kerak. Ayniqsa xotinlari bergan "ko'rinishim qanday?" degan savolga erlari hech qachon rost javob bermaydi, go'zalsan, azizam, deb qutuladi. Haqiqatni aytib, uni to'g'rilash o'rniga bu munosabatdan voz kechib qo'ya qolish osonroq.

Ishsizlikdan davlat yordami oladigan va har hafta mehnat idorasiga borib qo'l qo'yadiganlar ichida umuman o'ziga qaramaydigan, haftalab dush qilmaydiganlar bor, idora xodimlari ahmoq bo'lib qanday ishga topshirishni o'rgatadi, ammo birortasi yurak yutib avvalo dush qil, sasima deb aytolmaydi. Hayronman, nega hamma shunday andishachi bo'lib qolgan.

Yaqinlari o'zini xarob qilayotganini ko'rib turib ham unga nasihat qilishdan tortinadi, qilishingiz zarur bo'lgan ishni aytayotganda ham "you may want to do it" – "balki qilishni xohlarsan", deb gapiradi. Hatto ichkilikdan jigari irib ketayotgan bemorlarga ham doktorlar, ichma, o'lasan, demaydi. "You may want to cut down on your drink" – "balki ichishni kamaytirishni istarsan", deydi. Juda g'alati odamlar.

## Bo'ydoq va ishsiz erkaklar jamiyat uchun katta xavf

\*\*\*

**H**ozir G'arbdagi dating (erkak-ayolning vaqtincha yoki doimiy munosabat uchun harakati) vaziyatiga doir postlarni va izohlarni kuza-tib shuni tushunyapmanki, uzoq davom etadigan mustahkam va chuqur munosabat qurish uchun ikki tomonda ham qanoat va o'zini butunlay tikish lozim bo'larkan. Chunki doim boshqa variantlar bo'lishi chuqur munosabat qurishga to'sqinlik qiladi.

Ayniqsa, jozibador erkaklar va ayollarda variantlar ko'p, hozirgidan yaxshirog'i chiqib qolar degan xayol xotirjam bo'lishdan va qoniqishdan to'sadi. Shuning uchun oila qurishda boshidan tavakkul qilib chuqur suvga shartta kalla tashlash va undan keyingi sinovlarga sabr qilib boriga qanoat qilib yashash eng to'g'ri variant ekan, bundan boshqasi umrni isrof qilgani qoladi, xolos.

Insonlarning ruhiy-hissiy barqarorligi uchun samoviy dinlar hamda insonlar to'qigan dinlarning hammasi ittifoq qilgan oila instituti eng to'g'ri yechim ekanini chuqurroq anglayapman. Bu oson yoki qulay yechim emas, ammo eng to'g'ri yechim. To'g'ri va sog'lom ishlar nafsga yoqmaydi.





\*\*\*

**G**'arbda va rivojlangan davlatlarda yigitlar qizlardan orqada qolib ketayotgan ekan, shu haqida tahlil qilinibdi. Haqiqatan, zamonaviy iqtisodda ayollarga mos ishlar ko'proq ekan. Hatto, Saudiya misolida ham aytolaman, qizlar o'g'il bolalardan yaxshiroq o'qiydi va ayniqsa hozir erkaklardan ko'ra ayollarning ishga kirishi osonroq, erkaklarning ham ish joyini olib qo'yimoqda, shuning uchun jamiyatda erkaklar o'z o'rnini yo'qotib, keraksizdek bo'lib qolmoqda.

Global miqyosda erkaklar o'zini keraksizdek his qilib, o'zini barbod qiluvchi odatlarga berilishi oshmoqda ekan.

Erkaklar uchun eng zararli odatlar: ichish, chekish, narkotika, qimor va pornografiya. Keyingi paytda fashistik g'oyalarga berilish ham ancha ko'paygan. Xullas bo'ydoq, ishsiz, maqsadsiz erkaklar jamiyat uchun katta xavf ekan.

\*\*\*

**E**rtalab 7:30 da ikkita ingliz bolani qo'shni tumandan olib boshqa tuman-dagi maktabga olib boraman, maktabdan keyin 15:00 da yana borib olib, uyiga tashlab qo'yaman. Ertalab borish-kelishga jami 3 soat vaqt ketadi, kechki payt ham shunday. Yo'l haqini mahalliy hokimiyat to'laydi. Agar shuni oilaning o'zi qilishi yoki pulini to'lashi kerak bo'lganda, juda og'ir kelardi.

Ammo shunda ham ota-onalarning parvoyi falak, nihoyatda beparvo. Bir necha marta bo'ldi, ertalab boraman, kutaman

– chiqmaydi, eshikni taqillatsam, kamera orqali bugun bormaydi, deb yuboradi. Menga baribir, bormasa ham puli to'lanadi, ammo soliq to'lovchilar pulidan ketadi, shunga achinmasligiga hayron qolaman.

Har qanday davlat, xoh demokratik yoki avtoritar bo'lsin, o'z tabiatidan kelib chiqib isrofgar bo'larkan, chunki birovning puliga achinmas ekan. Shu kichkina miqyosdagi isrofn ko'rib hayron qolaman. Ba'zan shahrimizdagi shifoxonadan boshqa shahardagi shifoxonaga 20 gramlik qon namunasini tashlab kelgan paytlarim bo'lgan. Ba'zan jarrohlik qaychisini berib yuboradi.

Misol uchun aytaman, ba'zan Toshkentdan Angrenga borib bemorni Angrendagi shifoxonaga joylashtirish kerak bo'ladi. Naqadar ahmoqona tizimligiga hayron qolaman. Shularning hammasi davlat byudjetidan to'lanadi. Bizga yetib kelgunicha kamida 2 ta tomon o'z hissasini olib qoladi. Davlat pudratchiga beradi, pudratchi yana boshqa pudratchiga va hokazo.

Yana o'sha ikkita bolaga qaytsam. Ularda sotsial autizm bor ekan, nihoyatda odamovi. Jismnan va aqlan sog'lom, bemalol normal gapiroladi, shunchaki gapirishni istamaydi. Olib borayotganimga bir oydan oshgan bo'lsa, biror marta Good morning demagan, men ham bir og'iz gapirmayman, agar bularning o'rnida kuchuk bo'lganda vov, mushuk bo'lganda miyov degan bo'lardi. Hatto, bir-biri bilan ham bir og'iz gaplashmaydi.

Hissiyot yuqumli bo'larkan, menga iliq munosabatni his qilsam iliq munosabat bilan reaksiya ko'rsataman, sovuq muomala qilsa, o'sha odam ko'zimning yonida xirillab jon bersa ham achinmayman. Ovro'poda juda ko'p kimsalarda shunday hissiyot bo'ladi, zarracha achinmayman, ammo O'zbekistondagilarni tanimasam ham, ko'rmagan va hech qachon muomala qilmagan bo'lsam ham achinish va ularning dardini his qilishim kuchli.



\*\*\*

**A**QShning yirik shaharlarida bir vloger ko'chada yurgan turli yoshdagi erkaklarni to'xtatib ular nima ish qilishi, ijaraga qancha to'lashini so'rayapti, o'sha so'raganlari ichidan faqat boylarini ko'rsatyapti, hammasi ijara to'lamayman, o'z joyim bor deyapti. Bu erkaklar 30-40-50-60 yoshlarda, hamma jismonan sog'lom, sport bilan shug'ullanadi, hammasi bo'ydoq.

Uyiga olib kirganda uyi yog' tushsa yalagudek, o'z didiga muvofiq qimmat ta'mirlangan va jihozlagan, hammasida zotdor it bor. Izohlarda ayollar, afsus, shunday kelishgan boy erkak bo'ydoq yasharkan, kvartirasini suydin, deb yozgan.

Yana boshqa vloger ko'chada yurgan, ko'rinishidan dadil, sog'lom, baquvvat erkaklarni to'xtatib, "boyish uchun yagona maslahating nima?" deb so'rasa,

**Oizlarning  
talabi  
noreallashib  
ketdi**

hammasi ayollardan ehtiyot bo'l, hech qachon uylanma, ZAGS qilma", demoqda, ba'zilaridan hayotdagi eng katta moliyaviy xatong nima desa, "uylanish, ZAGSdan o'tish" deb javob berishayapti.

Ma'lumki, G'arbda ayoldan bahra olib yashash uchun unga qonuniy uylanish shartmas. Nikoh, ZAGS erkak uchun hech qanday foyda keltirmaydi. ZAGS hujjati va shartnomasini buzish orqali ayol mukofotlanadi.

G'arbda Marriage, ya'ni o'zbekchadagi qonuniy nikohdan o'tish – bu huquqiy hujjat deb qaraladi, diniy tomoniga iymon keltirmaganlar uchun ortiqcha bosh og'riq xolos, chunki shusiz ham ayol bilan yashash mumkin.

90 foiz ayollar 10 foiz badavlat erkaklarni quvlamoqda ekan. Ayollar nazdida erlikka munosib erkaklar juda kam. Chunki milliarder erkak ofitsiant qizga jon deb uylanishi mumkin, ammo yiliga \$70.000 topuvchi ayol \$60.000 topuvchi erkakka tegmaydi.

O'zbekistonda ham bu trend allaqachon boshlandi. O'rtacha ko'rinishli va o'rtacha daromadli yigitlar qiz topolmayapti. Qizlar esa undan ko'ra, 35-45 orasidagi badavlat erkakka ikkinchi yoki uchinchi bo'lib tegishni afzal ko'rmoqda. Jamiyatda qizlar kamayib ketmadi, balki ularning talabi juda noreallashib ketdi.

Ayollar turmush qurishni istamasa faqat o'zi ziyon ko'rishi mumkin, chunki ular hatto o'zini ta'minlashga ham majbur emas, otasi va akalari ta'minlaydi, nari borsa o'zini eplasa katta gap. Ammo katta bir oilani ta'minlashi lozim bo'lgan erkaklar oila qurishdan voz kechib, o'zi istagan ayoldan o'zi istagan paytda rohatlanib yashashni tanlashi jamiyat uchun ancha zararli bo'ladi.

Mundoq o'ylasam, oila qurish uchun Allohga va Oxiratga mustahkam iymon keltirish lozim ekan. Iymoni zaiflar uchun yoki Oxiratga iymoni sustlar uchun oila qurishdan naf deyarli yo'q. Chunki qariganda qaraydi degan vaj ham ancha sust argument. Oila qurmaganlar umrining gullagan davrini, 60 yoshgacha bo'lgan eng sog'lom yillarini rohatda o'tkazsa, oila qurganlar eng gullagan davrini mashaqqatda o'tkazadi, qariganda esa bolalaridan rohat ko'rishi dargumon.

Bir marta oila qurib ko'rib, keyin oila qurmay yolg'iz o'tayotganlar, bilganingiz bilgan ekan, biz bu yoqda ovora bo'lib sizlarga nikoh qilinglar deb jon kuydirib yotibmiz, siz rohatingizni mashaqqatga almashtirib qo'ymaydigan darajada aqlliroqsiz.





\*\*\*

**O**'zbek jamiyatida ijtimoiy kapital yig'ish va uni ko'paytirish uchun noloyiq insonlarga ham xushomad qilish, qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib, ularga "ustoz" deb murojaat qilish ish beradi. Mabodo, qayerdadir bir lahzaga ko'rishib qolib selfi tushib qo'ygan bo'lsangiz ham bemalol ustozim deyavering, u sizni shogirdim deb e'tirof qilishi shartmas.

Yana noto'g'riligi va nohaqligi aniq bo'lib turgan holatlarda ham hech qanday fikr bildirmang, mabodo agar u mansabliroq, taniqliroq va boyroq shaxs bo'lsa, nohaq bo'lsa ham uning tarafini oling, unga uzr toping.

Qudratli shaxslarni hech qachon tanqid qilmang, mum tishlab oling, agar ularni maqtash qo'lingizdan kelmasa, loqal sukut saqlang, ammo zinhor tanqid qila ko'rmang.

Yana boshqa maslahatlar ham bor, kerak bo'lsa yozamiz.

O'zbek jamiyatida ko'karishingiz va gulab-yashnashingiz uchun odamlarga haqiqatni emas, ular eshitishni yoqtiradigan narsani aytishni o'rganing. Masalan, doktorsiz, oldingizga buyragi quriyotgan kasal keldi, unga bor haqiqatni aytmasdan, men aytganimni qilsangiz tuzalib ketasiz, deb vada berib ishontiring va 20 ta keraksiz dorini yozib bering.

Odamlar bilan gaplashganda, gapingizni ular qanday talqin qilishini oldindan taxmin qiling va shunga muvofiq so'zlang. Ichingizda borini ro'yi rost gapirmang, faktga va realikka zid bo'lsa ham sizga maqbul talqin qilinishi ehtimoli yuqori bo'lgan tarzda so'zlang. Siz uning taxminini taxmin qilasiz, u esa siz uning taxminini qanday taxmin qilganingizni taxmin qilgan holda javob qaytaradi.



Odamlar bilan muomala qilganda hech qachon ha/yo'q deb javob bermang. Aniq ha/yo'q javob talab qiladigan vaziyatda ham gapni aylantiring, uzoqdan olib keling. Masalan, biror joyga borasanmi desa, borish niyatingiz bo'lmasa, yo'q, bormayman, demang, yo'llar tiqin ekan-ku deng, xo'p, bormaysanmi, desa, yo'q, boraman, lekin dadam bir ish buyurgandi, o'shanga o'tishim kerak, deng, demak, borolmay-sanmi, desa, boraman, ishlarim bor, o'shalarni qilib keyin qarayman-da deng, shunda narigi taraf bormasligingizni tushunib oladi. Shu oddiy savolga yo'q deb javob bersangiz, osmon uzilib yerga tushadi, hech qachon aniq javob bermang.

Yana kelishilgan joyga ketayotganingizda yetishingizga bir soat bo'lsa-da va hali uydan chiqmagan bo'lsangiz, ham besh minutda yetaman deng, yolg'on gapirayotganingizni bilasiz, narigi tomon ham biladi, ammo shunday qilmasangiz belingiz sinadi, yolg'on bilan nafas olib yolg'on bilan nafas chiqarishingiz kerak.

\*\*\*

Oldinlari odamlar faqat qo'ni-qo'shnisiga, qarindoshlariga va tanishlariga maqatana olardi xolos. Maqtanishni amalga oshirish vositalari, minbarlari yo'q edi. Endi esa butun dunyoga ko'z-ko'z qilishi, maqtanishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar maqtanish ehtiyojini maksimal darajada qondirish imkonini bermoqda.

Ba'zilar maqtanish orqali lazzat oladi, maqtanish unda serotonin va dofamin gormonlarini chiqaradi. Shuning uchun qayta-qayta, yangidan yangi bahonalar bilan maqtangisi kelaveradi, chunki shuning lazzatiga o'tirib qolgan.

Ma'nan qashshoq, ichi bo'm-bo'sh odamlar maqtanchoq bo'ladi.


Alloh bergan ne'matlarni kamtarlik bilan qabul qilib, uni faqat Unga xoslab, Unga shukr qilib jimgina, xotirjam ne'matdan bahra olish uchun ham qalbdan ixlos sifati bo'lishi lozim. Bo'lmasa, ana shunday maqtanib yuraveradi.

O'zida bori bilan maqtansa bir go'r, ammo o'zida yo'q narsalarni bordek ko'rsatib maqtanish avjiga chiqdi. Yo'q husnni, yo'q baxtni, yo'q boylikni bordek ko'rsatib maqtanadi. Bular naqadar bechora, naqadar fojiali kimsalar ekanini o'zlari bilmaydi.

*(Davomi kelgusi sonda)*

Fayzuddin MO'MIN

# Talim tizimini yoshlarni hayotga tayyorlayaptimi?



**H**ar bir o'zbek yoshining orzusi bor: kimdir muvaffaqiyatli dasturchi bo'lishni xohlaydi, kimdir o'z biznesini yo'lga qo'yimoqchi, yana kimdir xalqaro maydonda O'zbekiston nomini yuksaltirishni orzu qiladi. Ammo bu orzularni ro'yobga chiqarishda ta'lim tizimimiz qanchalik yordam bermoqda? Maktab sinflarida o'rgatilayotgan formulalar, universitetda olingan diplomlar yoshlarni haqiqiy hayotga tayyorlayaptimi? Keling, bu savolga birga javob izlaylik va O'zbekiston ta'lim tizimining yoshlar kelajagidagi o'rnini muhokama qilaylik.



## Bilimning birinchi zinasini yoki yodlash sinovi?

Toshkentning oddiy maktablaridan birida o'qiydigan 16 yoshli Dilshod ismli yigitning hikoyasidan boshlaylik. U har kuni adabiyot, matematika va fizika darslarida formulalar, she'rlar va qonunlarni yodlaydi. Ammo bir kuni u o'zidan so'radi: "Bu bilimlar menga hayotda qanday yordam beradi? Ish topish, oila boqish yoki o'z biznesimni boshlash uchun nima qilishim kerak?" Dilshodning bu savoli ko'plab o'zbek yoshlarining o'ylarini aks ettiradi. O'zbekiston maktablarida o'quv dasturlari hali ham ko'proq nazariy bilimlarga asoslangan. O'quvchilar ko'pincha imtihonlarni "5" baho bilan topshirishga tayyorlanadi, lekin moliyaviy savodxonlik, jamoada ishlash yoki muammolarni ijodiy yechish kabi hayotiy ko'nikmalarni o'rganishga vaqt yetishmaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, IT va robototexnika kabi zamonaviy fanlar maktab dasturlariga kiritildi. Ammo bu o'zgarishlar asosan shahar maktablarida ko'zga tashlanadi. Qishloqlarda esa vaziyat boshqacha: eskirgan darsliklar, yetarli jihozlarning yo'qligi va o'qituvchilarning malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi o'quvchilarning imkoniyatlarini toraytiradi. Masalan, Farg'onadagi bir qishloq maktabida o'qiyotgan 15 yoshli Maftuna deydi: "Bizning maktabda kompyuter sinfi bor, lekin internet yo'q. IT darslarida faqat darslik o'qiydiz." Statistika ko'ra, O'zbekistonning qishloq maktablarida o'quvchilarning 40% dan ortig'i zamonaviy texnologiyalarga to'liq kirish imkoniyatiga ega emas. Bu shahar va qishloq o'quvchilari o'rtasidagi ta'lim sifati farqini oshiradi.

Maktabda kompyuter bor  
internet yo'q



## Diplom poygasi yoki haqiqiy bilim manbai?

Maktabni bitirib, universitetga kirgan yoshlar yangi umidlar bilan o'qishni boshlaydi. Ammo ko'pincha ular xuddi maktabdagi kabi "yodlash tizimi" bilan yuzma-yuz kelishadi. Samarqanddagi universitetda iqtisod yo'nalishida o'qigan Mohira ismli bitiruvchining hikoyasi bunga misol bo'la oladi. "Universitetda bizga ko'p nazariy bilimlar berildi, lekin amaliyot deyarli yo'q edi," deydi u. "Ish topish uchun qo'shimcha kurslarga yozildim, chunki diplomim yetarli emas edi." Mohira yolg'iz emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, universitet bitiruvchilarining 40% dan ortig'i o'z sohasida ish topa olmagan, chunki ularda amaliy ko'nikmalar yetishmaydi.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, masalan, Germaniyada universitet talabalari o'qish davomida kompaniyalarda amaliyot o'taydi va real loyihalarda ishtirok etadi. Bu ularning ish bozoriga tayyor bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekistonda esa universitetlar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik hali yetarlicha rivojlanmagan. Masalan, IT sohasida talab yuqori bo'lsa-da, ko'plab universitetlarning dasturlari eskirgan va zamonaviy dasturlash tillarini o'z ichiga olmaydi.





## Ta'limni hayotga yaqinlashtirish uchun nima qilish kerak?

O'zbekiston ta'lim tizimini yoshlarning zamonaviy talablariga moslashtirish uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud.

Birinchidan, maktablarda hayotiy ko'nikmalarga e'tibor qaratish lozim. Masalan, moliyaviy savodxonlik (byudjetni boshqarish, soliq tushunchalari), tanqidiy fikrlash va loyiha boshqarish kabi fanlar o'quv dasturiga kiritilishi mumkin. Bunday darslar Dilshod kabi o'quvchilarga nafaqat imtihonda "5" olish, balki hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun ham yordam beradi.

Ikkinchidan, universitetlarda amaliyot dasturlari ko'paytirilishi kerak. Masalan, IT kompaniyalari bilan hamkorlikda talabalarga real loyihalarda ishtirok etish imkoni berilsa, ular o'qishni bitirganda ishga tayyor bo'ladi. Xorijiy tajribadan foydalanib, "ish bilan ta'minlash kafolati" dasturlari joriy etilishi mumkin - bunda talabalar o'qish davomida ish beruvchilar bilan tanishadi va tajriba orttiradi.

Uchinchidan, qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun raqamli resurslar kengaytirilishi lozim. "Kundalik" va "Bilimland" kabi onlayn platformalar qishloq maktablarida kengroq joriy etilsa, Maftuna kabi o'quvchilar zamonaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalana oladi. Statistika ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston maktablarining 70% internetga ulangan, ammo sifatli kontent va o'qituvchi tayyorgarligi hali ham muammo sifatida qolmoqda.

"Ish bilan ta'minlash kafolati" bo'lishi kerak

## Orzular sari ta'lim bilan

Ta'lim - bu nafaqat diplom, balki hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor. Dilshod va Mohira kabi yoshlarning orzulari amalga oshishi uchun O'zbekiston ta'lim tizimi nazariy bilimlardan tashqari, amaliy ko'nikmalardan va hayotiy tajribaga e'tibor qaratishi kerak. Agar biz bugun ta'limni hayotga yaqinlashtirsak, ertaga har bir yosh o'zbekistonlik o'z salohiyatini to'liq ro'yogga chiqaradi. Keling, bu yo'lda birgalikda harakat qilaylik - chunki ta'lim orqali kelajakni biz o'zimiz quramiz!



# OLAM



# ICHINGDADIR

**J** Jaloliddin Rumi Sharq falsafasi va ma'naviy tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan yirik donishmandlardan biridir. Uning ijodi, xususan, "Masnaviyi ma'naviy" asari "Fors tilidagi Qur'on" deb e'tirof etiladi hamda tasavvufiy risolalari insonning botiniy dunyosi, ruhiy kamoloti va haqiqatni anglash masalalarini keng yoritadi. Muta-fakkirning "Ichindagi ichindadir" asari ham o'tkir falsafiy ma'no va ijtimoiy ahamiyatga ega. Unda muallif insonning ruhiy mohiyatini ochish va olamni idrok etishga doir muhim fikrlarni bayon etadi.

Rumi inson tabiatiga oid qarashlarida yer yuzidagi mavjudotlarni uch guruhga ajratadi: malaklar, hayvonlar va insonlar. Malaklarning fitratida ibodat, qullik va zikr bo'lib, ibodat ularga muhim bir jarayon emas, butun bir hayot demakdir. Hayvonlar sinfida esa idrok va tafakkurning yetarli darajada mavjud emasligi qayd etiladi. Inson esa aql va shahvatdan tashkil topgan bo'lib, uning yarmi ilonga, yarmi baliqqa

qiyoslanadi. Baliq qismi suvga chaqirsa, ilon qismi sahroga tortadi. Aql va nafs o'rtasida doim kurash davom etadi. Rumi inson ichki dunyosidagi ikki kuch – nur va havo-nafs o'rtasidagi ziddiyatni ramziy tarzda tasvirlarkan, aql ustuvor kelgan holda inson ma'naviy yuksalishga erishishini ta'kidlaydi.

Asarda olam va uning yaratilishi haqida alohida ramziy talqinlar yoritiladi. Rumiyning fikricha, nurning mohiyati zulmatga ko'ra anglanadi va olam inson idroki uchun ilohiy bir qudratning namoyonidir. Alloh olamni yaratarkan, o'z qudrati va go'zalligini ko'rishni istadi. Ammo bu U faqat shular-gagina qodir ekanligini anglatmaydi. Muallif inson bilimi va tasavvuri olamning to'la mohiyatini qamrab ololmasligini turli misollar orqali tushuntiradi.

Asarda zohir (surat) va botin (ma'no) munosabati muhim falsafiy masala sifa-tida e'tiborga olinadi. Rumi inson birinchi navbatda botinga e'tibor bermasligi, ammo vaqt o'tishi bilan ma'noni anglash zaruratiga duch kelishi haqida fikr yuritadi. Masalan, inson suratidan ma'no ketsa, faqat tanasi qoladi. Jasad esa tezda ko'miladi. Shu jihatdan inson qiyofasi emas, uning ma'naviyati va botiniy pokligi asosiy me'zon sifatida ko'rsatiladi.

Rumi dunyodagi barcha jarayonlarni bir maromda va izchil ravishda kechishini tabiat misolida tushuntiradi. Bahorning sekin-asta isishi, daraxtning gullab, keyin meva berishi insonning ruhiy kamoloti bilan qiyoslanadi. Ibodat, tafakkur va ruhan poklanish ham bosqichma-bosqich yuksalib boradigan jarayon bo'lib, tinimsiz davom etaveradi...

## Asl mohiyat zohirda emas, botinda



Rumi insonlar zohiran o'xshash bo'lsalar-da, botinlari farqli ekanini ta'kidlaydi. Aslida, hadislarda aytilganidek, inson faqat ko'rgan-lariga, mavjud va ayon narsalar-ga tayanibgina hukm qiladi.

Alloh esa barcha olamlardan boxabardir. U "na ichda, na tashdadir" degan hikmat orqali Allohning tasavvurlar olamiga ham, boshqa olamlarga ham sig'masligini

bayon etadi. Inson doim o'zi ko'rmagan, eshitmagan va o'ylamagan narsasiga oshiq bo'ladi. Uni istaydi, izlaydi. Aksincha, ko'rgan va tushungan narsasidan zerikadi, uzoqlashadi. "Uyquli ko'z", ya'ni g'aflatdagi kishi ko'rmaydi, ko'rmagach angamaydi. Haqiqatni ko'rish va anglash uchun insonda ruhiy hushyorlik, pok niyat va ma'naviy uyg'oqlik zarurligi aytiladi.

Rumi inson ehtiyojlari, keksalikning mohiyati va shukronalik haqida ham alohida to'xtaladi. Inson doim ehtiyojlari bilan yonma-yon yuradi. Haqiqatan ham ehtiyoj inson hayotida doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Qadam bosishning o'zi ham, aslida yurishga bo'lgan ehtiyoj natijasidir. Rumi asarida "Saksondan keyin o'yin bo'ladimi?" deyishganda, ularga javob tariqasida "Saksondan keyin o'yin bo'ladimi?" deb javob berganini ta'kidaydi. Keksalik insonni bolalik pokligiga yaqinlashtiruvchi ilohiy ne'mat sifatida talqin qilinadi.



Asarda muallif inson amallarini “savol-javob” tarzida izohlab, har bir qilmishning oqibati borligini ta’kidlaydi: sevinch yoki qayg’u. Chiroyli javob uchun shukronalikni his qilib, Allohga hamd aytilsa, yomon javob uchun Unga tavba qilish zarur. Tavbadan keyin bu turdagi savollarni takrorlamaslik kerak. Bunga yana bir misol sifatida olam tog’ga qiyoslanadi. Unga qarata aytilgan yomon yoki yaxshi so’zning aks, albatta odamning o’ziga qaytadi.

Rumiy insonni suv ustidagi kosaga o’xshatarkan, uning hamma harakatlari yuqori irodaga bog’liq ekanini ta’kidlaydi. Ammo ba’zan odamlar hayotida sodir bo’layotgan voqealar Yaratganning irodasi ekanini anglamaydi. Ular o’z rejaları va xayollariga ishonadi. Ammo barcha tadbir-u maqsadlarining birortasi ham amalga oshmasligi mumkin. Biroq bu insonning faol harakatini inkor etmaydi; inson ehtiyojiga ko’ra zarur narsalarni harakat va iltijo orqali talab qilishi kerakligi aytiladi.

Asarda inson tez-tez unutilib qo’yadigan shukronalik haqida ham juda qimmatli fikrlar keltirilgan. Agar banda Alloh sinov berganda sabr qilsa, o’zi uchun saylanadi. Shukr qilganda esa Yaratgan uni yana-da qattiqroq suyadi. Alloh qahr qilganda ham, mehr ko’rsatganda ham shukr qilish xayrlidir. Insondagi ochko’zlik noshukurlikning asosiy sababi sifatida keltiriladi. Negaki, inson doim o’zida boridan ko’prog’ini istaydi. Aslida kutganidan kam kelishi shukr yo’lidagi to’siqligi ta’kidlanadi. Falsafiy jihatdan qarama-qarshiliklar qonuniyati ham talqin qilinib, har qanday

narsa o’zida ichki ziddiyatni, o’zaro kurashni mujassam etishi keng yoritib beriladi: kun va tun, issiq yoki sovuq, hayot yoki o’lim. Nur zulmatda, yaxshilik yomonlikda, to’qlik esa ochlikda anglanadi. Bu qarama-qarshiliklar bir-birini doimiy to’ldiradi va tabiatda muvozanatni shakllantiradi.

Asar Allohni tanishga, olam va undagi mavjudotlar mohiyatini o’rganishga undaydi. Allohdan kelganiga shukr qilmoq, Allohdan muhabbat istamoqdir. Asarning “Ichindagi ichingdadir” deb nomlanishi inson mohiyatining botiniy dunyoda mavjud ekanligi bilan bog’liq. Tan fano bo’ladi, umr tugashi bilan yerga ko’miladi. Uning ichidagi ruh esa baqodir. Asl mohiyat zohirda emas, balki insonning ichki olamida, ma’naviy kechinmalari va ruhiy izlanishlarida anglashiladi. Har insonning ichidagi olami o’zlikni, Allohni va umr haqiqatlarini anglash uchun eng munosib manzildir.

**Shahnoza OCHILDIYEVA**  
**O’zJOKU talabasi**



# BIR UYDAGI IKKI OLAM

**H**ar bir oila tashqaridan oddiy ko'rinadi. Ammo uning ichida ikki xil olam yashaydi – erkak va ayol olami. Bu ikki olam turlicha fikrlaydi, turlicha his qiladi, lekin aynan shu farq ularni bir-biriga bog'laydi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ilk oila Odam Ato va Momo Havo bilan boshlanganini ko'ramiz. Ular nafaqat insoniyatning boshlanishi, balki erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning ilk namunasidir. Ko'p rivoyatlarda ayol erkakning qovurg'asidan yaratilgani aytiladi. Bu bejiz emas. Qovurg'a yurakka yaqin joylashgan – bu ayolning mehr va muhabbat bilan bog'liqligini anglatadi. U na boshdan yaratilgan – buyruq berish uchun, na oyoqdan – bosilish uchun. Balki yonidan – teng bo'lish uchun.

Ayolning kuchi uning shovqinida emas, balki sukutida. Aqlli ayol muammoni tushunadi, erining xato ish qilganini ko'rsa, jahl qilib, tez orada uni to'g'irlashga, o'zini aqlli ekanligini bildirishga oshiqadi. Dono ayol esa eri qilgan xato ishidan xulosa chiqarishiga yordam beradi va kutadi. Shunda erkak keyingi safar bunday xato qilishga uyaladi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Ba'zida ayolning "zaif" ko'ringan tomoni aslida uning eng katta qudratidir – sabr, mehr va kechirim.

Har bir oilada erkak va ayolning o'ziga xos o'rni bor. Bu o'rinlar tasodifiy emas, balki insonning tabiati bilan bog'liq. Erkak va ayol bir-biridan farq qiladi, lekin aynan shu farqlar ularning kentiklarini to'ldiradi. Shuning uchun ularning tabiiy rollarini tushunish oiladagi muvozanat va baxt uchun juda muhimdir.

Erkakning tabiiy rollari:

Erkakning jamiyat va oiladagi o'rni uning tabiiy vazifalari bilan chambarchas bog'liq. An'anaviy qarashlarga ko'ra, erkakning asosiy rollari – boquvchi, boshqaruvchi va himoyachi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu rollar oilaning barqarorligi, tartibi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, erkakning boquvchilik roli uning oila uchun moddiy ta'minotni yaratish majburiyatini anglatadi. Agar ushbu vazifa to'liq ravishda ayol zimmasiga yuklansa, ayrim hollarda erkakda mas'uliyat hissining susayishi kuzatilishi mumkin. Natijada, u o'z ijtimoiy va oilaviy vazifalariga nisbatan befarq bo'lib qolish ehtimoli ortadi.





Boshqaruvchilik roli esa oilada muhim qarorlarni qabul qilish, yo'nalish berish va umumiy tartibni saqlash bilan bog'liqdir. Agar bu vazifa erkak tomonidan yetarli darajada amalga oshirilmasa, oilada boshqaruv muvozanati buzilishi mumkin. Bunday holatda ayolning yetakchilikni o'z zimmasiga olishi tabiiy bo'lsa-da, qarorlar ko'pincha hissiyotlarga asoslanishi ehtimoli ortadi. Bu esa ba'zi vaziyatlarda muvozanatli va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Erkakning yana bir muhim roli - himoyachilikdir. Bu nafaqat jismoniy himoyani, balki oilani turli tashqi va ichki tahdidlardan asrash, xavfsizlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, erkakning tabiiy rollari buzilgan taqdirda, oilada erkaklik va ayollik vazifalari o'rtasidagi muvozanat izdan chiqishi mumkin. Shu bois har bir rolning o'z o'rnida va mas'uliyat bilan bajarilishi oilaning mustahkamligi va farovonligi uchun muhimdir.

Ayolning tabiiy rollari:

Ayolning oila va jamiyatdagi o'rni uning tabiiy xususiyatlari - mehribonlik, sabr-toqat, noziklik va g'amxo'rlik bilan belgilanadi. An'anaviy qarashlarga ko'ra, ayolning asosiy rollari - tarbiyachi, qo'llab-quvvatlovchi va oilaviy muhitni shakllantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu rollar oilaning ichki barqarorligi va ruhiy muvozanatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Avvalo, ayolning eng muhim vazifalaridan biri - farzand tarbiyasi. U nafaqat bolaga mehr beradi, balki uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayolning sabr-toqati va mehr-muhabbati orqali oilada iliq muhit yuzaga keladi. Shuningdek, ayol oilaning ruhiy tayanchi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. U yaqinlariga dalda beradi, ularni tushunadi va oiladagi hissiy muvozanatni saqlaydi. Ayol tabiatida mavjud bo'lgan noziklik va ba'zan o'zlik sifatleri esa ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Aslida, bu o'zlik kuchsizlik emas, balki ayolning tabiiy yumshoqligi, himoyaga ehtiyoji va mehr orqali ta'sir o'tkazish qobiliyatidir. Aynan shu jihatlar ayolni oilada mehr manbai va ruhiy uyg'unlikni ta'minlovchi shaxsga aylantiradi.

Biroq, zamonaviy jamiyatda ayol ham turli mas'uliyatlarni o'z zimmasiga olmoqda. Shunga qaramay, uning asosiy tabiiy vazifalari - oilani birlashtirish, mehr ulashish va tarbiya berish kabi jihatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Shunga qarab ayta olamanki ayol kishi "biznes lady" bo'lishidan oldin, oilasidagi jajji, bo'lajak businessmenlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi darkor.

Har qanday oilada tinchlik doim barqaror bo'lavermaydi. Ba'zida tushunmovchiliklar va kelishmovchiliklar, hatto janjallar ham yuzaga keladi. Bunday holatlar oilaning ichki muvozanati va bir-birini tushunish qobiliyatining muhimligini ochib beradi. Oilaning baxtli va tinch bo'lishi ham erkakka, ham ayolga bog'liq. Men bir sirni sizga ulashaman. Agar erkak o'z ayoli bilan sevgisini va munosabatlarni to'ydan oldingidek saqlab qola olsa, ayol aqlilik qilmay, donolik bilan yo'l tutadi, shunda oila tinch va turli xil kelishmovchiliklarsiz bo'ladi. Baxtli oila manzil emas, siz uni o'zingiz yaratasiz, bu oila a'zolarining birgalikda, birdamlikda, qo'llab-quvvatlab, bir-birini tushunib, dalda berib borishi bilan ro'yobga chiqadi. Oilasiga baxtni kiritish har bir odamning o'ziga bog'liq.



**Ollombergan XUDOYBERGANOV**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Chimboy fakulteti talabasi

# ORZULARNI



# HAQIQATGA AYLANTIRING

**J** Har bir insonning hayotida unutilmas, ayni paytda mas'uliyatli davrlar bo'ladi. Talabalik ana shunday betakror davrdir. Bu nafaqat bilim olish yillari, balki inson o'zini izlash, shakllantirish va kelajakka yo'l ochish bosqichidir.

Talabalik hayotiy trampoline, ya'ni inson o'z orzu va intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatga ega bo'ladigan palla. Dastlab, universitet eshiklaridan ilk bor qadam qo'ygan yosh yigit-qizning qalbini hayajon va ishonch egallaydi. Ular oldida yangi ufqlar ochiladi, yangi do'stlar, yangi bilimlar, yangi tajribalar kutib turadi. Ammo talabalik faqatgina darslarga qatnashish yoki imtihonlardan o'tish emas, balki kelajak poydevorini barpo etishning muhim bosqichidir. Bu yerda o'z kasbiga muhabbat

uyg'otish, intizomli bo'lish, fikrlashni rivojlantirish va hayotiy qarorlarni qabul qilish san'ati shakllanadi.

Talabalik yillarida inson o'z ustida ishlashi, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni o'rganishi, ilmiy izlanishlar olib borishi lozim. Bugungi dunyo tezkor rivojlanmoqda va bu o'zgarishlarga moslashish har bir yosh uchun muhimdir. Shuning uchun ham talaba ilm olish bilan birga, ijodkor va tashabbuskor bo'lishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi kerak. Aynan mana shu fazilatlar uning kelajakdagi muvaffaqiyat kalitiga aylanadi.

Shuni unutmaslik lozimki, universitet – faqat bilim maskani emas, balki inson o'zining kimligini anglash, intilishlarini shakllantirish, jamoatchilik bilan ishlashni o'rganish maydonidir. Bugungi muvaffaqiyatli insonlarning aksariyati aynan talabalik davrida o'zining kelajak yo'nalishini belgilab olgan. Ular o'z sohasini mukammal o'rganish barobarida, yangi loyihalar ustida ishlagan, tajribali ustozlardan maslahat olgan va zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan bilim va ko'nikmalarni egallagan.

# YUTUQLARGA ERISHISHDA MUHIM OMILLAR:

Buyuk ishlari bilan dunyoni lol qoldirgan mashhur insonlar muvaffaqiyat sari yo'l faqat darslarda o'qish bilangina cheklanmasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, haqiqiy yutuqlarga erishish uchun inson quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

## Aniq maqsad qo'yish

Har bir muvaffaqiyat yo'li aniq maqsad bilan boshlanadi. Talaba o'z oldiga qanday natijalarga erishishni aniq belgilashi lozim. Maqsadni qisqa va uzoq muddatli rejalarga ajratib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish samarali natija beradi.

## Vaqtdan samarali foydalanish

Talabalik – cheksiz imkoniyatlar vaqti, ammo vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik esa muvaffaqiyatga to'siq bo'lishi mumkin. Har kuni reja asosida harakat qilish, vaqtni samarali boshqarish va dangasalikka berilmaslik muvaffaqiyatning muhim kalitidir.

## Innovatsion tafakkurni rivojlantirish

Bugungi dunyo yangilik va texnologiyalar bilan tez rivojlanmoqda. Shu sababli, talaba zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va ijodiy yondashuvga ega bo'lishi kerak. Yangi g'oyalarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash orqali o'z sohasida yetakchilikka erishishi mumkin.

## Ustozlar va tajribali mutaxassislar maslahatidan foydalanish

Hayotda yo'l topish uchun tajribali insonlarning maslahatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ustozlar, professorlar va sohaga oid yetuk mutaxassislarning tajribalaridan o'rganish, ularga savollar berish va yo'nalish olish muvaffaqiyat sari muhim qadamdir.

## Kitob mutolaasi va tahliliy fikrlash

Kitob – bilim manbai. Yuksak marralarni zabt etish uchun nafaqat darsliklarni, balki ilmiy va badiiy kitoblarni ham o'qish lozim. Tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muvaffaqiyatga erishishda muhim omillardan biridir.

## Tashabbuskorlik va faollik

Faol talabalar har doim muvaffaqiyatga yaqinroq bo'ladilar. Universitetda turli ilmiy, madaniy va sport tadbirlarida qatnashish, talabalar uyushmalarida faol bo'lish ko'nikmalarni oshirishga, yangi imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qiladi.

Talabalik – shunchaki vaqt o'tkazish yoki diplom olish davri emas, balki kelajak sari mustahkam tramplin, hayotiy tajriba orttirish, bilimlarni mukammallashtirish va katta maqsadlarga erishish yo'lidir. Bu yillarni behuda sarflash o'rniga, ularni samarali foydalanish, maqsad sari intilish va orzularni haqiqatga aylantirish lozim. Har bir talaba o'z oldiga maqsad qo'yib, tinimsiz harakat qilsa, muvaffaqiyatga erishi aniq. Chunki bugungi talabalar ertangi jamiyat yetakchilari, innovatorlar, olimlar va muvaffaqiyatli insonlardir!

**Shirin ABDUMUTOLOVA**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

# CHO'G' BOSGAN RAQQOS QISMIATI

(NOYOB SHOIRA NARGIZA ODINAYEVANING “GUNG QO'SHIG'I” SHE'RI XUSUSIDA)



## GUNG QO'SHIG'I

O'n besh kun to'lgan oyning dardlarini tilayman,  
Oqqanot turnalarni yuragimga belayman.  
Cho'g' bosgan raqqosiga qismat tutgan koinot,  
Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman.

Ufqqa og'gan kuylar ostonamda bo'y yetgan,  
Javdiraydi yuragim, har tun azob to'y etgan,  
Yo'l terolmay ko'nglimning sarhadiga o't ketgan,  
Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman.

Shamolday chopib ko'rdim, bir nuqtada qotib ham,  
Toshlardan qutilmaysan, - ming osmonga otib ham.  
Ko'zlarim kulib turgay olovlarga botib ham,  
Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman.

Yil dumalab yillarning borar shomi qorayib,  
Yorilgan peshonamni shabnamlarga qo'y chayib.  
Bobosi gung attorning savdosida ne ayb,  
Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman.

Yomg'ir sog'inch isimi, shoir g'amga erkami,  
Dunyo og'ib ketardi bo'lmaganda bir kami.  
Hayqiraman cho'g' bosib: “Azob - ruhning bayrami!”  
Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman.

\*\*\*

### “O‘n besh kun to‘lgan oyning dardlarini tilayman,”

Shoiramiz bizga dard tilayaptimi? Nega? Negaki, dardsizlik dardini faqat dard davolaydi. Iztirob chig‘iridan o‘tmaguncha ruhiy huzurning qadri nechog‘li aziz ekanligi to‘laqonli anglab yetilmas. Sog‘liq yo baxt emas, aynan Dard tilab, she‘rning birinchi qatorigayoq tug‘yonkor “mina” qo‘yildi. Eng so‘nggi badda mazkur “mina” bosib portlatiladi. Bu qanday “mina”, deysizmi!? Shoshmang, maqola so‘nggida birinchi kuflet bilan oxirgi kufletni solishtirib, yana bir qayta o‘qiysiz. Nega bu she‘r har o‘qiganda odamga bunchalik emotsional qoniqish va tasalli bag‘ishlaydi, shunda bilasiz, balki.

### “Oqqanot turnalarni yuragimga belayman”

Turnalar arg‘imchoq, ya‘ni uchburchak shaklida uchadi. Bir zamonlar onalarimiz dalalarda zahmat yutishganida chaqaloqlarini arg‘imchoqqa solib, tutlarga ilib uxlatishgan. Bu bandning chuqur ildizida ham chinqirib uyg‘ongan, “oqqanot”lari yo‘rgakka bog‘langan iztirob yotibdi, aslida. Oqqanot turnalar qon rangiga kirgan, boisi u shoiraning yurak beshigiga belangan va unga bulangan...

### “Cho‘g‘ bosgan raqqosiga qismat tutgan koinot”.

Tasavvurni yoqing: oyog‘ingiz ostiga cho‘g‘ sochilgan. Istaysizmi, yo‘qmi oyog‘i kuygan tovuqdek tipirlaysiz, (“xavfdan qochish instinkti” ishga tushadi) bu holat o‘yinga tushayotgan raqqosni eslatadi. Yosh bola nimanidir qattiq xohlasa, erishish uchun oyog‘ini yerga urib yig‘laydi. Odam zoti yoshi ulg‘aysa-da, bu qilig‘i yo‘qolmaydi, faqat so‘rash uslubi o‘zgaradi, xolos. Neningdir dardida tipirchilab yashab o‘tish – barchaning peshonasiga yozilgan qismat. Cho‘g‘ olovning boshi, yorug‘likning ilk to‘lg‘og‘i. Ramziy istilohga ko‘ra: “Cho‘g‘” bu O‘zni anglash debochasidir.



### “Childirmangni chalaver, men boshqacha o‘ynayman’.

Bu yolg‘onchi dunyo barchani o‘z nog‘arasiga o‘ynatadi. Lekin Nargiza barcha qatori emas, u parifitrat shoira! Parilar qavmi boshqacha o‘ynaydi, buni bir-biriga kuydek jaranglab ulangan navbatdagi satrlarda ko‘ramiz:

### “Ufqqa og‘gan kuylar ostonamda bo‘y yetgan”.

Ufq, bu – intiho tasviri. Ostona esa – ibtido. Qon rangidagi Intiho kuyi “MEN”dan boshlangan. Iztirobning manbai tashqi omillar emas, faqat O‘zimman...

### “Javdiraydi yuragim, har tun azob to‘y etgan”.

“Azob – to‘y”. Azob – xursandchilik bo‘lishi mumkinmi? Javobni Nargizaning boshqa bir she‘ridan topamiz: “Qancha og‘riqdan so‘ng gullaydi bahor”. Birinchidan, har qanday yutilgan ozor bandaning xatolariga kafforat. Ikkinchidan, bug‘doy yanchilib, xamir qilinganda ezg‘ilanib, olovda toblangach aziz nonga aylanganidek, Inson ham mashaqqat va iztirob sababli yuksak darajaga erishadi. Tarixda ham bunga misollar son mingta.

### “Yo‘l terolmay ko‘nglimning sarhadiga o‘t ketgan”.

Yo‘l notekis va o‘nqir-cho‘nqir bo‘lsa, ulov mingan odamga qarata “Yo‘lni terib yuring”, deyiladi. Ya‘ni, “yo‘lda qoqilib ketmang” degan yo‘sinda keladi bu chiroyli ibora. Nargiza: “ko‘nglimga borar yo‘l shu qadar o‘nqir-cho‘nqirki, hatto chegarasigacha olov ketgan, demoqda. Ha, ko‘ngilga kirishdan Alp cho‘qqisiga chiqish osonroq. Lekin baribir, hoy Dunyo:



**“Childirmangni chalaver, men boshqacha o‘ynayman”.**

**“Shamolday chopib ko‘rdim, bir nuqtada qotib ham”.**

Bir nuqtadan jilmay, bir lahzada Yer sayorasini yetti marta aylanib chiqish mumkin. Bu juda oson. Insonga bemisl qudrat berilgan. Bu qudrat o‘zining tasavvuriga sig‘mas darajada kengdir. Buning uchun, Hazrat Rumi o‘rgatganidek, ko‘zni yumasiz-u ko‘zni ko‘ngilga aylantirish kifoya. Rumiyan XII asr o‘tib Eynshteyn ham bu fikrni quydagicha tasdiqlagan: “Aql yetmagan joyga tasavvur bemalol yeta oladi”. Xo‘sh, tasavvur beradigan bu imkoniyat azobni kamaytiradimi? Yo‘q, aksincha, Abdulla Ori-pov aytganidek: cheksizlik yurakni siqadi...

**“Toshlardan qutilmaysan, ming osmonga otib ham”.**

Ayrim odamlarning qo‘ynida saqlab yuradigan chirkin “malomat toshi”ga ishora bu. Bundan tashqari, “Tosh” – bu yerda bag‘ritosh yovuz odamning ramzi. Ki, yovuz kimsani Xudoga solsang ham, oson qutilolmaysan, yara bitsa-da chandig‘i qoladi...

**“Ko‘zlarim kulib turgay olovlarga botib ham, Childirmangni chalaver, men boshqacha o‘ynayman”.**

Qalb yig‘lab tursa ham, ko‘zning kulib turishi deyarli barchaning boshidan o‘tgan, menimcha. Odinayevada chiranib, safsatasifat falsafa so‘qish yo‘q. Balki Iztirob va Erk haqidagi butun bir shaxsiy falsafa she‘rning umumiy g‘oyasiga sochib singdirilgan. Ko‘pchilikka tanish, psixologik tiniqlikda chizilgan bunday tirik tasvirlar doim she‘r ta‘sirchanligini oshiradi. Mavzu doirasidan fokusni uzmay, o‘z nuqtasida topib aytilgan quyma so‘zlar she‘rning emotsional strukturasi sifatli chiqishiga xizmat qiladi.

**“Yil dumalab yillarning borar shomi qorayib”.**

Yerning Quyosh atrofida bir marta “dumalash”i bir yilga teng. Umr esa yillardan iborat. Umr shomi qorayib borishi esa noaniq sinovlardan darak. Sinovlar odatda kutilmagan iztiroblar boshlab keladi...

**“Yorilgan peshonamni shabnamlarga qo‘y chayib”.**

Peshonalar yorilsa-da o‘pkalash ohangi yo‘q, balki siniq ruhiyatni soflik va yangilanish timsoli bo‘lgan shabnam bilan erkalashini ko‘ring buni, ajib lirika...

**“Bobosi gung attorning savdosida ne ayb,**

**Childirmangni chalaver, men boshqacha o‘ynayman”.**

“Bobosi gung attor” – tomiri tasavvufiy irfondan suv ichgan chuqur timsol: Bir kuni Fariduddin attorlik do‘konida savdo-sotiq bilan mashg‘ul ekan. Bozor ayni qizigan paytda bir darvesh do‘kon eshigiga kelib, bir necha marta “Xudoning yo‘liga biror narsa bering!” debdi. Attor parvo qilmasdan, gung holda yana savdoga berilibdi. Darvesh debdi:

– Ey xoja, qanday o‘lasan?

Ul zot debdurlar:

– Sen qanday o‘lsang, men ham shunday o‘lgum.

Darvesh debdi:

– Sen mendek o‘la olmassan!

Attor hazratlari so‘rabdilar:

– Nechuk?!

Darvesh aytibdi:

– Mundoq!



Yog'och kosasini bosh ostiga qo'yib, "Valloh" debon jonini Haqqa taslim qilibdi. Fariddin Attorning ahvoli butunlay o'zgarib, do'kon va mol-matohidan butunlay voz kechib, tavba qilib, umri so'ngigacha tasavvuf yo'liga kirgan ekan...

She'rdagi "savdo" so'zi, faqat oldi-sotdi ma'nosida emas, boshga tushgan O'zni Anglash savdosi haqida ham ketmoqdaki: "Anglang anduh chekadi. O'zni tanish dastlab hech kimsaga quvonch bag'ishlamagan, bag'ishlamaydi ham. Eng katta g'animni botinida ko'ra olgan kishining dili, holi, xotiri ham tubdan o'zgaradi", deydi Ibrohim Haqqul. Ustozga qo'shimcha qilishdan hayo qilaman.

Keyingi qator:

**"Yomg'ir sog'inch isimi, shoir g'amga erkami".**

Yomg'ir - Iztirobdan ham ko'proq Poklanish va Rahmatni bildiradi. Hazrati G'am odam qurib qolgandek, kelib-kelib shoirga erkalgini qilgani-qilgan. "Og'ir yumushim yo'q havo yutishday" deydi Nargiza bir nolasida. Nega bunday axir!? Navbatdagi qatorda nihoyat bu savol o'z javobini topadi va she'rni ushlab turgan ustun - mohiyat ochiqlanadi:

**"Dunyo og'ib ketardi bo'lmandanda bir kami".**

Hammasi inson istaganidek bo'lganida, na yashashdan va na Ilohiy Intizomdan ma'ni qolardi demochi, shoira. Psixologiyadan



ma'lumki, Inson iztirobining markaziy negizida yo'qotilgan va yo'erisha olinmagan narsa yotadi. U moddiyatmi va yo ma'naviy narsami, farqi yo'q. Diqqat qiling va tayyor turing, hozir yakuniy yopiq xulosa ostiga yashirib ketilgan "mina"ni bosamiz. "Mina"ni bosishimizdan avval, yana bir qiziq gapni maqolaning shu avj qismiga qistirib ketay, Nargiza boshqa bir she'rida

"Olam oqib borar ulkan qo'shiqda,

Men jimjit turibman, Xudo kechirsin!" deya hadik aralash afsus chekkan edi. Endi esa u baralla:

**"Hayqiraman cho'g' bosib: "Azob - ruhning bayrami!" demoqda. Yana bir she'ridagi:**

"Osmonga hayqirgan daryo boshlandi,

Halovat topmayman qaygacha endi?" degan fig'on bizning "mina"mizning bag'rini to'ldirib, onadek quchoqlashini qarang! Bu uchta yaxlit she'rda kelgan misralar birlashsa, ma'no kuchliroq portlashi aniq. Demak, bu ash'or Nargizaning avvalgi she'rlariga kollaboratsiya qilib tahlillansa, ko'rinadiki, shoiramiz bu ruh bayramini uzoq kutgan! "Cho'g'" nening ramzi edi? Yashang, O'zni Anglash debochasi! She'rni boshdan oxirigacha yangi nazar bilan qayta o'qing, huzurlaning. Didga ko'ra, "mina"ni o'zingiz nomlang, istang "Azob" deng, istang "Bayram". Ikkalasi ham she'r temperamentiga mos tushadi. Chunki har o'qilganda, kayfiyatingizga qarab turli qiyofaga kiradigan jodugar she'r bu! Agar men aytgandek jodugarligi bo'lmaganida, bu qadar sevib o'qilmasdi.

Dunyo nayrangiga taslim bo'lmas, ayo ahli aziz, keling, Nargizaga jo'r bo'ling! Qani, ey, Koinot, deng,

"Childirmangni chalaver, men boshqacha o'ynayman!"

Hurmat bilan,

**Alif MAHMUD**

# “TINOVG‘OMOVCHILIK” VA MILLATCHILIK



R

ahim Oxunjonovich Inog‘omov 1902-yil dekabr oyida Toshkent shahrida tug‘ilgan. Avval eski maktabda, so‘ng rus-tuzem maktabida o‘qigan. Munavvar qori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabini bitirib, qalbiga millat va din muhabbatini jo qildi. 1918-yildan Said Ahroriyning “Izchilar to‘dasi”da, 1919-21-yillar Fitratning “Chig‘atoy gurungi”da ishtirok etib, o‘z davrining ilg‘or fikrli yoshlaridan biriga aylandi.

Rahim Inog‘omov 1921-24-yillarda Moskvadagi Sverdlov nomidagi kommunistik universitetida o‘qiydi. Turkistonlik talabalarlardan Abdulla Qamchinbek “Turkiston” gazetasi-ning 1923-yil 6-aprel sonida “Maskavda o‘zbek studentlari” maqolasida Moskvada “...o‘tgan yil 10-15 nafar o‘zbek student bo‘lsa, bu yil yuzlabdirlar. Ular: Karl Marks institutida injener elektrik Sayyid Xo‘jayev 1915-yildan buyon Moskvada o‘qiydi.

2.Qishloq xo‘jalik akademiyasida kattaqo‘rg‘onlik Ortiqmurod Yo‘ldoshev 3.Hukumat dorulfununi yuridik fakultetida Aliakbar Qirg‘izboyev (namanganlik) 4.Sverdlov universitetida 2 ta Akmal Ikromov va Rahim Inog‘omov 5. Petrograd Zinovev dorulfununida Saidahmad Nazir o‘g‘li 6.Maskav Sharq dorulfununining turli tayyorlov bo‘limlarida 23 o‘zbek (5 ta qiz), 7. Maskav Rabfakda 37 o‘zbek. Maskavda turkistonlik o‘zbeklarning soni 106 ta...” deb axborot beradi.

Rahim Inog‘omov Akmal Ikromov, Usmonxon Eshonxo‘jayev, Abdullajon Karimov kabi turkistonlik talabalar bilan 1922-23-yillar Moskvada “so‘l kommunistlar” nomli guruh tashkil etishadi. Ular Oktyabr inqilobi Turkiston mehnatkashlariga hech qanday ozodlik bermadi, “biz hamon Rossiya koloniyasi holidamiz” der edilar va hatto, SSSR MIQ ga ham xat yo‘llaydilar. Rahim Inog‘omov Sverdlov kommunistik universitetini tugatganidan so‘ng tahsilni sharqshunoslik institutida davom ettiradi. Ayni paytda Turkiston matbuoti sahifalarida ham o‘z maqolalari bilan ko‘rina boshlaydi. Jumladan, “O‘zgarishchi yoshlar” jurnalining 1924-yil 30-iyul 5-sonida “Dunyoning ahvollaridan” maqolasida yoshlarning xalqaro ahvoldan xabardor bo‘lish uchun vaqtli matbuot gazeta va jurnallarni doimiy kuzatib borishi zarurligini uqtiradi.

**Jurnol elning  
yuksalishiga  
ishlayturg‘on qurol  
bo‘lsin!**

Shuningdek, dunyoda kechayotgan o'zgarishlarni jahonning rivojlangan mamlakatlari o'rtasida neft uchun, gegemonlik uchun, dunyo boyliklarini qayta taqsimlash uchun boradigan tinimsiz kurashlari orqali tushuntiradi. "Anglatara" maqolasida esa Buyuk Britaniya davlati va uning jahon siyosatidagi o'rni haqida jurnalxonlar bilan o'z mulohazalarini o'rtoqlashadi. Markaziy nashrlar materiallari asosida Rahim Inog'omov sovet davlatining tashqi siyosatida Buyuk Britaniya va Loyd Jorj hukumati bilan kechayotgan voqe'liklarning ayrim qirralarini tushuntirishga intiladi.

1925-yil Toshkentga kelgan Rahim Inog'omov Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissari lavozimiga tayinlanadi. Uning tashabbusi bilan maorif komissarligining nashri afkori sifatida "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali ta'sis etildi. Ayni paytda jurnalning bosh muharriri Rahim Inog'omov zo'r g'ayrat bilan ishga kirishdi va jurnalning ilk sonida u "Butun maorif idoralariga va maorif ishchilariga" murojaat qilib, "Bu chiqorilgan jurnalning hozirgi maorif maydonidagi ehtiyojlarimizda katta rol o'ynashida shubhamiz yo'qdir. Mamlakatning shunday jurnollar bilan to'lishin istar edik. Lekin baxtga qarshi ko'p qiyin sharoitlar orqasida birdan bir o'zbek tilida shu bittagina jurnal maydonga keladir.



Men bu yerda jurnalning ahamiyat va qiyinchiliklari hamda maorif haqida vazifalari to'g'risida to'xtalmayman. Yolg'iz shuni aytib ketmakchiman kim, buni bir jurnal, qishloq shahar maorif xodimlarigina emas, balkim elning yuksalishiga ishlayturg'on qurol bo'lishi uchun barchamizning jiddiy ishtirokimiz kerak deb bilaman. Shuning uchun qisqagina so'zlab so'rar edim kim butun maorif idoralari bu jurnalдан o'z qollarida saqlasunlar edi.

Jurnalning davomini ta'min etmak uchun har bir o'qitg'uchi o'rtoqlarimizning bunga obuna bo'lib yozilishlari va o'rnlarda yaxshi tarqatilishiga ko'mak etishlari hamda mahallalarning turli hollaridan, kamchiliklaridan yozib turishlari, qisqasi jurnalning ma'naviy va moddiy yog'idan ko'maklari juda muhimdir. Mana shul choqdag'ina jurnal har tomondan ta'min etilgan va o'zining yo'lini keng suratda belgilab olg'on bo'ladir. Biz ham shul chog'dag'ina tuzukkina jurnalga ega bo'lg'on bo'lar edik", deydi.

## Maktab binolarimizning 50-70 foizi ishga yaramayturg'on

Rahim Inog'omovning keyingi maqolasi sovet maktablari va ularda dars berayotgan o'qituvchilarning ahvoli haqida xabar beradi. Kishini taajjubga soladigan tomoni, Rahimjon juda yosh va endigina universitetni bitirib kelganligiga qaramay muammoga o'z ishining tub mohiyatini anglagan holda yondoshadi. Jumladan, "...Bizda maktab masalasi anchagina qiyin masala. Chunki, bizning yashaydirgon sharoitlar ichida sho'ro mehnat maktabini tuzish shubhasiz oson emasdir. Lekin, shunday bo'lsa ham mamlakatda bo'lgan dardlik harakat ishini ilgari-

ga surib amalda bir necha jonli natijalardan uzoqlanmadi. Maktab masalasida birinchi o'rinni o'qituvchilar oladi. Bizdagi o'qituvchilar, ko'pchilik bilan so'ylaganda hatto 3-4 yillik tartibli o'qish ko'rmagandirlar. Shuning uchun o'qituvchilar yetkazish masalasiga qancha ahamiyat bersak, o'qituvchilarning bilimlarin ko'taruvga ham shuncha ahamiyat bermak kerak, deydi.

Rahim Oxunjon o'g'li 1925-yil oktyabr kuni O'zbekiston komsomoli markaziy qo'mitasi majlisida ma'ruza bilan ishtirok etdi. Rahim Inog'omov o'z ma'ruzasida balandparvoz raqamlardan chekinadi, barcha muammolarni va holatni ro'y-rost bayon qiladi "...Bizda o'qishni istaganlar minglab bor, ammo biz ularning hammasini maktablarimizga joylolmaymiz... Misol o'rnida aytaman kim, bu yil ichida hatto kelgusi 5 yil zarfinda ham biz butun maktab binolarini yangidan solib bitira olmaymiz. Bizning vazifamiz bor orqada qolg'on viloyatlarda maktablarning sonini 100 foizga yetkazishga, biroq buni ham qila olmaymiz deb qo'rqaman. Chunki, maktab uchun binolar yo'qdir. Bunday ishlar uchun bizga judayam oz pul beriladi. Davlat budjetidan maktab ta'miri va binosi uchun 140 ming so'm beriladi. Vaholanki, maktab binolarimizning 50-70 foizi ishga yaramayturg'on binolardir". Shuningdek, ma'ruzadan mamlakatda savodsizlikni tugatish kurslari, maktab va internatlar, dehqon yoshlar maktablari, fabrika zavod maktablari ochish uchun harakatda ekani haqida axborot beradi.

Rahim Inog'omov har bir tadbirning samarasi uchun javobgarlikni chuqur his etgan holda yondashadi: "Jumladan, dehqon yoshlar maktablari shaharlarda emas, qishloqlarda ochildik. Boisi o'quvchilar orttirgan ilmlarini bevosita dalada tajribadan o'tkazib ko'rsinlar", deydi. "Shuningdek, fabrika-zavod maktablari uchun ham avvalo fabrika va zavod, keyin darsliklar va o'qituvchilar armiyasi zarur, ularni oddiy kurslar yordamida yetishtirib bo'lmaydi", deydi. Bu esa o'z davri uchun ham, hatto bugungi kunimiz uchun ham sifatli kadrlar tayyorlashda o'ta muhim bo'lgan jihatdir.

1926-yildan Rahim Inog'omov Maorif xalq komissari lavozimidan olinib, O'zbekiston Kompartiyasi MK matbuot bo'limi mudiri lavozimiga o'tkaziladi. "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1926-yil 9-sonida "To'lgan to'qqiz yilni ham ko'rsinlar" maqolasida O'zbekistonning maorif sohasidagi muvaffaqiyatlarini sarhisob qilib, jumladan, "1925/26-yilda hammasi 508 ta yangi maktablar ochildi. Albatta, bu xalqda bo'lgan buyuk ehtiyojni o'tay olmaydir, chunki xalq ehtiyoji juda kattadir. Yana internatlar (76 ta), maktabgacha muassasalar (37 ta) va ikkinchi bosqich (39 ta) maktablari bordir. ...Hozirda 37 ta ixtisosli maorif muassasasi bo'lib, 5250 o'quvchiga egadirmiz. 17 bilim yurtida 2685 o'quvchi. Hozirda qishloq xo'jaligi sohasida o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha 7 ta maktab bo'lib, 770 dan ortiq talaba o'qiydi. Bundan tashqari mamlakatning turli shaharlaridagi universitet va bilim yurtlarida ham minglab o'quvchi-



larga egamiz, deydi. Darhaqiqat, shu yillarda yosh O'zbekiston hukumati o'zining oldiga o'n yillikda aholining savodxonligini yuz foizga yetkazish masalasini qo'ydi. Ochilgan har bir zavod, fabrikalar qoshida Germaniya tajribasi asosida o'quv-amaliy maktablar tashkil etdi. Ichki Rossiyaning sanoat tumanlariga yuzlab yoshlarni yo'llab, mahalliy yoshlardan qisqa vaqtda katta miqdorda kadrlar armiyasini shakllantirishga kirishdi.

Rahim Inog'omov ayni paytda mamlakatning siyosiy boshqaruvida ham faol ishtirok etdi. Ayniqsa, O'zSSR MIQ plenumida O'zSSR KP(b)ning taslimchilik faoliyatiga qarshi chiqib, partiya apparatini hamda xalq xo'jaligida kadrlarni milliylashtirishni tezlashtirishda keskin choralar ko'rishni talab qiladi. Uning 1926-yil chop etilgan "O'zbekiston ziyolilari" risolasi katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Unda oktyabr to'ntarishiga nisbatan noxush munosabat bildirib, o'zbek xalqining maorifda qo'lga kiritayotgan yutuqlari inqilobning emas, jadid ziyolilarining xizmatidandir degan fikrni ilgari suradi.

Rahim Inog'omovning faoliyatidan norozi bo'lgan kimsalar uni hukumatdan chetlashtirishga erishadi. U bir muddat O'zdavnashriyotda bo'lim mudiri va O'zbekiston Yozuvchilarining Samarqanddagi "Qizil qalam" jamiyatiga rahbarlik qildi. Ayni paytda o'zining maqolalarida Sredazbyuro, Sredazekoso kabi markazning nazoratchi organlarini zo'raonlikda, O'zbekiston Kompartiyasini Rossiyaning qizil mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashmayotganlikda ayblashda davom etdi. VKP(b)MK O'rta Osiyo byurosi va uning O'zbekiston Kompartiyasidagi tarafdorlari Rahim Inog'omovga qarshi matbuotda "Inog'omovchilik" degan soxta ish ochishib, butun partiya tashkilotlarini oyoqqa turg'azdi. 1926-yil 12-dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi MQ Ijroiya byurosi va plenumida, 1927-yil yanvar oyida O'rta Osiyo byurosida bu masala maxsus ko'rib, "inog'omovchilik - mayda burjua va millatchilik tomonga og'ish", deb qoralanadi. 1926-yil dekabr oyida barcha vazifalaridan olib tashlangan Rahim Inog'omov 1927-yil 2-sentyabrdan 1930-yil maygacha Qashqadaryo viloyat ijroqo'mida yer bo'limida mudir lavozimida ish olib bordi.

1930-yil 30-mayda "Qizil O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarida Rahim Inog'omovni "g'oyaviy jihatdan tor-mor qilindi" deb ochiq xat uyushtirilib, tava-tazarru qildiriladi. Rahim Inog'omov O'zbekistonni tark etishga majbur bo'ladi. Biroq, "inog'omovchilik" xorijdagi Ahmad Zaki Validiy (1880-1970) va Mustafu Cho'qay (1890-1941) lar tomonidan o'z davrida o'zbek kommunistlari markazning mintaqadagi xo'jayini - O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro)ga qarshi dadil chiqishi, deb baholandi. Inog'omov Rahim 1931-37-yillarda Moskvada yashab, Butunittifoq MIQda tarjimon va "Elektr ixtirochilar jamiyati" zavodida kasaba uyushmasi raisi lavozimlarida ish olib boradi.

## **"Inog'omovchilik - mayda burjua va millatchilik tomonga og'ish"**

1937-yil 10-avgust kuni Rahim Inog'omovni qamoqqa olishga qaror qilinib, 25-avgust kuni Qrim ASSRning Alushta shahrida qamoqqa olindi. Rahim Inog'omov tinimsiz qiynoqlar ostiga qo'liga tutilgan barcha qog'ozlarni imzolashga majbur etildi. So'nggi so'roq va yuzlashtirishlarda o'ziga nisbatan barcha ayblovlarni rad etadi. Biroq, 1938-yil 5-oktyabr Toshkentda mash'um "uchlik" tomonidan otuvga hukm qilindi. Mustabid sho'ro tuzumi davrida O'zbekiston maorifi yo'lida fidokorona kurash olib borgan Rahim Inog'omov 1957-yil 1-avgustda oqlandi.



TASHQI QARZ:

**XAVF**  
**YOKI** **IMKONIYAT**

**I**qtisodiyotning barqaror rivojlanishi yirik moliyaviy resurslarni talab qiladi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va sanoatni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda ichki byudjet imkoniyatlari cheklanib qolishi mumkin. Shu sababli dunyo amaliyotida tashqi moliyalashtirish iqtisodiy siyosatning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda 2017-yilga qadar bu masalaga nisbatan ehtiyotkor siyosat olib borilgan. Davlat byudjeti, asosan, profitsit (byudjetdagi ortiqcha mablag') hisobidan shakllantirilgan. Bugunga kelib, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va keng ko'lamli islohotlar jarayoni xalqaro moliya institutlarining mablag'lari ni jalb qilish ehtiyojini tug'dirdi.

## Tashqi qarz nima? U nega kerak?

**T**ashqi qarz jalb qilmasdan iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ancha murakkab hisoblanadi. Shu bois qarz mablag'larining ijobiy jihatlarini bir qator asosiy yo'nalishlar kesimida ko'rib chiqish mumkin.

Qarz mablag'lari, avvalo, infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltiriladi. Yo'llar, ko'priklar, elektr tarmoqlari, suv ta'minoti tizimlari iqtisodiyotning asosiy poydevori hisoblanadi. Infratuzilmaning yaxshilanishi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantiradi, tadbirkorlik faolligini oshiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi. Xususan, yangi transport yo'llarining qurilishi mahsulotlarni bozorlarga tez va arzon yetkazib berish imkonini yaratadi. Bu esa logistika xarajatlarini qisqartirib, narxlarning pasayishi hamda iste'molchilar farovonligining oshishiga xizmat qiladi.



## Tashqi qarz sabab mamlakatning obro'yi oshadi

Qarz mablag'lari ijtimoiy sohalarga investitsiya kiritish imkonini ham yaratadi. Maktab, kasalxona, universitet – bular jamiyat kelajagi uchun investitsiyalar. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshiradi. Ko'p hollarda tashqi qarz mablag'lari zamonaviy texnologiyalar hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha institutsional tavsiyalar bilan birga keladi. Xususan, Jahon banki yoki Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi moliyaviy tashkilotlar nafaqat moliyaviy resurslar ajratadi, balki ushbu mablag'larni maqsadli va samarali sarflashga doir maslahatlar ham beradi. Bu esa milliy moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tashqi qarz va investitsiyalar orqali xorijiy investorlar zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv amaliyotlari hamda xalqaro standartlarni iqtisodiyotga joriy etish imkonini yaratadi.

Tabiiyki, qarz iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda 7 foizdan yuqori o'sishni qayd etdi va 2026-yilda ham 6,8 foiz o'sish prognoz qilinmoqda. Bu ko'tarilish sur'atlari rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda yuqori natija hisoblanadi.

Tashqi qarz sabab, qaysidir ma'noda, mamlakatning xalqaro obro'yi oshadi. "Fitch rating" agentligi 2025-yilning iyun oyida O'zbekistonni qarzlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyati yuqori bo'lgan mamlakat deb e'lon qildi. Bu barqaror istiqbol belgisi hisoblanib, mamlakat xorijiy bozorlardan arzonroq sharoitda qarz olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yuqori reyting yangi investitsiyalar va savdo imkoniyatlariga yo'l ochadi.



## Qanday xavflar mavjud?



Qarz olish qo'llanishda sodda tuyulishi mumkin, ammo uni noto'g'ri sarflash oqibatida qarzni qaytarish jarayoni murakkab kechishi ehtimoli bor. Shu bois tashqi qarz masalasiga iqtisodiy xavf-xatarlar nuqtai nazaridan ham yondashish muhim. Qarz mablag'larining

hajmi, qaytarish shartlari hamda iqtisodiyotga ta'siri muayyan risklarni yuzaga keltiradi. Masalan, qarz miqdorining ortib borishi davlat byudjetiga yuklama bo'ladi. O'zbekistonda 2025-yilda davlat byudjeti umumiy xarajatlari 290,4 trillion so'mni tashkil qilgan. Davlat qarzini to'lash uchun esa 39 trillion so'm ajratilgan. Bu ko'rsatkich umumiy byudjetning 13 foizi qarzni to'lash uchun sarflanganidan dalolat. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston qarzlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyati yuqori bo'lgan mamlakatlar safida ekani, bu xavf reallikdan uzoq ekanini anglatadi. Xorijiy valyutada olingan qarz miqdori valyuta kursining o'zgarishi bilan ortib yoki qisqarib turadi. Masalan, dollar yoki yevro kursida ko'tarilish kuzatilsa, so'mda ifodalanagan qarz miqdori ham o'sadi. Bu holatda tashqi qarzni to'lash uchun byudjetdan ko'proq pul ajratishga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, davlat qarzining ortishi kelajak avlodlar uchun moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Agar ushbu qarz resurslari samarali yo'naltirilmasa, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlamasa, kelajak avlodlar o'z mehnati orqali yaratilgan daromadlar hisobiga mazkur qarzni qoplashga majbur bo'ladi. Global iqtisodiyotda krizis bo'lsa yoki xorijiy investorlar mamlakatdan chiqib ketsa, yangi qarz olish murakkablashadi. Bunday holatda mamlakatda moliyaviy inqiroz yuzaga kelishi mumkin. Ma'lumot uchun, 2025-yilda dunyo bo'ylab davlatlarning tashqi qarzi 110,9 trillion dollarga yetgan. Bu ko'rsatkich global moliyaviy tizimda stress mavjudligini ko'rsatadi.

## Tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'siri

# 2

2025-yilda O'zbekistonda 7 foizdan yuqori iqtisodiy o'sish qayd etildi. Mazkur o'sish bir qator omil-

lar ta'sirida shakllangan bo'lib, ulardan biri qarz mablag'larining iqtisodiyotga jalb etilishi bilan ham bog'liq. Qarz mablag'larining

ijobiy ta'sir mexanizmi quyidagicha namoyon bo'ladi: jalb etilgan resurslar infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltiriladi, bu esa infratuzilmaning yaxshilanishiga olib keladi. Natijada tadbirkorlik yaxshilanib, yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari ko'payib, iste'mol va investitsiya hajmlari kengayadi. Mazkur jarayonlar yakunida iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Qarz mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ushbu rivojlanish zanjirining samarali ishlashiga zamin yaratadi. Agar qarz mablag'lari korrupsiya, isrofgarchilik yoki iqtisodiy jihatdan asoslanmagan investitsiyalar tufayli sarflansa, iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashadi, qarz miqdori esa oshib boradi. Bunday holat iqtisodiy adabiyotlarda «qarz tuzog'i» sifatida tavsiflanadi. Ya'ni qarz hajmi ortib boradi, ammo iqtisodiy o'sish yetarli darajada ta'minlanmaydi, natijada qarz yuki yana-da og'irlashadi.

## Tashqi qarz hayotimga qanday ta'sir qiladi?

## Qay holatda qarz o'smaydi?

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi tahlillariga ko'ra, O'zbekistonda o'rta muddatda joriy hisob defitsiti eksport va xizmatlar tushumlarining tiklanishi hisobiga 2026-yilda yalpi ichki mahsulotning 5 foizigacha yaxshilanishi prognoz qilinmoqda. Bu ijobiy signal, lekin hali ham defitsit mavjud, ya'ni tashqi savdo balansida pasayish bor. Defitsit qarz bilan yopiladi, agar defitsit kamaysa, qarzga bog'liqlik ham kamayadi.

«Fitch rating» agentligi prognozlariga ko'ra, 2025-2026-yillarda O'zbekistonda byudjet defitsiti o'rtacha yalpi ichki mahsulotning 3 foizini tashkil etadi. Agentlik, shuningdek, hukumat xarajatlarni cheklash bo'yicha majburiyatda davom etishini tavsiya qilgan. Byudjet daromadlari va xarajatlarini qat'iy nazorat qilish davlat qarzining o'sish sur'atlarini nazorat ostida saqlashga xizmat qiladi. Xususan, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmagan taqdirda, davlat qarzining jadal o'sishi kuzatilmaydi.

Tashqi qarz haqida gap ketganda, ko'pchilikda "bu mening kundalik hayotimga qanday ta'sir qiladi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Aslida, tashqi qarz davlat darajasidagi tushuncha bo'lsa-da, uning ta'siri har bir fuqaroning hayotida seziladi.

Agar qarz mablag'lari yo'llar va transport infratuzilmasiga yo'naltirilsa, siz ishga yoki o'qishga tezroq yetib borasiz, kamroq yoqilg'i sarflaysiz. Bu vaqt va pul tejalishiga sabab bo'ladi. Qarz hisobidan maktablar va shifoxonalar qurilsa, farzandlaringiz sifatli ta'lim oladi, siz esa yaxshiroq tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'lasiz. Bu o'z-o'zidan hayot sifatining oshishi degani. Agar tashqi qarz haddan ziyod oshib ketsa va uni to'lash xarajatlari ko'paysa, davlat byudjetni tejashga majbur bo'ladi. Bu ayrim hollarda soliqlarning oshishi yoki ijtimoiy dasturlarning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Agarda iqtisodiyot barqaror o'sib borsa, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu orqali siz yoki yaqinlaringiz uchun ish topish imkoniyati kengayadi. Mamlakatning xalqaro reytingi yaxshilanib boraversa, xorijiy investorlarda ko'proq qiziqish uyg'onadi. Bu esa yangi korxonalar, do'konlar va xizmatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada aholi uchun tanlov va imkoniyatlar ortadi.

E'zozbek HAMIDOV tayyorladi



# MODIRA

## DADAMI MUHAMMEDOVA:



“DUNYO  
MUSIQA BILAN  
ILIQROQ...”

**S**an'atga muhabbat qo'yish yuragi ezgulik "ishlab chiqaruvchi" insonlarning taqdirida bor narsa. Bunday kishilar boshqalar ham ana shu laz-zatdan bahramand bo'lishlari uchun ko'nglining to'ridan san'atga joy beradilar.

Ana shunday kishilardan biri O'zbekiston davlat konservatoriyasining fakultetlararo fortepiano kafedrasida katta o'qituvchisi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti hamda 2025-yilda "Mohir fortepianochi" respublika tanlovi sovrindori Nodira Dadamuhamedova. U o'n beshdan ortiq xalqaro tanlovlar sovrindori hisoblanadi. "Konserteum" (Gretsiya), N. Rubinshteyn nomidagi xalqaro pianinotchilar (Fransiya), F. Shopen (Estoniya), "Le Muze" (Italiya), Cidado do "Fundao" (Portugaliya), "Pro Piano Romania" (Ruminiya), Art. Monyushko (Fransiya, Belarus) va "Citta di Barletta" xalqaro pianinotchilar tanlovlari shular jumlasidan. Nodira, shu bilan birga, bir necha bor simfonik orkestrlar bilan konsertlar bergan. U bilan dildan gurunglashdik.



\* \* \*

– **Nodira, siz bilan endi tanishayotgan mushtariylarimiz sizni kim deb eslab qolishlarini istardingiz?**

– O'quvchilar meni avvalo musiqa chindildan ixlos qo'ygan inson sifatida eslab qolishlarini istardim. Musiqa menga bolaligidan hamroh bo'lgan va shunchaki kasb emas, balki hayotim va ichki dunyomning bir qismiga aylangan. Men pianinochi, ijrochi va o'qituvchiman, men uchun nafaqat sahnada chiqish, balki talabalar bilan o'z tajribamni o'rtoqlashish, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish va musiqa o'z yo'lini topishga ko'maklashish ham juda muhim. Menimcha, musiqa insonni tarbiyalashga, uning qalbini rivojlantirishga, dunyoni chuqurroq his qilish va tushunishga o'rgatishga qodir. Ammo sahna va pedagogik faoliyatdan tashqari, qizim ham men uchun juda muhim. Men onaman va bu rol meni sabr-toqatga, g'amxo'rlikka, kasbim hamda qizim o'rtasidagi muvozanatni topishga o'rgatadi. Ehtimol, meni o'z ishini sevadigan, bu muhabbatni boshqalarga yetkazishga harakat qiladigan va musiqa orqali dunyoni biroz iliqroq va mehrliroq qiladigan inson sifatida eslab qolishlarini xohlardim.

## **Shug'ullanmaslik orqaga qadam tashlayotgandek gap**




- Siz haqingizda eshitganimdan keyin ijodiy ishlaringizni qidira boshladim va YouTube'da bir nechtagina eski videolaringiz bor ekan. Nimalar bilan bandsiz va nega ko'p ham ko'rinish bermaysiz?

- Ha, afsuski, haqiqatan ham YouTube'da juda kam videolarim bor va ular asosan eski yozuvlar. Hozirgi kunda bu juda muhimligini tushunaman va, ehtimol, o'z chiqishlarimni faol ravishda ulashishni boshlashim kerakdir. Aslida, menda juda ko'p yozuvlar to'planib qolgan - disklarda, fleshkalarda, tanlovlar va turli konsertlardan yozuvlar bor, lekin hozircha ularni shunchaki internetga yuklamadim. Shu bilan birga, men kamdan-kam chiqish qilaman, deyishim unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Men omma oldida tez-tez ko'rinish beraman, shunchaki bu chiqishlar har doim ham internetda ko'rinavermaydi. Ayniqsa, keyingi ikki-uch yil men uchun juda samarali bo'ldi. Yana sahnaga faol chiqa boshladim, ko'proq shug'ullandim, o'ynadim.

Umuman, pedagogik va ijrochilik faoliyatini qo'shib olib borish oson emas.

Bir paytlar deyarli chiqish qilmaganman. Ammo pianinochi uchun, sportchi uchun bo'lgani kabi, doimiy ravishda formada bo'lish juda muhim - muntazam ravishda chalish, barmoqlarni mashq qildirish, texnika ustida ishlash. Busiz ko'p narsa - texnika, sahnadagi ishonch, tovush, bo'yoqlar, tembr, intonatsiya yo'qola boradi. Faol shug'ullanish va nutq so'zlashni to'xtatganingizda, o'zingizni bir necha qadam orqaga tashlayotgandek his qilasisiz. Shuning uchun menga sahna amaliyotiga qaytish juda muhim edi. So'nggi yillarda yakkaxon konsert berdim, Abu-Dabidagi xalqaro tanlovda ishtirok etdim, "Mohir fortepianochi" respublika tanlovida qatnashdim, orkestrda chalish bilan shug'ullandim, respublikamizning turli maktablari va shaharlarida chiqishlar qildim. Shunday qilib, menda sahna hayoti bor, faqat u hozircha internetda ommalashmagan.



- 2004-yilda sahnada pianining pedallariga oyog'ingiz yetar-yetmas kuy ijro qilgan ekansiz. O'shanda necha yosh edingiz va u qaysi konsert edi?

- Ha, sahnaga juda erta chiqa boshlaganman. 2002-yildan boshlab maktabdagi konsertlarda, jumladan, muzeylarda chiqishlar qildim. 2003-yilda esa bor-yo'g'i sakkiz yoshimda Gretsiyaga ikki turdan iborat xalqaro musobaqaga uchib bordim. O'shanda men haqiqatan ham pedallar tugul, polga zo'rg'a yetib borardim, lekin baribir chaldim, sahnada chiqishlar qildim. Siz aytgan 2004-yilgi videoga kelsak, bu Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining "6" raqamli sinfidan yozib olingan. Ushbu sinfda an'anaviy ravishda pianinochilar uchun imtihonlar o'tkaziladi. O'qituvchim, xalq ta'limi a'lochisi Alla Antonovna Kim har doim imtihon dasturimni videoga yozib olardi. Bu taraqqiyotni ko'rish, ijroni tahlil qilish, yana nima ustida ishlash kerakligini va qaysi asarlarni dasturga kiritish kerakligini tushunish uchun qilingan. Bu juda to'g'ri va foydali amaliyot deb o'ylayman. Hozirda talabalarim bilan ishlayotganimda, men ham vaqti-vaqti bilan ularning chiqishlarini yozib olishga harakat qilaman - bu o'zingizni chetdan ko'rishga va rivojlanish yo'lingizni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**"Onajon, men ham  
chalishni o'rganishni  
juda xohlayman"**

## Ijodim sakkiz yoshda boshlangan



**– Pianinoni juda yoshlikdan, barmoqlar qotmasidan o‘rganish kerakmi? Siz o‘zingiz qachon va kimdan o‘rgangansiz? Va shu kungacha qanday bosqichlarni bosib o‘tdingiz?**

– Agar ota-ona farzandini professional musiqachi qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsa va unda salohiyat hamda iste‘dodni ko‘rsa, albatta, ta‘limni ancha erta, taxminan, besh yarim yoki olti yoshdan boshlash kerak. Bu yoshda qo‘lni va butun ijro apparatini to‘g‘ri qo‘yish muhim. Barmoqlar hali to‘liq mustahkamlanmagan bo‘lsa ham, pedagog bilan to‘g‘ri ishlaganda ular asta-sekin rivojlanadi. Bola bilan asosni to‘g‘ri shakllantira oladigan mutaxassis shug‘ullanishi juda muhim. Axir pianinoning keyingi rivojlanishi, uning texnikasi va ijro sifati aynan qo‘llarga bog‘liq. Olti yoshdan o‘qishni boshlagan bolalar odatda musiqa nazariyasini ham, nota savodxonligini ham xotirjam o‘zlashtiradilar va asta-sekin to‘g‘ri pianino texnikasini rivojlantiradilar. O‘zim esa

biroz kechroq, taxminan, olti yarim yoshimda shug‘ullana boshlaganman. Hozir pedagogman va har bir bolaning o‘z yo‘li borligini tushunaman. Masalan, qizim yetti yoshidagina o‘qishni boshladi. To‘g‘risi, boshida uni musiqaga berish haqida umuman o‘ylamagandim.

Ammo oxirgi tanlovimdan so‘ng u “onajon, men ham chalishni o‘rganishni juda xohlayman” dedi. Shunda men uni Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabiga berishga qaror qildim. O‘zim ham o‘sha yerda, ajoyib pedagog – xalq ta‘limi a‘lochisi Alla Antonovna Kim qo‘lida o‘qiganman. U menga poydevor qo‘ygan va musiqani chinakamiga sevishimga yordam bergan inson. U men uchun shunchaki o‘qituvchi emas, balki haqiqiy ustoz edi. Alla Antonovna faqat musiqadan dars berib qolmay, bizni har tomonlama kamolga yetkazdi.

## Yaxshi ijro qilsangiz ham mukofot ololmaysiz



Biz muzeylarga borardik, u bizga rassomchilik, rassomlar, turli davrlar madaniyati haqida soʻzlab berardi. Boshqa mamlakatlarga tanlovlarga borganimizda, u albatta diqqatga sazovor joylarni koʻrsatardi va haqiqiy gid sifatida bu joylarning tarixini soʻzlab berardi. Bolaligim va oʻsmirlikimga qaramay, bu juda qiziqarli va ilhomlantiruvchi edi. Uspenskiy nomidagi maktabni tugatgach, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasiga Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan artist, professor Ofeliya Yunusovna Yusupova sinfiga imtihonsiz oʻqishga kirdim. Aynan u bilan uchrashganimdan juda xursandman. U mening kasbiy rivojlanishimni davom ettirdi. Qizigʻi shundaki, mening oʻqituvchilarim doimo aloqada boʻlishgan. Alla Antonovna koʻpincha oʻz oʻquvchilarini aynan Ofeliya Yunusovnaning sinfiga yoʻnaltirgan.

Ijodim ancha erta – sakkiz yoshlarimdan, tanlovlarda faol qatnasha boshlagan paytlarimdan boshlangan. Deyarli har yili, baʼzan yiliga ikki marta xalqaro tanlovlarga borardim, konsertlarda qatnashardim, orkestrda kuy chalardim. Konservatoriyada, albatta, tanlovlarga tez-tez borishning iloji yoʻq edi, lekin men baribir konservatoriya zallarida, maktablarda, litseylarda va mamlakatimizning turli shaharlarida chiqish qilishga intilardim.

**– Bir necha xalqaro tanlovlarda ishtirok etgansiz. Sozanda uchun bu nima beradi? Siz bu sabab nimalarga erishdingiz?**

– Xalqaro tanlovlar musiqachiga juda koʻp narsa beradi: rivojlanish, sahna tajribasi, kasbiy oʻsish va, albatta, ichki barqarorlik. Ammo shaxsan oʻzim haqimda gapiradigan boʻlsam, tanlovlar men uchun, avvalo, mashgʻulotlar uchun kuchli turtki boʻldi. Bolalikda bolani bir necha soat davomida musiqiy asbobga biriktirib qoʻyish har doim ham oson emas. Tanlov esa maqsaddir. Bu yangi dastur tayyorlash, oʻz ustida ishlash va sahnaga chiqishga intilish uchun sababdir. Ijrodan soʻng qarsaklarni eshitganingizda yoki kuchli musiqachilar bilan bir konsertda kuy ijro qilganingizda, bu sizga aql bovar qilmaydigan energiya va yana-da koʻproq shugʻullanish istagini beradi.

Tanlovlar nafaqat quvonch, balki jiddiy sinov ham. Butunlay yangi dastur tayyorlash, koʻp shugʻullanish kerak, baʼzan kuniga ikki-uch soat va undan ham koʻproq. Qolaversa, har bir tanlovning oʻz hakamlar hayʼati, oʻz didi va oʻz fikri bor. Baʼzida siz yaxshi ijro qilasiz, lekin baribir mukofot ololmaysiz.

Lekin aynan shu narsa ko'p narsani o'rgatadi. G'alabani ham, mag'lubiyatni ham qabul qilishni o'rganasan. Pedagogim doim aytardiki, mag'lubiyat ham rivojlanishning bir bosqichi. Va men bunga to'liq qo'shilaman. Ba'zida aynan shunday lahzalar sizni kuchliroq qiladi va oldinga siljishga undaydi.

Shu sababli, tanlovlar men uchun o'ziga xos turtki bo'ldi – ba'zan hatto, aytish mumkinki, to'xtab qolmaslikka, balki ishlashda davom etishga va musiqachi sifatida o'sishga yordam beradigan «orqaga tisari-lish» bo'ldi.

– Har bir musiqiy asbobning vazifasidan tashqari, uning fasafasi bo'ladi, deyishadi. Pianino sizga nimalarni anglatib keldi? Sizningcha, uning falsafasi nima?

– Aslida bu juda qiziq va murakkab savol. Menimcha, vaqt o'tishi bilan har bir musiqachining cholg'u haqida shaxsiy tushunchasi shakllanib boradi. Fortepiano men uchun butun bir olam. Bu cholg'u deyarli orkestr kabi yangrashi bilan o'ziga xos. Unda juda nozik, lirik va sokin holatlardan tortib, kuchli, dramatik va keng ko'lamli his-tuyg'ularning keng palitrasini ifodalash mumkin. Shuning uchun pianinochi, aslida, har doim sahnada yolg'iz qoladi, lekin shu bilan birga u musiqa ichida butun bir spektaklni yashayotgandek tuyuladi. Menimcha, fortepianoing falsafasi yana shundaki, bu cholg'u insondan katta ichki intizom va halollikni talab qiladi.

Pianinochi ko'p soatlarni cholg'u asbobi yonida o'tkazadi, ba'zan o'z fikrlari, shubhalari, tovushni izlash bilan yolg'iz qoladi. Va aynan shu jarayonda musiqaning haqiqiy tushunchasi tug'iladi. Men uchun pianino so'zsiz gapirish mumkin bo'lgan til. U orqali ba'zan oddiy nutqda ifodalab bo'lmaydigan kayfiyat, his-tuyg'u, kechinmalarni yetkazish mumkin.



## Pianino keng ko'lamli his-tuyg'ular palitrası

– Inson hayotda zaruriy ehtiyojlardan biri – suzishni bilishi zarur. Chunki favqulodda holatlarda eng kamida o'zini qutqara olishi kerak. Xo'sh, hamma ham pianino chalishni o'rgani-shi kerakmi va nega?

– Har bir inson pianino chalishni bilishi shart, deb bo'lmasa kerak, xuddi bir kasb boshqasidan muhim-roq, deb bo'lmaganidek. Hayotda barcha kasblar o'ziga xos tarzda zarur. To'g'ridan-to'g'ri hayotni saqlab qoladigan kasblar bor – masalan, shifokorlar yoki qutqaruvchilar. Lekin hayotning yana bir muhim tomoni borki, u ham bo'lsa madaniyat va san'atdir. Ular insonni jismonan qutqarmaydi, lekin uning ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi, did, tafakkur, hissiyotni shakllantiradi. Bu ma'noda musiqa juda katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, musiqa va ayniqsa, fortepiano bilan shug'ullanish inson kamoloti nuqtai nazaridan ham juda foydali. Inson musiqa asbobini chalganda, miyaning ikkala yarimshari faol ishlaydi: xotira, diqqat, muvofiqlashtirish, diqqatni jamlash qobiliyati rivojlanadi. Bu bolalarga ham, kattalarga ham foydali. Professional musiqachi bo'lmasa ham, pianino chalish qobiliyati ajoyib sevimli mashg'ulotga, quvonch manbaiga va stressni yengillashtirish usuliga aylanishi mumkin. Musiqa insonga tezkor hayot ritmidan to'xtashga, biroz tinchlanishga va uyg'unlikni his qilishga yordam beradi. Shuning uchun musiqa har bir insonning hayotida bo'lishi kerak deb o'ylayman. Professional darajada bo'lmasa ham, hech bo'lmaganda umumiy madaniy rivojlanishning bir qismi sifatida.

- Ayrim insonlar orkestr jo'rovligini tinglashga toqat qilolmaydi yoki qiziqish bildirolmaydi. Lekin ko'ngilni yumshatuvchi bunday ohanglarni sevib qolish uchun ularga nimalarni tinglashdan boshlashini maslahat berasiz?

- Men sizga yana-da ko'proq narsani aytaman: ba'zida odamlar nafaqat orkestr musiqasini, balki yaklxon ijrolarni ham tinglashlari qiyin. Masalan, orkestr jo'rigisiz pianino yoki skripka. Ko'p tinglovchilar bunday musiqaga shunchaki o'rganmagan. Va,

ochig'ini aytganda, bu mutlaqo normal holat. Hatto musiqa maktablarida yoki maxsus musiqa o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bolalar ham butun boshli simfonik konsert yoki operaga osonlikcha bardosh bera olmaydilar. Chindan ham bunga asta-sekin ko'nikish kerak. Agar inson ilgari hech qachon klassik musiqani tinglamagan bo'lsa va to'satdan bir yarim soat davom etadigan konsertga kelsa, albatta, u bularning barchasini darhol qabul qilishi qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun men har doim asta-sekin boshlashni maslahat beraman. Mumtoz musiqaning eng mashhur asarlaridan, qayerdadir yangragan va quloqqa tanish bo'lganlaridan boshlagan ma'qul. Masalan, Motsart asarlari, Betxovenning mashhur asarlari, Shopenning juda chiroyli va ohangdor pyesalari. Bu kompozitorlarning musiqasi ko'pincha tayyorgarligi bo'lmagan tinglovchi tomonidan ham oson qabul qilinadi.

Shunchaki qidiruvni ochib, "eng mashhur klassik asarlar"ni terish, ularni tinglash va ular haqida ozgina o'qish mumkin. Masalan, Betxovenning "Oy sonatasi"ni, Chaykovskiyning "Yil fasllari" turkumini, ayniqsa, "Oktabr" pyesasini deyarli hamma biladi, ko'pchilik Vivaldining "Yil fasllari"ini yoki Baxning organ musiqasini eshitgan. Inson bu musiqa bilan asta-sekin tanisha boshlasa, bastakorlar haqida o'qisa, asarlar qaysi davrda yaratilgani va muallif nima demoqchi bo'lganini tushunsa, qiziqish asta-sekin o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan tinglovchi musiqani chuqurroq idrok eta boshlaydi va undan haqiqiy zavq oladi.



- O'tgan yili "Mohir forte-pianochi" tanlovida sovrindor bo'libsiz, kech bo'lsa-da, tabriklayman! Ijodiy faoliyatingiz davomida mustaqil tarzda kuylar ham bastalaysizmi?

- Tabrik uchun katta rahmat! Men uchun bu tanlov haqiqatan ham juda muhim edi. Bu men uchun yangi turtki bo'ldi. Bunga-chi ancha katta tanaffus bo'lgan: deyarli o'n oy sahnaga chiqmaganman. Pedagogik faoliyat va ilmiy ishlarga butunlay sho'ng'ib ketdim, chunki hozir doktoranturada o'qiyapman va dissertatsiyamni yakunlayapman. Shu sababli men cholg'u bilan shug'ullanishga juda kam vaqt ajratadigan bo'ldim. Aynan shu tanlov men uchun yana shiddatli mehnatga qaytish uchun kuchli turtki bo'ldi. Ancha qisqa vaqt ichida ikki tur uchun katta, jiddiy dastur tayyorlashga to'g'ri keldi. Bu oson bo'lmagan, ammo men uchun juda muhim bosqich edi va munosib ishtirok eta olgan- imdan xursandman.

Musiqa bastalash masalasiga kelsak, bu yerda bastakor va ijrochi o'rtasidagi farqni biroz tushuntirish muhimdir. Kompozitorlar musiqiy asarlar yaratuvchi, musiqa yozuvchi kishilardir. Ijrochilar esa - pianinochilar, skripkachilar, xonandalar bu asar-

## Pianinochilarni nimalar qiynaydi?

larni talqin qilish va sahnada tinglovchiga yetkazish bilan shug'ullanadilar. Ba'zida, albatta, bu ikki rolni birlashtirgan musiqachilar ham bo'ladi, lekin bu istisnoga yaqinroq. Ko'pincha ijrochilar aynan mavjud musiqani talqin qilish, uni chuqur anglash va tinglovchiga yetkazishga e'tibor qaratadilar. Men birinchi navbatda ijrochi va pedagogman, shuning uchun mening vazifam buyuk bastakorlarning asarlarini ochib berish va bu musiqani ommaga va o'z shogirdlarimga yetkazishdir.

**- Har bir sohada murakkablik va qiyinchiliklar bo'ladi. Musiqachilarni, xususan, fortepianochilarni nimalar qiynaydi?**

- Men har qanday kasbda ham qiyinchiliklar bo'lishiga mutlaqo qo'shilaman. Pianinotchilarda ular ko'p jihatdan sportchilarning qiyinchiliklariga o'xshaydi. Biz ham doimo formada bo'lishimiz kerak: muntazam shug'ullanish, barmoqlarni mashq qildirish, texnikani qo'llab-quvvatlash. Agar siz katta tanaffus qilsangiz, shakl juda tez yo'qoladi, ishonch, moslashuvchanlik, tezlik, tovushning nozikligi yo'qoladi. Kasbimizning yana bir xususiyati bor. Forteplano birga olib yurib bo'lmaydigan katta asbob. Masalan, skripkachi cholg'uni o'zi bilan olib yurishi va deyarli har qanday joyda mashg'ulot o'tkazishi mumkin, pianinotchining ijrosi esa doimo cholg'uning mavjudligiga bog'liq. Buning ustiga uning yaxshi yoki yomonligi muhim emas. Biz turlicha chalamiz va moslashishimiz kerak. Ba'zida bu haqiqatan ham mashg'ulotlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari,

forteplano o'z tabiatiga ko'ra juda murakkab cholg'u hisoblanadi. Pianinochi ikki qo'l bilan, ko'pincha ko'p ovozli musiqa chaladi, bunda har bir chiziq o'zining mustaqil ohangiga ega. Ko'pincha bir qo'l bir kalitda, ikkinchi qo'l esa boshqa kalitda chaladi va boshlang'ich o'quvchilar uchun bularning barchasini bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirish oson bo'lmaydi. Lekin pianinotchining qiyinchiliklari faqat texnika bilan chegaralanib qolmaydi. Musiqachi doimo intellektual va madaniy jihatdan rivojlanib borishi kerak. Asarni tushunish juda muhim: u yozilgan davrni, bastakorning xarakterini, tarixiy kontekstni bilish.

Shundagina muallif aytmoqchi bo'lgan gapni to'g'ri ifodalash mumkin. Shuning uchun men musiqachilar umr bo'yi o'rganadi, deb ko'p aytaman. Agar siz haqiqiy professional bo'lishni istasangiz, doimo o'zingiz uchun yangi narsalarni kashf etishga tayyor bo'lishingiz kerak - tinglash, o'qish, tahlil qilish, musiqadan yangi ma'nolar izlash. 70 yoshga kirganda ham musiqachi rivojlanishda va o'rganishda davom etadi.

## **Birinchi prezidenti ishtirok etgan tadbirda so'zga chiqqanman**



- Talabalik yillaringizning qanday yorqin damlari borki, yana bir bor o'sha lahzalarni yashagan bo'lar edingiz?

- Talabalik yillarim juda iliq va baxtli o'tdi, bu ko'p jihatdan kursdoshlarim tufayli. Bizda juda ahil guruh bor edi: yigitlar respublikamizning turli shaharlaridan bo'lib, har birining o'z madaniyati, urf-odatlarini bor edi va bu bizning muloqotimizni yana-da qiziqarli qildi. Qizig'i shundaki, men Yevropa guruhida o'qishim kerak bo'lsa-da, milliy guruhga tushib qoldim. Bu kichik bir rasmiy xato tufayli sodir bo'ldi, imtihonsiz o'qishga kirganim uchun meni milliy oqimga familiyam bo'yicha taqsimlashdi. Ammo oxir-oqibat men bundan faqat xursandman. Men rus tilidagi maktabda o'qiganman va uzoq vaqt davomida rus tilida ta'lim olganman, shuning uchun o'zbek tilidagi ba'zi maxsus fanlarni dastlab tushunish qiyin edi. Mana shu yerda kursdoshlarim juda katta yordam ko'rsatishdi. Ular har doim yordam berishdi, tarjima qilishdi, tushuntirishdi, savollarimga sabr bilan javob berishdi. Biror narsani qayta so'rasam yoki noto'g'ri gapirsam, hech qachon kulishmasdi. Ikkinchi kursda Yevropa guruhiga o'tish imkoniyati bor edi, lekin buni xohlamadim. Bu odamlar orasida o'zimni shunchalik qulay va iliq his qildimki, shunchaki ketgim kelmadi. Bundan tashqari, ba'zan o'qituvchilar hammaga qulay bo'lishi uchun darslarni bir vaqtning o'zida ikki tilda olib borishga harakat qilishgan. Bu juda ta'sirli edi va barchamizga bir-birimizni yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Eng yorqin lahzalar haqida gapiradigan bo'lsak, ular juda ko'p edi. Masalan, men talabaligimdayoq O'zbekistonning birinchi prezidenti ishtirok etgan tadbirda so'zga chiqish sharafiga muayassar bo'lganman. U bilan suhbatlashishga muvaffaq bo'ldim. Bu, albatta, eng muhim xotiralardan biri bo'lib qoldi.

Ammo rasmiy tadbirlardan tashqari oddiy, juda iliq talabalik onlari ham bo'ldi. Biz ko'pincha yotoqxonada butun guruh bo'lib to'planardik, osh damlardik, bayramlarni nishonlardik, ko'p suhbatlashardik. Bu uchrashuvlar bizni juda yaqin insonlarga aylantirdi. Bunday qo'llab-quvvatlash muhiti tufayli biz imtihonlar va sessiyalarni osonroq topshirardik, bir-birimizga yordam berardik. Ishonchim komilki, talabalik davrida atrof-muhit katta rol o'ynaydi. Bunday odamlar yoningizda bo'lsa, o'qish nafaqat hayotning mas'uliyatli bosqichiga, balki haqiqiy do'stlik va iliq xotiralar davriga aylanadi. Va agar menga o'sha yillarni yana o'sha guruh bilan yashashni taklif qilishsa, bajonidil rozi bo'lardim.

- Bugun talabalarga ustozlik qilyapsiz, ular bilan ishlash qanchalik zavqli? Sizga shu zavq yetarlimi?

- Talabalar bilan ishlash menga katta zavq bag'ishlaydi. Ehtimol, vaqt o'tishi bilan o'z bilim va tajribangni musiqachilarning keyingi avlodiga yetkazish mumkin bo'lgan lahzani alohida qadrlay boshlarsan. Talabaniqning asta-sekin o'sib borayotganini, ilgari juda murakkab tuyulgan narsalarga erisha boshlaganini, musiqani chuqurroq his qila boshlaganini ko'rsangiz, bu haqiqatan ham juda ilhomlantiradi. Ba'zan o'z muvaffaqiyatingdan ko'ra ularning muvaffaqiyatidan ko'proq quvonasan. Albatta, pedagogik ish katta g'ayratni talab qiladi. Bu ham sabr-toqat, ham e'tibor, ham har bir o'quvchiga yondashuvni topa bilishdir. Axir, har bir talaba o'z xarakteri, o'z rivojlanish sur'ati va musiqani tushunishi bilan alohida shaxsdir.

Siz shunchaki texnikani o'rgatmaysiz yoki asarlarni o'rganmaysiz, insonga ochilishga, musiqani eshitishni, uni tushunish va his qilishni o'rganishga yordam berishga harakat qilasiz. Men uchun pedagogika va ijrochilik bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Sahna menga talabalarga o'rgatishim mumkin bo'lgan energiya va tajriba beradi, talabalar bilan ishlash esa, o'z navbatida, meni chalish va rivojlanishda davom etishga ilhomlantiradi.





### – Jurnalimiz mushtariylariga tilaklaringiz...

– Avvalo, barcha o'quvchilarga o'zlarida ezgulik, samimiylilik va orzulariga ishonchni saqlab qolishlarini tilab qolaman. Haqiqatan ham orzu qilgan narsangizga erishishdan qo'rqmaslik va qoralaydigan yoki shubha qiladiganlarga qaramaslik juda muhim. Orzu qilgan narsangizni sinab ko'rganingiz va amalga oshirganingiz ma'qul, keyinchalik jur'at eta olmaganingiz uchun bir umr afsuslanishdan ko'ra. Agar insonda musiqa, raqs, rasm, fan, mashinasozlik yoki boshqa biror soha bilan shug'ullanish istagi bo'lsa, albatta sinab ko'rish kerak. O'zingizni izlash, qobiliyatlaringizni rivojlantirish va xatolardan qo'rqmaslik.

O'qituvchim bolaligimda menga ko'pincha bir oddiy, ammo juda dono iborani aytardi: "It hurar – karvon o'tar". Va men hayotimda bu qanchalik to'g'ri ekanligiga ko'p marta amin bo'lganman. Shuningdek, barchangizga hech qachon rivojlanishda to'xtab qolmaslikni tilab qolaman. Yangi narsalarni o'rganing, dunyoga qiziqing, o'zingiz uchun yangi bilimlarni kashf eting. Inson doimo rivojlanib borsa, uning hayoti ancha qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan o'z-o'zini rivojlantirish qanchalik muhimligini o'zim tushunib yetdim. Busiz inson o'z ko'nikma va imkoni-


## Hayotga muhabbatni asrab avaylang!

yatlarini asta-sekin yo'qotib boradi. Va, albatta, men barchaga ichki iliqlik, ilhom va hayotga bo'lgan muhabbatni asrab-avaylashingizni tilayman. Inson ochiq ko'ngil bilan yashar ekan, u albatta dunyodan go'zallik topadi. Bu musiqa, san'at yoki shunchaki yonidagi mehribon insonlar bo'lishi mumkin. Barcha talabalarga o'z orzulari sari dadil borishlarini, o'zlariga ishonishlarini va hayotlarini quvonch va ilhom keltiradigan narsalar bilan to'ldirishlarini chin dildan tilayman.

**Otash YASHIN gurunglashdi**

11-Qishki Olimpiada o'yinlarida Predazzo chang'i sporti stadionida bo'lib o'tgan o'yinlarning 10-kunida shveysariyalik Gregor Deschwandenning sakrashining noyob tasviri. Muallif: Getty Images/Tobias Shvarz

Ramazon oyining ilk kunida ko'rinish bergan hilol. Toshkent. Muallif: Muhammadjon G'aniyev



Falastinlik bola Ramazon oyida Isroil hujumi sabab vayron bo'lgan turar-joy binolari xarobalari orasida po'lat-jun uchqunlarini aylantirmoqda. Muallif: Reuters/Mahmoud Issa

Italiyaning Val di Fiemme shahridagi Predazzo chang'i sakrash stadionida o'tkazilgan o'yinlarning beshinchi kunida chang'i sakrash bo'yicha sinov bosqichida Fransiya terma jamoasi a'zosi Marko Xaynisning havodagi parvozi. Muallif: Getty Images/Aleks Pantling

# ANI

## tutib qol,

Toshkentdagi "Rakat" masjidida ilk taroveh namozini o'qiyotgan jamoatning bir qismi.

Muallif: Gazeta.uz/  
Shohruh Haydarov

Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlariga amaliy tashrifini yakunlab, Toshkentga uchib ketmoqda.

Manba: Prezident matbuot xizmati



Texaslik demokrat vakil Al Grin AQSh prezidenti Donald Trampning Qo'shma Shtatlar Kapitoliysida Kongressning qo'shma majlisida nutq so'zlashidan oldin norozilik bildirmoqda: "Qora tanlilar maymun emas!"

Muallif: Reuters/  
Kenny Holston



4 yoshli Shanum va 5 yoshli Annisa Indoneziyaning G'arbiy Yava provinsiyasi, Bogor regentsiyasi, Sibinong sport zalida Muhammad payg'ambarning artefaktlari ko'rgazmasi paytida Payg'ambar masjidi ("Masjid an-Nabaviy")da ishlatilgan gilamga qo'llarini qo'yishmoqda.

Muallif: Reuters/Ajeng Dinar Ulfiana

# yashab o'tlahzani...

Lashkarak qishlog'i tog'lari bag'rida sayr qilib yurgan bolakaylar. Toshkent viloyati Angren shahri.  
Muallif: Kun.uz/Sarvar Ziyayev



Rossiyaning Ukrainaga hujumi paytida Zaporozhye shahridagi Rossiya dron hujumi natijasida zarar ko'rgan ko'p qavatli uydagi kvartirasining derazasidan singan oynalarni olib tashlayotgan ayol.  
Muallif: Reuters/Stringer



Kunlab davom etgan kuchli yog'ingarchilik oqibatida toshib oqayotgan Garonne daryosi yaqinidagi yerlar suv ostida qoldi.  
Fransiya.  
Muallif: Getty Images/Kristofe Archambault



Falastinlik Nosir oilasi Bureyj qochqinlar lageridagi Abu Hilveh maktabi vayronalari orasida iftorlik qilmoqda.  
Muallif: Getty Images/Moiz Salhi



Milan moda haftaligi davomida Diesel ko'rgazmasida model podiumda ketmoqda.  
Muallif: Getty Images/Migel Medina

Yaponiyaning Ichikava shahar hayvonot bog'ida yashovchi Panch laqabli makaka bolasi o'yinchoq orangutan bilan do'stlashib oldi. Getty Images/David Mareuil



AQShning shimoli-sharqida millionlab odamlar uylarida qolib ketishdi, kuchli shamol va qor yog'ishi natijasida hududda reyslar to'xtatildi va yuz minglab odamlar elektrsiz qoldi. Nyu York.

Muallif: Shutterstock/Suzan Stava



Nyu-York shahridagi Markaziy bog'da shom mahali oq ayiqning qor haykali yastanib yotibdi.

Muallif: Reuters/Adam Gray



Ramon Gonsales Coro tug'ruqxonasida shifokorlar tug'ruqqa yordam berishmoqda. Kuba inqirozida. To'rt yillik iqtisodiy tanazzuldan, giperinflyatsiya va aholining qariyb 20 foizining migratsiyasi tufayli og'irlashgan 67 yoshli kommunistik hukumat eng zaif nuqtasida.

Muallif: AP/Ramon Espinosa



Sudanlik qochqinlar Sudandan kelganidan keyin Oure Cassoni qochqinlar lagerida ro'yxatdan o'tish hujjatlarini kutmoqda. Chad.

Muallif: Getty Images/Dan Kitvud





## Ziyorat

Ancha o'zgaribdi men o'sgan qishloq,  
Yillar savalabdi odamlarini.  
Daryo bo'yidagi yastangan qumloq  
Bag'ridan shilibdi qadamlarimni.

Maktabdosh jo'ralar ulg'ayib endi  
Maktabga yetaklar bolalarini.  
Qirlarda qulunday yugurgan yoshlik  
Opichlab ketibdi volalarimni.

Bobomning bog'lari hosilga kirib  
Mag'rur boshlarini egibdi mulzam.  
Men bilgan chollarning ko'plari ketib,  
Notanish yoshlarga qolibdi bog' ham.

# Ko'nglim osmon

## Yolg'iz daraxt soneti

Chilvirday cho'zilgan sim-siyoh yo'llar:  
Quzg'unlar sang'iydi tevaragida.  
Tog'larning to'shiga tutashgan cho'llar:  
Barxanlar to'zg'iydi kun kuragida.

Sahroning qalbidan o'tgan yo'l bo'yi:  
Keksa daraxt o'sar yolg'iz shumshayib.  
Dunyoni kuzatar tikilgan ko'yi,  
Bulutni ko'rganda qo'yar tamshanib!

Chanqoqda yashaydi butun yoz bo'yi,  
Kuzakda to'yajak obirahmatga.  
Orzusi o'shadir - yolg'izdir o'yi.

Bir kuni yetajak, balki, niyatga.  
Taqdir sahrosida daydigan yellar  
To'zg'itib ketmasa abadiyatga ...

Abdulla MUHAMMAD – 1998-yil Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida tug'ilgan. O'ZJOKU magistranti. Respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy Zomin seminari (2025) ishtirokchisi. "Chizgi" nomli ilk she'riy to'plami O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida nashr etilgan.




## Osmon qizi

Mening ko'nglim osmon qizida,  
Omonatga bergandim uni!  
Qaytib olmoq yodimdan chiqdi,  
Yoki o'zim istadim shuni?

Mening ko'nglim osmon qizida,  
Yerga tushmay qo'ydi chamasi?  
Bir yo'l qoldi yurgan izidan,  
Unut bo'ldi qolgan hammasi.

Mening ko'nglim osmon qizida,  
Yer qiziga tushmog'i gumon!  
Ixtiyori har on o'zida,  
Osmonlardan enmaydi hamon!

Mening ko'nglim osmon qizida,  
Omonatga olgandi uni!  
Qaytib bermoq yodidan chiqdi,  
Yoki o'zi istadi shuni?



# qizida...

## Hamal zavqi

Qoyatoshga urilgan, ey, sellarning shovqini,  
Hamalda loy kechmagan bilarmi ko'k zavqini?  
Jilmayganicha yig'lagan osmon erur ko'kayim,  
O'ynoqlagan qulunday surar ko'klam gashтини!

Bodomchaga ilingan tivit yanglig' hislarim  
Momoqaymoq singari to'zg'ib ketar shamolda.  
Va andizning isiga to'yib olgan dimog'im  
Mast bo'ladi maysalar shudring ichgan saharda.

Ko'zlarimdan ichkari tasvirini muhrlar  
Zumrad yoqqan qirlarning chiroyini qorachiq.  
Yosh-navnihol tuyg'ular asov toydek gijinglar,  
Ko'pkariga qo'shilgan arg'umoqday qantariq.

## Kechinma

Sukunatga suyakalib yashashdan toldi ruhim,  
Vujudimda g'alayon ko'tarilib nogahon,  
Bo'ronday bo'y ko'rsatib, havolandi anduhim,  
Sabr kosam yorilib, chil-chil bo'ldi tanda jon!

Parvoz qilib samoga oymomoni quchgim bor,  
Hut, hamalning loyini oyoqyalang kechgim bor!  
Okeanning qa'ridan suv parisin axtarib,  
Everestning uchida burgut bo'lib uchgim bor!

Odanzoddan olisga shamol meni eltsaydi,  
Madaniyat kishanin parcha-parcha etsaydi.  
Qalb qo'rim og'rimasdan, torlari zanglamasdan  
Tashvish otli mavhumot pardek to'zg'ib ketsaydi.

Alalxusus ro'yo chin, chin ro'yoga aylanib,  
Sahar salqin saboda esib o'tsa shabboda,  
Bir olam yaratsaydim, o'z o'zim-la qolsaydim,  
Kimsa ko'rmas dunyoda ko'nglimdan-da pinhona

bir olam yaratsaydim, o'z o'zim-la qolsaydim...


# "SSENARIYSIZ",

# FILM



**F**ilm janrlari orasida hujjatli film yo'nalishi bor. Bunda tomoshabinga mavjud ma'lumotlar va faktlar boricha, bir yoqlama yondashmagan holda namoyish qilinadi. Yana bir jihat borki, faktlarsiz, jarayonni boricha ko'rsatish, ortiqcha ekshnlardan holi kartinalar ham hujjatli filmga tortib ketadi. Eron kinorejissyori Jafar Panahining ayrim badiiy filmlari tomoshabinda ana shu tushunchani keltirib chiqaradi: bu aslida rejada bor edimi yoki qahramon rejissyor va butun boshli tasvirga olish jamoasini boshqardimi?

Eronning ko'zga ko'ringan, betakror kinorejissyorlaridan biri bo'lmish Jafar Panahi 1997-yilda "Oyina" (ing. "The Mirror") nomli filmni suratga oladi. Kartinani qisman hujjatli filmga xos, eksperimental drama deb atash mumkin. Nega? Film boshida hammasi tushunarli - 1-sinf o'quvchisi Mino ismli qizchani maktabdagi darsi tugagandan keyin onasi olib ketishi kerak edi, biroq u kelmaydi. Ona kelavermagach Mino o'zi uyga yetib olishga qaror qiladi. Biroq u aniq manzilni bilmaydi. Qo'li gipslangan, sumkasini bazo'r ko'tarib olgan Mino avvaliga noto'g'ri yo'nalishdagi avtobusga chiqadi. Avtobus konduktorining qo'pol harakatidan keyin qiz birdaniga "Men boshqa rol o'ynamayman!" deb qichqirib yuboradi va qo'lidagi gipsni yechib uloqtiradi. Mana shu yerga kelib "burilish sahnasi" boshlanadi. Panahi operatorga "kadrni uz" buyrug'ini beradi va Minoning oldiga kelib, "Mino xonim, nima bo'ldi senga?" deb uni yupatmoqchi bo'ladi. Qarabsizki, shu vaqtning o'zida bu jarayon ham qo'shimcha kamerada tasvirga olinaveradi. Ziyrak tomoshabin buni darhol his qiladi.



## **Qahramon rejissyorni boshqaradimi?**

E'tiborni tortuvchi chinqiriq va rejissyorning filmda paydo bo'lishiga aldanganlar esa endi nima bo'ladi, deb o'z-o'ziga savol beradi. Nazarimda, bu juda puxta o'ylangan ssenariy va murakkab rejissura. Keyin Mino tasvirga olish ishlarini "buzib", avtobusni tark etadi. Biroq unda mikrofon qolib ketadi. Bu ham sirni fosh qiladigan bir unsur desak bo'ladi. Operatorlar Panahidan endi nima qilamiz, deb so'raganda, rejissyor "qizning ovozi eshitilyaptimi, tasvirga olishda davom etamiz, qani, u nima qilarkan, ortidan yuramiz" deydi. Jamoa qizning ortidan mashinada ergashadi. Qiz filmda yig'lab rol ijro etgani uchun sinfdoshlari uning ustidan kulishini vaj qilib, uyiga ketishga qaror qiladi. Biroq u rostan ham uyiga qanday borishni bilmaydi. Minoning mikrofonidan kelayotgan uzuq-yuluq ovozlari, qimirlab borayotgan kamera tasvirlari endi sizni rosmana ishontira boshlaydi. Qizcha uzoqlashganda ovoznining uzilishi ham sizni juda diqqat qilib yuboradi.


Tomoshabinni aldaydigan yana bir ilmoq bu - avtobusda qiz bilan gaplashgan ayolning "burilish sahnasi"dan keyin ham Minoga "men rol o'ynamayotgan edim, senga aytganlarim o'zinning hayotimdagi voqealar, menga ozroq pul berib, avtobusda aylantirib kelishlarini aytishgandi, deydi ko'chada. Bu ham tomoshabinni ikkilantirishga xizmat qiladi.



**THE MIRROR**

Mino uyiga yetib olish uchun ko'chada avtobus haydovchilari, taksistlardan yordam so'raydi, uyi Firuzi xiyoboniga yaqinligi, u yerda fontan va ko'p daraxtlar borligini aytadi. Odamlar unga maksimal yordam berishga harakat qiladi. Uyga yetib olishda qiynalgani tomoshabinni Minoga qayg'urish hissini bermay qolmaydi. Tasvirlar yaqqol jonli, pastanovka deyarli sezilmaydi, uzun-uzun kadrlar shunaqa mahorat bilan ulanganiki, oradagi uzilishlar sezilmay qoladi.

Ha, Mino filmda rol o'ynashni istamadi, rejissyor yosh ijrochining oldida ojiz qoldi, biroq tasvirga olish jamoasi uning ketidan qolmadi. Hammasi qizcha istagandek tugadi – u uyiga yolg'iz o'zi yetib bordi. Film tugadi! Bo'ldimi? Shugina ishi bilan Jafar Panahi Lokarno film festivalining nufuzli Oltin Leopard mukofotiga loyiq ko'rildimi? O'zi ma'no nima?



Yuzaki qaraganda kartina bunga arziymasdek tuyuladi, biroq kino ichidagi kino yashirinmalari uning kuchini karrasiga oshiradi. Film nomi – “Oyina”, bu umumiy ma'noga xizmat qiladi. U hayotni aks ettiradi. Bolaning qarori bu – erkinlik ramzi. Tasvirga olishda qat'iy qoidalar va amal qilinadigan ssenariydan bosh tortish va bundan ozod bo'lish – erkinlikka intilish. Bunda bola – jamiyatdagi oddiy odam, rejissyor – nazorat qiluvchi tizim. Yakunda erkinlik yutadi. Kameraning uzilmasligi hayotning davom etishini anglatadi.

Panahi nega bunday yo'l tutdi? Avval seni ishontiradi, bu oddiy film. Keyin fikringni buzadi: bu film emas ekan. Oxirida o'ylantiradi – unda nima real edi?

Eron ochiq so'zga juda yopiq mamlakat. Haqiqatni oshkor qilishga esa ko'proq san'at ustalarining, asosan, filmchilarning jur'ati yetadi. Biroq bu oson kechmagan. Masalan, Jafar Panahi Erondagi to'ntarishlarda faol ishtirok etib, ularni tasvirga olgani uchun unga hukumat tomonidan qonuniy jazo

## Film san'at orqali erkinlik haqida bayonot edi

berilgan. Uy qamog'i va yigirma yil davomida film suratga olmaslik jazosi. Biroq rejissyor bunga ko'nmadi, uy qamog'idalgida ham o'nlab filmlarni suratga oldi. O'ziga “choh qazimaslik” uchun filmlaridan biriga “Bu film emas” deb nom beradi. Ha, ko'rinishidan u filmga o'xshamaydi. Uy qamog'ida o'tirgani, kimlar bilandir telefonda suhbatlashgani, hamkasbi bilan yana bir film ssenariysi ustida ishlayotgani va o'zi yashaydigan ko'p qavatli uyda chiqindi yig'uvchi yigit bilan suhbatlarini tasvirga

## Hukumat xalqning ishonchini qadrlashi zarur!

olib, yaxlit film hosil qiladi. Lekin uning ko'plab festivallarda namoyish etilib, tanqidchilarning-da e'tirofiga sazovor bo'lishi qiziq, albatta. Nega deganda, bu film san'at orqali erkinlik haqida bayonot edi. Panahining tutqunlikda ham so'nib qolmagani, ushbu ishini yashirincha USB flesh-xotira orqali nufuzli kino festivallariga yubora olgani, aslida, katta jasorat edi. Filmni tomosha qilar ekansiz, rejissyorning mahoratiga tahsin aytishingiz aniq. Panahi filmida o'zining vaziyatini "Oyina"dagi Minonikidek bir xil ekanligi va qizcha kabi "gips"ni yechib tashlashi zarurligini aytadi.

Erondagi tuzum oddiy odamlarga qattiqo'lligi sabab, yillarki ularni erkinlikdan chekladi va bot-bot norozilik namoyishlari, to'ntarishlar bilan jahonda yaxshi nom topmadi. Bugun esa vaziyat tomoman boshqacha. Eron o'z sarhadlari, xalqi va hatto mazlum falastinliklar uchun ikki katta ajdaho bilan kurashmoqda. Fors xalqining o'z rahbarlariga ishonch bildirishi, qo'llab-quvvatlashi dushman



tomonni dovdiratib qo'ydi, ular bu holni kutmagan edilar. Nazarimda, Eron hukumati bunday ishonchni nihoyatda qadrlashi zarur! Eng muhimi, chetdan kimdir kelib demokratiya sovg'a qilmasligi, aksincha, milliy boyliklarini o'zlashtirishini tushunib yetdi-ku bu xalq! Agarda hukumat bor kuchini yadroviy qurollargagina emas, xalqning ko'nglini olishga ham safarbar qilganida, balki bugungi urushlar bo'lmasmidi!? Biroq bu ham tentak dushmanning hiylasidan qutulishni anglatmaydi.

Istardikki, urushlar bitsin, zulm ildizi qirqilsin! Haqso'zlarning erkinlikka intila-intila, bir kuni portlab ketmasligi uchun hukumatlar mana shu oddiy xalqsiz hech narsa emasliklarini anglab yetsin!

**Otabek  
TURDIYEV**



# SAMIMIYAT IARHATST





**O**ramizda shunday samimiy insonlari borki, ularni ko'rib, yu-  
zingga beixtiyor tabassum, qalbingga iliqlik ingandek bo'ladi.  
G'ala-g'ovur dunyoni unutasan-u ularning yonidan jilmaysan.  
Ko'proq gaplashgng keladi, nimalarnidir o'rganasan ham.

Pirnazar aka! Juda yaxshi insonsiz! Buni o'zingizga aytmadim hali.  
Balki sizga ko'p aytishgandir yoki yo'q. Chunki sizning haddan ortiq  
samimiyligingiz boshqalarga erish tuyuladi, menimcha. Bolalarcha  
munosabatingizni hamma ham tushunavermaydi axir. E-e-e, Pirnazar  
aka, nimaga bunaqasiz-a? Kim nima desa desin, boshqalarga o'xshab  
yashamaganingiz yagona aybingiz bo'lsa kerak. Shularni o'ylab bugun  
yana bir bor siz haqingizda qoralagim keldi.

## **“Odambashara bo‘lib kiyilib yurmay- sanmi?”**

Qarshi tumani Chorbog‘ Boyg‘undi qishlog‘ida 20 yildan beri odamlarga ham yaxshi kundan, ham yomon kundan xabar berib keladigan bir jarchi bor – Pirnazar Bekniyozov. Jarchilik unga hamqishlog‘i rahmatli Eshonqul bobodan meros. O‘zi bu kasb qachondan beri bor, bilmadim-u, lekin hozirgacha saqlanib qolgani ham durust. Shu sababdan Pirnazar aka bilan tanishib qoldim-da. Ishim sabab jarchi topishim kerak bo‘ldi. Hujjatli film qilmoqchi edik. Kamerani ko‘tarib bordim Pirnazar akaning Qarshisiga. Uyidan topolmadim: qo‘shnisi Alisher akaning hovlisida mardikorlik qilayotgan ekan. Mollariga qarab, kuniga 45 ming so‘m haq olar ekan. Mol-qo‘ylarning go‘ngidan hosil bo‘lgan chalmalarni tashiydi, ho‘kizlarga yem tayyorlaydi, qo‘ylarni boqadi va yana boshqa shunga o‘xshash mayda-chuyda yumushlar.

“Siz kelishingizga bugun faqat syomka bilan band bo‘lishni o‘ylab, ishga chiqmoqchi emas edim. Lekin kampir boravering ishga, deb qo‘ymadi”, – dedi Pirnazar aka hazillashib. Jarchi yurganda biroz qiynaladi, oyoqlarini bazo‘r bosgandek bo‘ladi. Qo‘shnilarning aytishicha, yoshligida, uy qurayotgan paytda tomdan yiqilib tushgan. Biroq bu sinov uning ro‘zg‘orni butlash vazifasidan to‘solmagan. Pirnazar akaning o‘g‘li bor – yaqinda Rossiyada ishlab qaytib kelgan. Asosiy yuk unga tushmasin deb Pirnazar aka 61 yoshida ham tinmayapti.



Jarchining xizmat haqi har xil. Har kim ko‘ngildan chiqarib, degandek, kimdir 15 ming so‘m, kimdir 30-40 ming so‘m ham berishi mumkin. Avvallari muntazam to‘ylarga xabar berib kelgan Pirnazar aka, to‘ylar kam sonli odamlar bilan o‘tishi qat‘iy qilib qo‘yilgandan keyin onda-sonda jarchilik qilishini aytadi. Qolgan

paytlarda xalqni janoza va mahallaning qabristonida hashar bo‘lsa yoki paxta yig‘im-terimiga chorlaydi. Pirnazar akaning aytishicha, qishloqqa baribir jarchi kerak. “Ba‘zi joylarda jarchilarga kam pul bergani uchun ko‘pchiligi Rossiyaga ishga ketib qoldi”, – deydi u o‘z kasbining saqlanib qolishidan umidini uzmay. Odatda, qishloqda sunnat to‘y bo‘lsa, elga osh tarqatayotgan to‘ychi jarchi yollaydi. Ochig‘ini aytsam, o‘sha kuni uyida to‘y bo‘layotgan Navro‘z aka o‘g‘lini uylantirayotgan edi. Shunday bo‘lsa-da, Jarchi haqida film olayotganimizni tushunib, Pirnazar akaning qishloq oralab to‘y haqda jar solishiga rozi bo‘lgandi. Nega desangiz, o‘sha kunlarda aynan Qashqadaryoda bir to‘y egasi 14 qozon osh qilib, jarima to‘lagani ko‘pchilikning damini ichiga tushirgan edi. Shuning uchun ham Navro‘z aka to‘yga ko‘p odam kelishidan qo‘rqib turgandi.

Xullas, tasvirga olishni boshladim. Ko‘ylagiga mikrofonni taqdim, kamerani yoqib izidan ergashdim. Qayerga borsa bordim, o‘tirsam o‘tirdim, tursa turdim. Odatda, kimdir haqida ko‘rsatuv yoki hujjatli film qilinsa, avvaldan ssenariy tuziladi, qanaqa gaplar aytilishi kelishib olinadi va intervyu beruvchilar oldindan kelishiladi. Kamina unafaq yo‘l tutmadim – bu filmda Pirnazar aka rejissyor, Pirnazar aka boshlovchi, Pirnazar aka aktyor edi. Men shunchaki uning kun tartibini suratga oldim, xolos. Ora-orada savol berib turdim ham.


To'y xabari ko'pchilikka eshinishi uchun, odatda, Chorbog' Boyg'undining eng baland qismi – Oltin-tepaga chiqiladi. Shu yerdan turib Pirnazar aka hayqirib yubordi birdan: "Ahli jamoa! Navro'zvoynikiga to'yga-hooooo! Ahli jamoa! Navro'zvoynikiga to'yga-hooooo!"

Ammo bu bilan ish bitmaydi. Hayqiriq hali ko'pchilikning qulog'iga yetib bormadi. Qishloqning qolgan qismiga ham to'y xabarini yetkazish kerak. Buning uchun yo piyoda, yo mashinada bo'lsa ham qishloqni aylanib chiqish kerak. Shu payt Bakir bobo eshak aravasida Pirnazar akaga yo'liqdi va jarchining iltimosiga hech bir istiholasiz ko'ndi. Shunday qilib, xabar berish eshak-arava ustida davom etdi.

To'yga xabar berdik. Shu kuni Pirnazar akaga to'yxonada yana ish bor ekan. Axir u bo'lmasa, samovarni kim qaynatadi? Hozirgi yoshlar betoqat, choy qaynar-qaynamas zumda olov boshidan g'oyib bo'lishadi. To'yxonaga borsak, darvoza oldida samovar tashlab ketishgan ekan, mana, choy qaynatib olinglar, degandek. Pirnazar aka uni bir-ikki bor chayib oldi-da, ichiga suv to'ldirdi. Tagiga olov qo'ydi. Yoshi ulug'ligi hisobigami yo kameradan uyalibmi, qishloqning bo'zbolalari unga yordamlashib turishdi. Ammo shuncha mehnat bekor ketdi – samovar teshik ekan. Attang! Choy qaynatish suv tashiydigan bochkalarga ko'chdi. Alohida o'choq qazishdi, bochkalarni temir bilan tirkab qo'ndirishdi, olov yoqishdi. Xullas,



choysiz to'y bo'lmasligiga hamma amin edi. Shuning uchun ham bu ishlar tez-tez hal bo'ldi. Men esa bir chekkadan hammasini tasvirga olaverdim, Pirnazar akani gapga tutaverdim. Nazarimda, hammasi risoladagidek ketayotgan edi. Bir-ikki dilxiraliklarni hisobga olmasa agar. Masalan, qishloq oqsoqollaridan biri unga yomon dakki berdi: "Nega soqolingni olmading, odambasha bo'lib kiyinib yurmaysanmi?" Hammaning holi o'ziga yarasha, qurbi yetganча harakat qiladi. Birovdan



## Shuning yoniga ham borasizmi? Qishloqda qancha yaxshi odamlar bor!



nimadir talab qilish uchun esa avvalo unga buni ta'minlash zarur. Ayni shu gapni aytgan odam birinchi kun qishloqqa kirib borayotganimda menga uchragan edi. Kimning uyiga borayapsan deb so'raganida, Pirnazar akanikiga desam, shunikiga ham borasizmi, qishloqda qancha yaxshi odamlar bor, deb ta'bimni xira qilgandi. Bir lahzada shuncha yo'l bosib kelganimga afsuslangandek ham bo'ldim, lekin bunaqa fikrlar meni chalg'ita olmasdi, baribir. Chunki Pirnazar aka bilan telefonda suhbatlashganda uning beg'uborligi, odamoxunligi va bolalarcha kulgisi ichimni ancha ravshan qilgandi. Va film uchun qahramon tanlashda adashmaganimni sezgan edim o'shanda. Jarchi yoshligida qo'shiqchi bo'lishni orzu qilgan, lekin uyidagilar "qo'y, nima qilasan?" deb royish bermagan. Shunday bo'lsa-da, suratga olish ishlari davomida 5-6 marta Pirnazar akaning pirnafas xirgoyilaridan tinglab, ancha rohatlandim. Suhbatimiz davomida menga bir kun avval ko'rgan tushini so'zlab berdi: "Tushimda orkestr ichida ekanman. Dirijyor hamma tayyormi dedi-da, menga qarab boshlang dedi. Shundan keyin qo'shiq aytib beribman". Pirnazar aka Toshkentdan odam kelyapti, deya juda ta'sirlangan ekan, endi bilsam.

Ochig'ini aytganda, film oddiy, samimiy va haqqoniy bo'lishini istagan edim. Nazarimda, hammasi aslan qanday bo'lsa, ekranda ham shunday ko'rinsa, hech kim aldanmagan bo'ladi. Lekin bularning hammasini ham eplay olmadim.

## Toshkentdan odam kelyapti. deya juda ta'sirlangan ekan

Masalan, Pirnazar akaning ertalab uyg'onishi, choy ichishi, kiyinishidan tortib, kechga dovor hamma jarayonlarni tasvirga olishni reja qilgandim. Biroq uyida tasvirga olishga uncha ko'nmagani uchun bu reja bekor bo'lgandi. Hatto o'zim istamasam ham choy ichishga taklif qilolmaganidan xijolatligini sezgandim. Bilmadim, film qanday chiqdi, buni, albatta, tomoshabin to'g'ri baholay oladi. (Tomosha qilmoqchi bo'lsangiz, Youtube'da "Jarchi" deb izlasangiz chiqadi)

Hujjatli filmimiz chiqqandan keyin Pirnazar aka telefon qilib, rahmat aytdi. Qarshiga yana borishimni, yaxshilab mehmon qilishini aytdi. Pirnazar aka hali ham tez-tez qo'ng'iroqlar qilib turadi, biroq men ularning hammasiga ham javob berolmayman. O'zimcha, ishlarim boshimdan oshib yotibdi. Javob bergan taqdirimda ham u nima istayotganini tushunolmayman. 3-4 daqiqa u yoq-bu yoqdan so'zlagan bo'ladi, lekin maqsad yo'q. Ha-da, biz shunaqa shaharlashib ketdik va bir og'iz suhbatdan ham maqsadni axtaramiz, nima manfaat ko'zladi ekan bu, deb ichimizda o'ylaveramiz.

Balki Pirnazar aka shunchaki hol so'rab, ko'nglidagilarni bo'shatib olmoqchi, o'ziga yaqin ko'rib, dardlashmoqchidir. Men esa buni tushunmaganman. Uning qo'ng'iroqlari xuddi samimiylilik va mehrdan jar solayotgandek tuyulib ketayapti endi. Axir u jarchi-ku!

**Molli  
IVINS:**

# “KUCHSIZLARNING kuchlilarga qarshi quroli...”

Satira – an’anaviy ravishda  
kuchsizlarning kuchlilarga  
qarshi qurolidir.

\*\*\*

Erkinlik va adolat uchun  
kurashishda davom eting,  
azizlarim, lekin buni zavq  
bilan qilishni ham unutmang.  
Kulgingiz jaranglasin. Jasur  
bo’ling, qo’rqqochalarni  
masxara qiling, erkinlik  
tug’diradigan barcha g’alati  
narsalardan zavqlaning.

\*\*\*

Demokratiya silliq,  
tartibli yoki sokin emas. U  
chalkashlikdan zavq olish  
qobiliyatini talab qiladi.

\*\*\*

Rush Limbaugh meni efirda  
tanqid qilgan – bu xuddi bir  
qurbaqasimon jonzot tishsiz  
jag’i bilan “g’ajiyotgandek”  
hissiyot: og’rimaydi, lekin  
oyog’ingga shilimshiq narsa  
yopishgandek bo’ladi.

\*\*\*

Menimcha, jaholat – barcha  
yovuzliklarning ildizi. Va hech  
kim to’liq haqiqatni bilmaydi.

\*\*\*

Aslida, bugungi jamiyatda  
qurolni oqlaydigan mantiqiy  
dalil yo’q. Bu endi odamlar ov  
qilib yashaydigan chegaraviy  
mamlakat emas. Bu gavjum,  
asosan shaharli jamiyat, bu  
yerdagi qurol ishlatishga erkinlik  
berish – doimiy falokat.

\*\*\*

Ko’p bora erkinlik ortga  
surilgan – va har safar bir xil  
sabab bilan: qo’rquv.

\*\*\*

Urush vatanparvar bezorilarni  
yuzaga chiqaradi. Birinchi  
jahon urushida odamlar  
“nemis itlari” deb jajjigina  
taksalarni tepishgan, lekin  
negadir nemislarning kuchli  
va qopag’on cho’pon itlariga  
tegishmagan.

\*\*\*


Tarixda qiynoqlar ko’p  
qo’llangan – lekin hech qanday  
samara bermagan.

\*\*\*

AQShda ayollar yuqori  
lavozimlarga tayinlanmoqda  
va yoqimli shiorlar ortida  
hokimiyat ularga qarshi  
siyosat yuritmoqda.

\*\*\*

Texas qonun chiqaruvchi  
organi atrofida aytilganidek,  
agar siz ularning viskisini  
icholmasangiz, ayollarini  
yo’ldan ozdirolmasangiz, pulini  
ola olmasangiz va ularga  
qarshi ovoz bera olmasangiz  
– siz bu lavozimga loyiq  
emassiz.



\* \* \*

*Siz qanchalik xohlasangiz ham, siyosatni e'tiborsiz qoldirolmaysiz.*

\* \* \*

*Butun umr siyosat va jurnalistikada optimist bo'ldim. Qariyapman-u, ammo "quvnoq kampir"ga aylanolmayapman.*

\* \* \*

*Texas juda katta — u yerda aslida beshta butunlay boshqa dunyo bor: geografiya, madaniyat, iqlim — hammasi boshqacha.*

*Kimningdir siyosatiga qarshi chiqib, uni yomon ko'rmaslik mumkin. Kattalar shunday qiladi.*

\* \* \*

*Qurollar o'ldiradi. Mashinalardan farqli ravishda, ular aynan shuning uchun yaratilgan.*

\* \* \*

*Siyosiy tizimni isloh qilishimiz kerak, aks holda demokratiyani yo'qotamiz. Bu raketachilik ilmi emas — ilgari ham uddalaganmiz.*

\* \* \*

*Kambag'allarni ayblash oson — ular qudratli amaldorlar kabi bizga muammo tug'dirmaydi. Lekin yomon tomoni, ular zavodlarni yopib qo'yolmaydi.*



\* \* \*

*Men an'anaviy jurnalistikadan charchadim — juda cheklangan edi.*

\* \* \*

*Biz saylangan amaldorlar ustidan ko'proq kulishimiz kerak. Bu kulayotganlar va kulinayotganlar uchun ham yaxshi.*

\* \* \*

*Hayotning "sehrli kosasi" doimo to'lib-toshishga yaqin jilvalanadi.*

\* \* \*

*Angliyada yaxshi fazilatlar uchun ko'rsatiladigan yagona hurmat — bu ikkiyuzlamachilik.*

\* \* \*

*Fikrlar o'zgarishi uchun yaratilgan — aks holda haqiqatga qanday yetamiz? Do'zax qo'rquvi*

*shunchalik ko'p shaytonga ergashuvchilarni yaratadiki, xuddi qonunlar jinoyatchilarni yaratgani kabi.*

\* \* \*

*Ba'zan sevgan insonlarimizning yolg'oniga ishonib yashash, haqiqatni bilishdan ko'ra yengilroq.*

\* \* \*

*Odamlar tez ko'tarilganlarni hurmat qiladi — lekin chang, somon va patlar undan ham tez ko'tariladi.*

*Men o'z niyatlarimdan ham kam narsaga ishonaman.*

\*\*\*

*Bir oz paranoya – bir oz homiladorlikka o'xshaydi: vaqt o'tgan sayin kuchayadi.*

\*\*\*

*Qiziq tomoni shuki, men doimo optimist bo'lganman – bu xuddi tug'ma “kasallik”dek men bilan birga.*

\*\*\*

*Men farzand ko'rmadim, shuning uchun barcha kelajakdagi erkinlik jangchilarini o'z bolalarim deb bilaman.  
Barcha fantaziyalarimda, men o'zimni turmushga chiqib, olti farzand ko'raman deb tasavvur qilardim.*

\*\*\*

*Biz liberallar ham ba'zan insoniyatga nisbatan mehr va sadoqatni unutamiz.*



*Bloglar olamining xavfi – faqat o'zing rozi bo'lganlarni o'qish.*

\*\*\*

*Boylar bilan qolganlar orasidagi tafovut saraton kabi o'sayotganini tan olish oson; lekin foydali yechimlarni topish boshqa gap.*

\*\*\*

*Men faqat kuchlilarni nishonga olaman. Kuchsizlarga satira yo'naltirilsa, bu nafaqat shafqatsizlik, balki vulgarlik bo'ladi.*

\*\*\*

*Siz birinchi kursda o'qiyotganingizda, katta kursdagilardek ajoyib odamlar boshqa yo'qligiga ishongansiz.*

\*\*\*

*Men har doim jiddiy bo'lishdan ko'ra kulgili bo'lishni osonroq deb bilganman.*

\*\*\*

*Moslashish – ilhomlantiruvchi falsafa emas; bu yillar davomida qancha axloqiy qo'rqqulikni yashirganini faqat Xudo biladi.*

\*\*\*


*Agar Yaqin Sharqni haqiqatan ham tinchlantirmoqchi bo'lsangiz, birinchi qadam aniq: Isroil-Falastin mojarosini hal qilish.*

\*\*\*

*Men odamlarning provinsialligi endemik xususiyat deb o'ylayman; hamma ham qayerdadir provinsial, lekin texasliklarda bu juda ko'zga tashlanadi.*

\*\*\*

*Afsuski, saraton o'ldirishi mumkin, lekin sizni yaxshiroq inson qilmaydi.*



\* \* \*

Men o'z hissiyotlarim bilan aloqam yo'q bo'lgan insonlardanman. Hissiyotlarimni noqulay qarindoshdek qabul qilaman – yiliga bir-ikki marta uzoq masofadan qo'ng'iroq yetarli.

\* \* \*

Siyosatda ular pul va qog'oz uchun o'ynashadi. Sizning hayotingiz – ularning chipi.

\* \* \*

Hayotimda ko'p narsa haqida qaror qilmaganman. Hayot shunchaki bo'lib o'tmaydimi?

\* \* \*

Ko'p siyosatchilar siyosatning o'zini yaxshi ko'radi, lekin boshqaruv bilan qiziqmaydi. Ba'zilari esa boshqaruvni yaxshi ko'radi, lekin siyosatdagi "baho"si juda yomon.

\* \* \*

Odamlarni hibsga olib, qamoqxonada ushlab turish – dahshatli g'oya.



\* \* \*

Eng yaxshi va eng yomon tomoni – internetda darvozabonlar yo'q. Shu sababli ko'p noto'g'ri ma'lumotlar tarqaladi, lekin vaqt o'tishi bilan ular tuzatiladi.

\* \* \*

Maktablarni tuzatishga urinishda eng muhim narsa shuki, tezkor natija bo'lmaydi.

\* \* \*

Qonunchilik tili etimologiya qonuni bilan boshqariladi, bu ham byurokratiyaning qadimiy kodidir: to'g'ri bo'lishi shart emas, hukumat ishini yuritishga yetarlicha yaqin bo'lishi kifoya qiladi.

\* \* \*

Men o'z o'limimga qarshi turish natijasida yaxshiroq inson bo'laman, deb umid qilganman, lekin bu sodir bo'lmadi.

\* \* \*

Odamlar qoidalarini to'xtatib turish uchun emas, o'zlarini to'xtatib turish uchun harakat qiladilar.

\* \* \*

Erkinlikni doimiy va keng yo'l sifatida ko'radiganlar katta xato qiladilar.

\* \* \*

Aslida bizga yetib kelmagan, e'tibordan chetda qolgan, tan olinmagan hikoyalar bizni do'zaxga olib boradi.

\* \* \*

Klintonning siyosatchi sifatida eng noodatiy jihati shuki, u tinglaydi. Tinglaydi va eslaydi. Agar u pul bergan boylar bilan emas, uni yetkazganlar bilan raqsga tushsa, biz qo'limizdagi populist bo'lardi.

\* \* \*

Kapitalizmning muammosi shundaki, faqat kapitalga ega bo'lgan yoki uni topa olganlar undan foyda ko'radi, qolgan deyarli barchamiz tashqarida qolamiz.

\* \* \*

Oldindan urush – bu Isroilning 1967-yilda arab armiyalari bilan chegarada qilgan ishidir.

Men o'z muvaffaqiyatlarimdan qo'rqib, psixologga bordim.

LUQVIOM BO'RIKON

# KUTILMAGAN

(HIKOVVA)

## TASHVISH



Sherqo'zi shoshilmay kiyinib, yasan-tusan qilib bo'lgan ham ediki, tuyquq telefon jiringlab qoldi. Hasan qo'ng'iroq qilayotgan ekan.

— Ey, donishmand, — dedi u odatdagi hazilkashlik bilan, — uyingdan chiqdingmi? Yo o'tiribsanmi lallayib?

Sherqo'zi do'stining nima demoqchi ekanligini bilsa-da, o'zini butkul bexabar, beparvo odamdek tutdi.

— Uyda o'tirmay qayoqqa borishim kerak? Axir bugun yakshanba, hamma es-hushi joyida odamlarga o'xshab men ham dam olyapman, kitob o'qib, madaniy hordiq chiqaryapman.

— Ey, — fig'oni falakka chiqdi Hasanning, — sening es-hushing joyida emas. Bugun kursdoshlar uchrashuvi bo'ladi-ku?! O'zim senga necha marta tayinlab aytganman-a.

— E-e-ya... unutilman. Qayerda, qachon bo'ladi uchrashuv?

— Hozir. Bir soatdan so'ng "Visol" restoranida.

— Bo'ldi, tushundim. Hozir kiyinib, yo'lga chiqaman.

— Tez bo'l, kutib qolmaylik. E, aytgancha...

— Yana nima gap?

Hasan sirli bir sasda shivirlagan bo'ldi.

— Maysara ham keladi... burun-murningni yaxshilab artib ol. Sherqo'zining a'zoyi badani jimirlab ketdi. Ko'z o'ngida kulcha yuz, olma yonoq, kokillari uzun-uzun qiz lip-lip jonlandi. Maysara! Sherqo'zi uni tahsilning ilk kunlaridayoq sevib qolgan edi! Saboqlarga ham aslida shu qizni deb borardi. Nogoh Maysara kelmay qolsa, o'sha kun yigitning nazarida butun olam huvillab qolganday tuyulardi. Qiz ham Sherqo'ziga befarq emas ekan! Keyinchalik, ikkovi hammaning havasini keltirib, qo'l ushlab yuradigan, sirli-sirli shivirlashadigan, dars paytlari ham ko'z urishtirib, imo-ishoralar bilan gaplashib to'ymaydigan bo'lishdi.

Maysara! Dimog'ida allaqanday xushbo'ylar kelib urilganday bo'ldi yigitning. Yuz-ko'zlarini mayingina, muzdekkina bir dasht epkini silab o'tganday tuyuldi. Yuragida lazzatli bir iztirob qo'zg'aldi.

Sherqo'zi g'alati hislar og'ushida ancha payt turib qoldi. So'ng boshadoq akslantiradigan ko'zguga yuzlandi. Qimmatbaho liboslari o'ziga yarashiq, sochlari silliq, kalta orastalangan, o'rta bo'y, xushbichim, xush surat, o'ttiz yoshdan endigina olovday sachrab o'tgan yigit jiddiy tikilib turardi.

O'z qiyofasidan Sherqo'zining ko'ngli to'ldi. Sipo odimlar bilan hovliga chiqdi. Kumushtusda tovlanib turgan avtomobil tomon yurdi.

"Ichkilik bo'lishi aniq. Yaxshisi, mashinasiz borganim ma'qul", — tuyquq xayolidan o'tdi uning.

Sherqo'zi serqatnov ko'chaga chiqdi. Xayolida yana Maysara jonlandi. O'qishni bitirgan yili uylanish masalasi o'rtaga chiqdi.

"Bir kursdosh qizni sevaman, o'shanga uylanmoqchiman", — deya yangasi orqali ota-onasiga bildirgan bo'ldi Sherqo'zi.

Har gal bolalarining ko'ngliga qaraydigan ota bu safar to'nini teskari kiydi. "Sen aytgan qiz narigi mamlakatda yasharkan-ku," — dedi u kechki ovqat ustida qovoq uyib, — endi bir kamim chegarachilarga sarg'ayib yurishmi, yo'q, bo'lmaydi, uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi, shu atrofdan birortasini tanla".


Sherqo'zi otasiga e'tiroz bildira olmadi. Oradan uch-to'rt kun o'tib onasi-yu ammalarining qiyin-qis-tovi bilan qiz ko'rgali bordi. Shahardagi katta bir amaldorning arzandasi ekan.

"Mayli, yoqmasa, unga uylanmaysan, avval sen bir ko'rgin", — deb zorlandi onasi.

Sherqo'zi shu taxlit Nodira bilan uchrashdi va... kutilmaganda qiz unga yoqib qoldi. Go'zal, hayoli, ustiga-ustak, nufuzli xonadondan, tag'in nima kerak. Yigit go'yo sehrlanib qolganday bo'ldi. Beixtiyor Nodiraga uylanishga rozichilik berib yubordi. To'yga taklif etilgan sobiq hamsaboqlar hangu-mang bo'lib qolishdi. Ular Sherqo'zining Maysaraga uylanishini allaqachon bashorat etib qo'yishgandi.

Ko'pgina hamsaboqlar Sherqo'zini nomardlikda, xiyonatkorlikda ayblab, o'z nafratlarini namoyishi sifatida to'yga kelishdan bosh tortishdi.

"Nima gap o'zi? Yo Maysara bilan urushib qoldingmi? — deb so'radi Hasan chinakamiga ajablanib, chinakamiga kuyinib, — ochig'ini ayt".





“Urushib qolganimiz yo‘q... lekin... oila qurishga va‘dalashganimiz ham yo‘q”, — dedi Sherqo‘zi quruqqina qilib.

Rost, ular ma‘lum-u mashhur oshiq-ma‘shuqlarga xos ahd-u paymon qilishmagan edi.

To‘g‘ri, Sherqo‘zi ovloq oqshomlarning birida, quyuc daraxtzorda visollashib o‘tirishgan payt, qoni qizib, yuragi toshib, shivirlashga tutindi. “Diplom olgan kunimizoz siznikiga sovchi yuboraman. Bir umr birga...” Maysara tuyqus o‘rnidan irg‘ib turdi. Ehtirosli so‘zlari bo‘g‘zida qolgan Sherqo‘zi unga ajablanib tikildi.

“Maysara, nega achchig‘lanyapsiz, yo, gaplarimga ishonmayapsizmi?”

“Tish-sh... — Qiz tantiqlik bilan yigitning lablariga ohista kaft bosdi, — oldindan va‘dalashmaylik, axir, hayotda nimalar bo‘lmaydi deysiz. Keyin bir umr qiynalib yuramiz”.

Nodira bilan unashtirilgan kuni Sherqo‘zi Maysaraning chinakam oqila qiz ekanligiga yana bir karra tan berdi. Ammo uni to‘yga taklif etishga iymandi. Bu qiligi oshkora surbetlik, haqorat bo‘lishini yigit tushundi. Biroq tantanali bazm boshlanishidan bir kun avval Hasan uning qo‘liga shapaloqdekkin taklifnoma tutqazib ketdi. Bu Maysaradan edi! O‘sha kuni uning ham to‘yi tayinlangan ekan! Sherqo‘zi avvaliga ishonmadi, kimdir nayrang qilyapti, degan xayolga bordi. Sinchiklab qaray-qaray Maysaraning husnixatini tanib taklifnoma haqiqiy ekanligiga iqror bo‘ldi.

“Baxtli bo‘l, Maysara!” — ich-ichidan xitob qildi u, ko‘nglini qoplab yotgan xijillikdan ancha qutilib.

To‘y tantanali o‘tdi. Kelinga qo‘shilib Sherqo‘zilar xonadoniga farovonlik, halovat yopirilib kirdi.

Nodira boy-badavlat, nufuzli oilada o‘sgan arzanda tantiq qizga sira o‘xshamas edi. Odob-axloqda, bekalig-u pazandalikda tengsiz chiqib qoldi. Buyog‘i, qaynota ham kuyovini qo‘llab tuzukkina amalga joylab qo‘ydi. Yoshlar nikohiga bir yil to‘lishi munosabati bahonasida ularga uch xonali uy hadya qildi. Sherqo‘zi baxt-iqboldan sarmast edi. Bu sartmastlik o‘y-xayollaridan Maysarani tezda quvib chiqardi. Nodira shirigina qizaloq tug‘ib berganidan so‘ng esa oilasiga butkul bog‘landi-qoldi. Sherqo‘zi ish va ro‘zg‘or tashvishlariga butkul singib ketdi. Vaqt, Zamon charparagida shoshqin-toshqin, shu barobarida, xush-xandon aylanardi. Maysara uning uchun shunchaki bir olis bir o‘tmishga evrilib qoldi.

Mana bugun Hasandan Maysara haqida eshitdi-yu, a‘zoi badaniga ajib harorat taraldi. Go‘yo kul ostida qolgan cho‘g‘ qayta uyg‘onganday bo‘ldi. Nega?! Bu qanday sir-u sinoat? Axir ayol zotidan olish mumkin bo‘lgan neki, hammasini Nodiradan topdi-ku? Bir yigitning baxti shu emasmi?

Yo‘lovchi mashinaning orqa o‘rindig‘ida yastangan Sherqo‘zi shunday xayollar og‘ushida tayinlangan manzilga yetib kelganini sezmay qoldi. Sohir, salqin kuz oqshomlaridan biri edi. Shahar qop-qora chodrasiga burkanib borardi. Sassiz, shovursiz shabadadan dov-daraxtlar yengil titranib turardi. Ser-shovqin “Visol” restorani son-sanoqsiz chiroqlardan charog‘on. Sobiq hamsaboqlar Sherqo‘zini qiyqiriqlar bilan kutib olishdi. Sherqo‘zi beixtiyor kimnidir quchib, kimlarningdir quchog‘iga kirib chiqa boshladi. Qizlar bilan qo‘l berib qizg‘in ko‘rishgan bo‘ldi. Ular bir paytlardagi sho‘x-shaddod, o‘t-olov hurliqolar emas, birikki bolaning onasi, bosiqqina juvonlarga aylanib ulgurishgan edi. Hatto, ba‘zilari serzarda, ser-shubha erlari bilan kelishgan ekan. Yuz-ko‘zlariga zavq, quvonch qalqqan hamsaboqlar davrasida ular allanechuk begonasirab turishardi.

Sherqo‘zi do‘stlar bilan diydorlasharkan, ko‘z qiri bilan kimnidir izlardi. Ana u!

Maysara qizlar orasida hamma qatori kulib, gaplashib turardi. Egnidagi odmigina kulrang kofta-yubka, silliq tarab-turmaklangan sochlari, to‘lishgan qomati uni xiyla qarimsiq ko‘rsatardi. U Sherqo‘zining ko‘rishish uchun uzatgan qo‘liga kaft bosarkan xuddi uyalchang qizlarday boshini bir

yonga andak qiyshaytirib “yaxshimisiz”, deb qo‘ydi. Yonoqlari qizarib, ko‘zlari allanechuk porlab ketdi.

Dasturxon to‘kin edi. Barcha taomlar tomon intildi. Davraga odatdagidek Hasan bosh-qosh. Tabiatan sergap, hazillakash va hozirjavob bu yigit talabalik chog‘lari ham turli-tuman tadbirlarga tashkilotchilik qilar, hamisha shoshib-surilib, jamoa tashvishi bilan kuymalanib yurardi. Mana shu diydorlashuv marosimini ham uning o‘zi uyushtirdi.

Sherqo‘zi Hasanning yonidan joy oldi. U noz-u ne‘matlardan totinar ekan, gap-so‘zlar orasida hamsaboqlariga bir-bir razm solib chiqdi. Hammalari ham hayot tashvishlari zalvoridan ezilgan, horigan, turmushlari tuzukroq o‘nglanmagan ko‘rinardi. Sherqo‘zi ulardan ancha o‘zib ketganini, hatto, ayrimlar unga havas bilan tikilayotganini payqadi. Maysara bilan ham bir-ikki ko‘z urishtirib oldi. Qiz nigohlarida beadoq sog‘inch va hasrat ko‘rganday bo‘ldi.

– Maysara eri bilan kelmadimi? – deb so‘radi Hasandan u. Hasan ajablangannamo ko‘z piriptirdi.

– Nimalar deyapsan, Maysara hali turmushga chiqqani yo‘q.

– Qanaqasiga?! To‘yga taklifnomani tarqatgan edi-ku?

– Ha, umi, – Hasan oldidagi qadahni bir sipqorib bo‘shatdi, – bor-yo‘g‘i bir dona edi. U ham bo‘lsa sening nomingga...

Sherqo‘zi do‘stiga chimirilib tikildi.

– Tushunmadim...

– Donishmandsan-ku, tushunib ol, u shunchaki... seni vijdon azobidan qutqarmoqchi bo‘lgan, chunki seni vijdonli deb o‘ylagan...

Shu asno childirma-yu nog‘oralar gumburlab, kuy-qo‘shiq boshlanib ketdi. Gap-so‘zlar eshitilmay qoldi.

Sherqo‘zi g‘alati bir hislar og‘ushida Maysara tomon ko‘z tashladi. Qiz xuddi yelkasiga og‘ir yuk ortilganday egilib-bukilib yonidagi dugonasining gaplariga quloq solgan ko‘yi parishon bosh irg‘ab o‘tirardi.

...Sherqo‘zi shirakayf edi. Ko‘z ostidan Maysarani kuzatardi. Biror bahona bilan qizga yaqinlashishni chamalardi.

Bir payt kimdir Maysaraning ilkidan tortqilab uni raqsga undadi. Maysara o‘rnidan tura-tura yonidagi dugonasini ham qo‘ltiqlab oldi.

Sho‘x, o‘ynoqi musiqa avjida edi. Dasturxon tegrasida qolgan yakkam-dukkam hamsaboqlar qiyqirishar, zo‘r berib qarsak chalishar edi. Sherqo‘zi stillarni nari-beri surib o‘rnidan turdi. Qo‘llarini havoda to‘lg‘ab, o‘ynoqlab Maysaraga yaqinlashdi.

– Yaxshimisiz?

Maysara shovqin-suronda hech narsa eshitmagan bo‘lsa-da, yigitning lab harakatlaridan ne deganini payqadi shekilli, jilmaygan ko‘yi bosh tebratib qo‘ydi. Ularning raqsi ko‘p ham qovushmadi. Ayniqsa, Maysara tobora tisarilib, joyiga qaytib o‘tirishga chog‘lanardi.

– Yuring, bir pas toza havoga chiqamiz, – dedi qiz tomon engashib Sherqo‘zi.

Maysara bosh irg‘adi.

– Xo‘p. Bir sekund, sumkamni olvolay.

U ildam borib stul qirrasiga osig‘liq charm jildli sumkachani yelkasiga osib oldi.

Shovqin-suron, jazava og‘ushidagi davra ularga e‘tibor bermadi. Vaqt allamahol bo‘lib qolgan edi. Shahar qorong‘ulikka qorishib yotardi. Unda-munda yonib turgan neon chiroqlar horg‘in va xira miltiraydi.





Ular marmar qoplamali naqshinkor ayvonga chiqishdi. Har ikkisi ham nelarnidir hurkitib yuborishdan cho'chiyotgan bolalardek ohista, ehtiyotkorona qadam tashlashardi.

– Ishlayapsizmi? – deb so'radi Sherqo'zi.

Maysara xayolchan bosh irg'adi.

– Ha. Qishlog'imizdagi maktabda dars beryapman.

– Siz mendan xafasiz-a.

– Nega?! – Maysara yalt etib unga ko'z tashladi, so'ng ayvon chirog'i tevaragida charx urayotgan parvonaga tikilib qoldi, – oramizda xafagarchilikka arzigulik hech narsa bo'lmadi-ku. Hammamiz o'z yo'limizdan ketdik, xolos. Sherqo'zi silliq va sovuq, qoq o'rtasidan darz ketgan marmar to'singa suyandi.

– Hammasi kutilmaganda yuz berdi. Xuddi jodulangan odamga o'xshab qoldim.

– Sizning nolishga haqqingiz yo'q. Ko'rib turibmiz, hali ham chaqmoqday yigitsiz. Kursdoshlarning ko'pisi halitdan charchab qolibdi.

– Rahmat, – deb g'udrandi Sherqo'zi.

U o'zini g'am-g'ussali ko'rsatishga tirishayotgan bo'lsa-da, qizning e'tirofidan beixtiyor yayrab, aftiga odatdagidek mamnuniyat qalqib chiqdi. Ammo xuddi nelarnidir qidirayotganday qorong'ulik qa'riga termulib turgan qiz buni payqamadi.

– Ha, aytganча, – deb siniq jilmaydi Maysara, sumkachasini titkilashga tutinarkan, – bir omonatingizni berib qo'ymoqchi edim.

– Omonat?!

– Ha. Mana.

Maysara bandidan bir-biriga bog'langan, yelim qog'oz orasiga bejirimgina joylangan bir juft so'lg'in yaproqni kaftida tutib turardi.

– Bu... – deb g'udrandi Sherqo'zi, bo'g'ziga allan-ima tiqilganday tuyuldi, yalt etgan chaqindan qarog'lari qamashib ketganday bo'ldi.

– Ha, bu o'sha yaproqlar, – deb pichirladi Maysara.

Sherqo'zi dovdirdi. Xotirasining qay bir puchmoqlari nogoh yorishib ketdi. O'sha xilvat bog'dagi uchrashuv ko'z o'ngida jonlandi. Ikkisi ulkan daraxt soyasida suhbatlashib o'tirardi. Shox-shabbalar orasida titrabgina turgan bir juft yaproq tuyquq Sherqo'zining e'tiborini tortdi: yurak shaklida edi ular!

“Maysara, bularga qarang!” – deb yubordi Sherqo'zi, so'ng barglarni avaylabgina yulib oldi. Qiz ham hayajonlandi. Yigit kaftiga qo'ygan bir juft yaproqqa ancha payt xayolchan tikilib qoldi.

“Chindan ham yurak shaklida ekan”, – deb shivirladi u.

“Ha, ikkimizning yuragimiz!” – deb entikdi Sherqo'zi.

Maysara sarxush hislardan yal-yal yashnadi. Kuldi. “Endi bularni nima qilamiz?”

“Aytдим-ku, bu ikkovimizning yuragimiz, – dedi Sherqo'zi battar to'lqinlanib, – navbatma-navbat uni bag'rimizda asrab yuramiz”.

“Kim birinchi asraydi?”

“Men”.

“Yo'q, men”.

“Nega?”

“Chunki, – dedi Maysara qo'sh yaproqni kitobi orasiga ohista qo'yarkan, – bularni avval bir-biriga mahkam bog'lab, keyin biror narsaning qatiga xuddi tumorday yaxshilab joylash kerak. Buni siz qilolmaysiz. Uquvingiz yo'q”.

“Bo'pti, roziman. Lekin so'ragan paytim darrov topib berasiz. Xuddi uchchanoq o'yiniday, bilasiz-a...” “Bilaman. Kelishdik”.

Ammo Sherqo'zi kelishuvni tezda unutdi. Qo'sh yaproq haqida biror marta ham eslamadi. Mana, endi...

...Yaltiroq qog'oz qatida sarg'ish-yashil tusda tirishib turgan o'sha ajoyibotni qo'liga olarkan, Sherqo'zining yuragi gupirib ketdi.

– Hali asrab yuribsizmi?! – dedi u Maysaraga taajjub bilan tikilib, – qoyilman... Bo'pti, navbat endi menga, ko'z qorachig'iday asrayman bularni...

Shu payt uch-to'rt hamsaboq ayvonga yoprilib chiqdi.

– Mana, qochoqlar! – dedi Hasan mastona qiyqirib, – qo'lga tushirdik.

Bahodir Sherqo'zini qo'ltiqlab oldi.

– Pana-panada gaplashish mumkin emas. Qani, ichkariga. Sherqo'zi hali-hanuz shirin bir iztirob og'ushida sarxush turardi. Hamsaboqlarga parishon tikildi. Maysara kimningdir yetovida ichkariga yo'rg'alab ketdi.

“Bo’pti, men hozir kiraman, boraveringlar”, — dedi Sherqo’zi negadir yolg’iz qolishni istab.

Ammo ikki hamsaboq uni sudrakladi.

— Yo’-o’, biz bilan olg’a!

Sherqo’zi o’sha kech qadahlarni ketma-ket bo’shatdi. Yer-u ko’k ko’z oldida chirpirak bo’lib ketdi.

U qachon, qanday uyiga yetib olganini eslayolmaydi. Xotini ming’irlab, turtkilab uyg’otganida kun choshgoh bo’lganini payqadi. Boshi zil-zambil edi.

“Iya, ishga borish kerak-ku?!”

Shu o’y Sherqo’zini o’rnidan sapchib turishga majbur qildi. U boshining lo’qillab og’rishiga arang chidab kiyinar ekan, tungi voqealarni bir-bir eslashga urinib ko’rdi. Ammo mast-alast davradan, kimdir qo’ltiqlab allaqanday mashinaga o’tqazganidan boshqa hech narsani tuzuk-quruq xotirlay olmadi. Nogoh ko’z oldida Maysara jonlandi.

“Iya, uni ko’rdim-ku?! U bilan ayvonda gaplashdik-ku?! — yarq etib xayolidan o’tgan o’ydin Sherqo’zi taxtaday qotib qoldi. Beixtiyor oshxonada kuymalanib yurgan xotiniga qaradi. — Sezdimikan? Hoynahoy, birortasi allaqachon chaqmacha qarlik qilgandir”.

Ammo Nodira hamishagidek tabassum bilan uni dasturxonga chorladi.

Sherqo’zining ishtahasi yo’q edi.

— Achchiq qora qahvadan damlang, — deb ming’irladi u.

— Hammasi tayyor, dadasi, keling, o’tiring.

Sherqo’zi yengil-yelpi artinib, oshxonaga kirdi. Quyuq bug’ taratib turgan qahvadan ho’pladi.

— Juda zo’r bo’pti.

— Kursdoshlar bilan rosa yayrabsizlar-da, a, tongga yaqin keldingiz.

— Besh yilda bir uchrashdik. Ichmasang, xafa bo’lishadi, — deb go’yo o’zini oqlagan bo’ldi Sherqo’zi.

Nodira ayyorona ko’z qisdi.

— Qizlar ham kelishdimi?

— Qanaqa qizlar, hammasi yo’g’on-yo’g’on ayollar.

— Ba’zilarini ko’rib, eski yaralar tiralgandir, — deb sharaqlab kuldi Nodira, — balki shuning uchun bo’kib ichgandirsiz.

Uning kulgisi beg’ubor, beozor edi! Uning kulgusi baxtiyorlikka limmo-lim edi. Sherqo’zi beixtiyor gunohkorona bosh egdi. Dasturxondan ul-bul totingan bo’ldi.

— Maza qildim, rahmat, endi ishga, — u shunday deb o’rnidan turdi.

Ko’chalik kiyimlarini kiya boshladi. Shu payt... shu payt yuragi shuv etib ketdi. Ishonqiramay cho’ntaklarini qayta-qayta paypaslab chiqdi. “Yo’q! Hujjatlarim yo’q!” — ich-ichida hayqirib yubordi u.

Xonaning u yoq-bu yog’ini sinchiklab ko’zdan kechirdi. Kishi bilmas hovliga chiqib, mashinasi salonini tekshirdi. Ammo hujjatlarini topa olmadi. Xotinidan so’rashga botinilmadi. Gap-so’z ko’payib qaynotaning qulog’iga yetib borishidan cho’chidi.

Sherqo’zi bo’shshagan ko’yi dahlizdagi kursiga o’tirib qoldi. Sochlari g’ijimlab hamma-hammasini eslab ko’rishga urindi:

Hovliga chiqdi, mashinasini yonida o’ylanib qoldi, ichkilikbozlik bo’lishini sezdi, taksida ketdi, ammo aniq esida, mashinasi hujjatlarini, xizmat guvohnomasi qo’yin cho’ntagida edi! Biror bahona bilan ko’z-ko’z qilib hamsaboqlariga mashinasi borligini imi-jimida bildirib qo’yishni mo’ljallagan edi.

Sherqo’zi ilinj bilan Hasanga qo’ng’iroq qildi. Ta’bi tirriqligidan gapni cho’zmay, darrov muddaoga ko’chdi.

— Hujjatlarim yo’qolib qoldi.



— Qanaqa hujjatlar?  
 — Textalon, prava... yana xizmat guvohnomam...  
 — Balki biror yerga qo'ygandirsan? Axir mashinasiz bording-ku.

— Aniq esimda, hujjatlar qo'yin cho'ntagimda edi.  
 — Bilmadim, — dedi Hasan ham bo'shashib, — men sizlardan ancha oldin qaytdim. Ketamiz, deb Maysara bilan Gulnora holi jonimga qo'yishmadi. Ularni manzil-manziliga tashlab qo'yishga majbur bo'ldim.

— Endi nima qildim-a...  
 — Bilmadim... aytgancha, Maysara bilan ayvonda shivirlashib turgan ekansizlar, qalay, ko'z yosh to'kib oldilaringmi?

Sherqo'zining ayni paytda hazil-huzulga tob-u toqati yo'q edi. Go'shakni do'qillatib joyiga qo'ydi: "Birov o'laman desa, birov kulaman deydi". Ammo shu barobarida xayolida lop etib Maysara jonlandi. Ma'yus nigohlari, qimtinib turishlari ko'z o'ngida bir-bir o'tdi.

"Aytgancha, Maysara bergan narsa qani?! — nogoh eslab qoldi Sherqo'zi. Tag'in cho'ntaklarini bir-bir titkilashga tushdi. Shu payt ichkaridan Nodira chiqib keldi.

— Nega bezovtalanib qoldingiz?

Sherqo'zi titkilanishdan to'xtab beixtiyor xotini tomon yurdi. Dovdiragan ko'yi hujjatlari yo'qolib qolganini aytdi.

— Qanaqa hujjatlar?

Nodira ham tashvishlanib u yon-bu yonni ko'zdan kechirdi. Shu payt telefon jiringlab qoldi. Sherqo'zi ilkis intilib go'shakni qulog'iga tutdi.

— Ey, — Hasanning tajang tovushi keldi nari-gi tarafdan, — Senlarga nima bo'lgan o'zi? Hozir Bahodir ham telefon qildi. Aytishicha, uning ham cho'ntaklarini qoqlab ketishibdi.

— Demak, o'sha atrofda kissavurlar bo'lgan.

— Menimcha ham shunday. Mast-alastlarni kuza-tib qo'yish bahonasida cho'ntaklarini qoqlagan.

Sherqo'zining ko'z oldida o'zini suyab-sudraklab kirakash mashinaga o'tqazayotgan baland bo'lyi yigit g'ira-shira jonlandi.

— Gaplaring rostga o'xshaydi.

— Mendan bir maslahat, — dedi Hasan birozdan so'ng, — restoran atrofiga e'lon yopishtirib chiq, hujjatlarim yo'qolgan, topib berganga mukofot kafolatlanadi, deb yozgin.

— Foydasi bo'larmikan...

— Menimcha, foydasi bo'ladi. Chunki o'g'riga sen-ing hujjatlaring kerak emas, pul evaziga qaytib beri-shi mumkin.

Sherqo'ziga do'stining maslahati ma'qul tuyuldi. Kechga yaqin ishdan qaytar mahal o'sha restoran atrofidagi ko'zga ko'rinarli joylarga uch-to'rt e'lon yopishtirib chiqdi. Lekin baribir dili xufton edi. Chunki hujjatlar topilmagan taqdirda ularni qayta tiklash uchun xiyla ovorai sarson, xiyla chiqimdor bo'lishi tayin edi.

"Ayniqsa, xizmat guvohnomamni, — deb o'yladi Sherqo'zi yuraklari uvishib, — anavi boshliq Shomurodovning ko'ziga qanday qarayman. Guvohnoma-ni topshirayotgan payt o'zlaring yo'qolsalaring ham mayli, ammo lekin bu hujjat hech qachon yo'qolmasin, deb qat'iy tayinlagan edi. Agar ahvol uning qulog'iga yetib borsa bormi... so'rab-surishtirib o'tirmay, ishidan haydab yuborishi ham mumkin".

Oradan ikki kun o'tdi. Ammo bu Sherqo'ziga ikki asrday tuyuldi. O'zini qo'yarga joy topolmaydi. Jon-sarak yurdi. Erta-yu kech hushi hujjatlarida bo'ldi. Mashina garajga qantarib qo'yildi. Xizmatga kirakash ulovlarda qatnay boshladi. Hamisha o'z mashinasida qayqayib yurgan odamga qiyin bo'larkan. Xuddi xumori bosilmagan kashandaday garangsib yuradi. Buyog'i mayli-ku-ya, ammo har gal idoraga ki-rib-chiqayotgan payt Sherqo'zining ichidan qirindi o'tardi: ishqilib, birortasi hujjat so'rab qolmasin-da. Xayriyat, o'tgan uch kun ham idora bo'sag'asida ta-nish yigit posbonlik qildi.

"Tokay bunday qiypanglab yuraman?— deb o'yladi Sherqo'zi ishtahasizlik bilan nonushtaga o'tirar-kan — tezroq tiklashim kerak hujjatlarni, endi topi-



lishidan umid yo'q. Bugunoq rahbarlarga guvohnomam yo'qolganini aytaman, keyin DAN boshqarmasiga borib kelaman, biror tanish topib gaplashaman". Shu payt telefon bo'g'iq jiringlab qoldi. Sherqo'zi shosha-pisha go'shakni ko'tardi.

— Al-yo, eshitaman.

— E'lon bergan ekansiz, shu bo'yicha qo'ng'iroq qilyapman, — dedi allaqanday dag'al tovush.

— Ha, e'lon berganman, narsalarim yo'qolgan!

— Narsalaringiz menda.

— Iltimos... — Sherqo'zi oshkora yalinishga o'tdi, — ularni qaytar-sangiz, xizmat-ingizga mukofot naqd.

— Arzimas narsalar-ku.

Sherqo'zi beixtiyor qichqirib yubordi.

— Qanaqasiga arzimas?! Ular men uchun hayot-mamot masalasi! O'zingiz ham bilib turibsiz.

— Bilaman... tushunaman.

— Tushunganingiz uchun rahmat.

— "Visol" restoranini bilasizmi?

— Bilaman. Narsalarimni o'sha joyda yo'qotganman.

— Yo'qolmagan, men o'g'irlab olganman.

— Ha, endi... — deb chaynaldi Sherqo'zi, — adashishlar bo'p turadi.

— Ha, rostdan ham adashibman. Bir dasta pul deb o'ylabman.

— Pul kerak bo'lsa, marhamat, beraman, narsalarimni qaytarsangiz.

— Yarim soatdan so'ng o'sha yerda uchrashamiz.

— Aytgan... —

Sherqo'zi gapini tugata olmadi. Tuyqus aloqa uzildi. Sherqo'zi hanuz "gud-gud" lab turgan go'shakka o'ychan tikildi: "Surbet, qo'pol nusxaga o'xshaydi. Qancha to'lov xohlashini so'ramoqchi edim, quloq solmadi. Ja-a o'ziga bino qo'yganlardan ekan".

Sherqo'zi naridan-beri kiyinib ko'chaga otildi.

Kuz oftobi erinchoqlik bilan nur sochar edi. Chor atrof allanechuk sarg'ish, olov tusda tovlanadi. Ko'cha-ko'y gavjum. Avtolar odatdagidek chinqirib yeladi. Sherqo'zi baland bo'yli, qoramag'iz yigitni bir ko'rish-dayoq tanidi. "Xuddi shu meni mashinaga o'tqazib yuborgandi" — lip etib xayolidan o'tdi uning.

Yigit restoran biqinidagi, quyuq daraxtzor panasidagi o'rindiqda sigaret tutatgan ko'yi oyoq chalishtirib o'tirardi.

— Salom, — deb bosh irg'adi Sherqo'zi shosha-pisha yaqinlasharkan.

U nopisand bosh tebratib qo'ydi.

— E'lon bergan sizmi?

— Ha, — dedi Sherqo'zi yigitning yoniga o'tirarkan.

Yigit sigaret so'rib, og'iz-burnidan quyuq dud chiqardi.

— Nimangiz yo'qolgan edi?

— Mashinaning textaloni, pravam, xizmat guvohnomam.

— Bo'ldimi? Boshqa narsa izlamayapsizmi?

— Yo'-o'g', — deb qo'ydi Sherqo'zi andak ajablanib.

— Shu narsalarni sizga qaytib bersam, yetarlimi?

— Juda xursand qilardingiz, — dedi Sherqo'zi yalinchoq bir tovushda, — mana, suyunchisi naqd.

U yon cho'ntagidan bir dasta pul chiqarib uzatdi.

— Xo'p, kelishdik, — dedi yigit allanechuk xafa bo'lganday tumshayib, — mana, o'sha hujjatlaringiz.

Sherqo'zi hujjatlarni quvonch bilan qo'lga oldi.

— Rahmat, uka.

— Men qoidamizni buzib siz bilan uchrashib turibman. Aslida bu mumkin emas. Ochig'i, o'zimni ham, sheriklarimni ham hozir xavf ostiga qo'ydim.

— Bilaman uka, bilaman, mardlik qildingiz.

— Agar shu hujjatlarni izlayotganingizni bilganimda, siz bilan mutlaqo uchrashmasdim.

— Nega? Axir... — deb g'udrandi ajablanib.

— Siz mana bu narsani izlayapsiz deb o'ylabman, — dedi yigit yon cho'ntagidan o'sha yaltiroq qog'oz qatiga joylangan qo'sh yaproqni chiqarib, — bu siz uchun juda aziz bo'lsa kerak degan xayolga boribman.

Endi bilsam... adashibman.

Sherqo'zi so'lg'in, qovjiroq qo'sh yaproqqa hangu mang tikilib qoldi.



# “Ruhiiy tayanch”ga aylangan maton

**B**ir kun telefonsiz yashab ko'rganmisiz? Tongda ko'zingizni ochishingiz bilan qo'lingiz nimaga cho'ziladi? Budilnikni o'chirgan zahoti ijtimoiy tarmoqlarga kirish odatga aylangan emasmi? Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda inson kuniga o'rtacha 4-6 soatini smartfon qarshisida o'tkazadi. Bu – hayotimizning to'rttdan bir qismi degani.

Zamonaviy inson uchun telefon shunchaki aloqa vositasi emas. U – do'st, maslahatchi, o'yinchoq, ish quroli va ba'zan, hatto, “ruhiiy

tayanch”ga aylangan. Ammo har bir qulaylikning ikkinchi tomoni ham bor. Men internetni o'rgimchak to'riga o'xshataman: unga tushish juda oson, chiqish esa ancha mushkul. Avval qiziqish bilan kiramiz, keyin odatlanamiz, so'ng esa sezmay turib bog'lanib qolamiz.

Bugun jamiyat oldida jiddiy savol turibdi: biz telefonni boshqaryapmizmi yoki telefon bizni boshqaryaptimi?



## Raqamli davr farzandlari

Internet 1990-yillarda keng ommalasha boshladi va insoniyat tarixida yangi sahifa ochdi. Dastlab u ilm-fan, aloqa va biznes uchun mislsiz imkoniyat edi. Axborot olish tezlashdi, dunyo “kichraydi”, masofalar qisqardi. 2010-yillarga kelib esa smartfon inqilobi yuz berdi. Endi internet cho‘ntakka sig‘adigan qurilmaga joylashdi.

1997–2012-yillarda tug‘ilgan Z avlod vakillari aynan shu o‘zgarishlar davrida ulg‘aydi. Ular uchun internet begona emas, balki tabiiy muhitdir. Ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar, onlayn o‘yinlar va blogerlik madaniyati kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bu avlod tez fikrlaydi, tez moslashadi, lekin tez chalg‘iydi ham. Axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi diqqatning bo‘linishiga olib kelmoqda.

2013-yildan keyin tug‘ilgan Alfa avlod esa to‘liq raqamli muhitda dunyoga kelgan birinchi avloddir. Ular planshet va telefonni o‘yinchoq kabi qabul qiladi. Multfilmni televizordan emas, platformalardan ko‘radi. Savol tug‘iladi: hali mustahkam dunyoqarashi shakllanmagan bolalarning ongiga raqamli muhit qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

## Ota-onalarga ham raqamli savodxonlik kerak

### Muammoning salbiy oqibatlarini

Telefonning nazoratsiz ishlatilishi bir qator muam-molarni keltirib chiqarmoqda. Eng avvalo, diqqat pasaymoqda. Dars vaqtida ham xabar tekshirish, videoni ko‘rish istagi kuchayadi. Natijada bilim yuzaki o‘zlashtiriladi. Uzoq muddat bir ishga e‘tibor qaratish qiyinlashadi.

Yana bir jiddiy masala – oila bilan muloqotning kamayishi. Bir xonada o‘tirgan to‘rt kishi to‘rtta ekranga tikilgan manzarani ko‘rish qiyin emas. Suhbat, fikr almashish, birga kulish kabi oddiy qadriyatlar sekin-asta kamaymoqda.

Ba‘zi mutaxassislar buni “raqamli qaramlik” deb atamoqda. Telefon bo‘lmasa bezovtalik, zerikish, asabiylik paydo bo‘ladi. Bu esa allaqachon odat emas, bog‘liqlik darajasiga yetganini ko‘rsatadi.

Bu kabi holatlar shuni isbot etadiki, raqamli savodxonlik nafaqat yoshlar, balki ota-onalar uchun ham zaruratga aylangan.





## Nazorat – taqiqlash emas, yo'naltirish

### Internetning ijobiy imkoniyatlari

Masalaga bir tomonlama yondashish to'g'ri emas. Internet – ulkan imkoniyatlar manbai. Onlayn ta'lim platformalari orqali dunyoning yetakchi universitetlari darslarini ko'rish mumkin. Chet tillarini o'rganish, kasbiy ko'nikmalarni oshirish, masofadan turib ishlash – bularning barchasi internet tufayli qulaylashdi.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, muammo texnologiyaning o'zida emas, balki undan foydalanishdagi muvozanatda. Telefon to'g'ri maqsadga yo'naltirilsa, u katta qulaylik yaratadi.

Masalan, men Instagram'da bir ustozning intizom bo'yicha marafoniga qo'shildim. Shu marafon davomida bir oy ichida har kuni jami 12 soatga yaqin muntazam dars qildim. Bu tajriba menga shuni ko'rsatdiki, telefon vaqt o'g'risi emas, balki to'g'ri ishlatilsa rivojlanish vositasi ham bo'lishi mumkin.



## Yechim va takliflar

Bugungi vaziyat jiddiy yondashuvni talab qiladi. Avvalo, mediasavodxonlikni oshirish zarur. Maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida axborotni tanqidiy tahlil qilish, yolg'on xabarni ajratish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha darslar kuchaytirilishi kerak.

Ota-onalar ham befarq bo'lmasligi lozim. Nazorat – taqiqlash emas, tushuntirish va yo'naltirishdir. Bolaga telefon berishdan oldin undan foydalanish qoidalarini kelishib olinishi zarur.

Yoshlar uchun sifatli va foydali kontent yaratish ham dolzarb vazifa. Ma'rifiy videolar, milliy qadriyatlarini targ'ib qiluvchi sahifalar, kasbiy rivojlanishga yordam beruvchi platformalar ko'payishi kerak.

Eng asosiysi – ongli tanlov. Har bir inson o'z vaqtining egasi ekanini his qilishi lozim. Texnologiya maqsad emas, vosita ekanini unutmasligimiz zarur.

## Xulosa

Bugungi raqamli asrda telefonni hayotimizdan butunlay chiqarib tashlash imkonsiz. U biz bilan birga yashaydi, ishlaydi, o'rganadi. Ammo u bizni boshqarmasligi kerak.

Savol yana o'rtaga chiqadi: telefon bizni ishlatyaptimi yoki biz telefonni? Javob oddiy ko'rinadi, ammo amalda murakkab. Chunki har bir "scroll", har bir "like" bizning ongli yoki ongsiz tanlovimizdir.

Shunday ekan, bugundan boshlab o'zimizga savol beraylik: men telefonni boshqaryapmanmi? Agar javob qat'iy "ha" bo'lsa – demak, biz raqamli asrning haqiqiy egalarimiz.

**Muslimbek MUQIMBOYEV**  
Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti talabasi

# 9 FEVRAL

- CHIN SAN'ATKOR

## DILOROM KARIMOVA

TUG'ILGAN KUN!

Dilorom opa  
deydiki...



Qanday shoh yutadi?  
Qattiqqo'l, shafqatsiz  
shohmi yoki xalqni sevuvchi  
ma'rifatparvar ziyoli shohmi?  
O'ylab javob topolmaysiz...  
Ko'r-ko'rona xatti-  
harakatlar-u mahdudlikka  
dush kelgach, millatning  
fojiasi nimada ekanligini  
tushunganday bo'ldim.  
Musichai beozor qiyofalar  
ortida qanchalar jaholat  
bekinib yotibdi?! Ruhning  
biqirligi, fikriy qoloqlik  
qanchadan-qancha chiroyli  
fikrlarning o'sib unishiga yo'l  
qo'ymas ekan. Eng qizig'i,  
mahdudlik fikr tarovatini  
sezib, unga tish-tirnog'i  
bilan qarshi chiqadi. O'zining  
tabiatiga to'g'ri kelmaydimi,  
uni yo'q qilishi kerak, tamom-  
vassalom! Mana shular  
ham Mirzo Ulug'bek fojiasini  
tushunishimga yordam berdi.  
Unga QALBI xalaqit bergan  
ekan. Bunday insonlar  
mustabid bo'lolmaydi.



San'at yaxshini yomon,  
yomonni yaxshi qilolmas  
ekan. U faqat ezgulikka moyil,  
yaxshilikka ishonuvchan,  
nozik qalblarga dalda bo'la  
olishi mumkin ekan. Bolaning  
ko'zlariga qarang, qanday  
mas'um! Odam bu hayotga  
baxtli bo'laman, sevaman-  
sevilaman, degan chiroyli  
niyatlar bilan kirib keladi.  
Lekin bora-bora bu nigohlar  
so'nadi, xunuklashadi...  
muhabbat to'la nigohlar o'z  
o'rnini alamga bo'shatib  
beradi... San'at bizga ezgulikka  
bo'lgan ishonchimizni saqlab  
qolishimiz, qalbimizni, hech  
qursa xayollarimizni asrab  
qolishimiz uchun ham kerak.



Hayotda yolg'onchi, fitnakor  
zimdan ish olib borishi ayni  
haqiqat. Uni payqash uchun  
ulkan farosat kerak bo'lar  
ekan. Men esa atrofimda  
kezib yurgan, menga goh  
xo'mrayib, goh irshayib  
qaragan yolg'onni kech  
payqardim yo umuman  
ko'rmasdim. Negaki, men  
boshqa olamda - san'at  
yaratgan ruhiy-xayoliy  
ma'voda yashardim. Bu  
lomakonda yurgan odamning  
nigohi osmonga qadalgan, shu  
bois u oyoq ostidagi qurt-  
qumursqalarni ko'rmaydi.  
Sahnada yolg'on, fitna ko'z  
o'ngingizda harakat qiladi,  
hayotda esa... Yomonlik  
ko'pincha o'zi to'qigan makr  
to'rlari orasidan chiroyli  
ko'rinishi kimning xayoliga  
kelibdi deysiz!

\* \* \*

*Men baxtni ko'rganman. Ko'rganman. Aniq.  
O'rdada nogahon kelgan ro'baro'.  
Qish kuni. Paltoga olgan o'ranib,  
Besas bir hayratda qotganman: – Voy-bo'!..*

*Yo'lkalar chetida baland chinorlar,  
Qator tizilishgan. Beharakat. Jim.  
Dong qotgan bekatlar, qorlar, shiorlar...  
Ammo baxt ekanin bilmagan – hech kim.*

*Baxt juda chiroyli edi! Chiroyli!  
Chiroyli! – sovuqda yuzin yashnashi.  
Hatto qor poyida g'irchillar edi,  
Tanini ezsa ham o'tkir poshnasi.*

*Yuzi tegrasida ro'moli – tuman.  
Bir uchi kiftiga tashlangan edi.  
Lollikdan boshqa hol bo'lgan edi man –  
Uni ko'rib bu ish boshlangan edi.*

*Men baxtni ko'rganman. Ko'rganman. Aniq.  
Hatto ko'zlarimiz uchrashgan bir zum.  
O'rtada bo'lmagan salom-u alik,  
Faqat lablariga qo'ngan tabassum.*

*Shu tarz o'tib ketgan yonimdan. Tashxis:  
Jonim chiqmaslikka u dam yaragan.  
O'grilib qaragam, ortimga ilkis,  
Ishoning-ishonmang, baxt ham qaragan!*

*Shundan buyon menga bu dunyo bir pull!  
Nomard g'alvalari berolmas ozor.  
Yuragim erta-kech she'r bilan mashg'ul –  
Baxtni uchratganman! Nima g'amim bor!*

*Yonib kirib kelsam (yurishim – sarbast!) –  
Fasod davralarga – g'iybat tinadi,  
Axir, menga hech kim kelolmaydi bas –  
Baxtga duch kelganim barcha biladi.*

*Mardligim bilishar (do'st-u yov ogoh!):  
Nechun "yur" deb baxtni qistamaganman,  
Baxtni etmaganman ne uchun hamroh?..  
Bebaxt bo'lishini istamaganman.*

Usmon AZIM

